

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

G'ANIYEVA XAYRINISO BAXTIYAROVNA

**PUNKTUATSION BELGILAR PRAGMALINGVISTIK
XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK
TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy-adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

**filologiya fanlari doktori, professor
Mamatov Abdug‘ofur Eshonqulovich**

JIZZAX – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PUNKTUATSIYA (SINTAKTIK) TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILLARI.....	11
1.1.§ Jahon tilshunosligida punktuatsiya tizimiga doir ilmiy-nazariy mulohazalar.....	11
1.2.§ Punktuatsion belgilarning struktur-tizimli jihatlari.....	26
1.3.§ Pragmatik ma'noni ifodalashda punktuatsion belgilarning ahamiyati	43
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	57
II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI PUNKTUATSIYASINING FUNKSIONAL JIHATLARINING QIYOSIY TADQIQI	60
2.1.§ Ingliz va o'zbek tillarida gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilarining o'xhash va farqli jihatlari.....	60
2.2.§ Ingliz va o'zbek tillarida gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilarining o'ziga xos xususiyatlari.....	75
2.3.§ Ingliz va o'zbek tillarida aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilar.....	89
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	98
III BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TINISH BELGILARINING PRAGMALINGVISTIK HAMDA TARJIMAGA XOS JIHATLARI	100
3.1.§ Ingliz va o'zbek tillari punktuatsion tamoyillarning pragmatik jihatlari	100
3.2.§ Ingliz va o'zbek tillari punktuatsion belgilarining pragmatik xususiyatlari	112
3.3.§ Asliyat matnidagi tinish belgilarining tarjima matnlarida ifodalanishining pragmaliningvistik tahlili.....	124
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	132
XULOSA.....	134
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	136
ILOVALAR	140

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tilshunosligida tilning antroposentrik talqini va lingvopragmatik xususiyatlari tahliliga alohida e’tibor qaratilmoxda. Tillarning tinish belgilariga bag‘ishlangan izlanishlarning til tahlilidan o‘rin egallashi, punktuatsion belgilarining struktur-tizimli jihatlari, hissiy-ekspressiv baholovchi xususiyatlari, pirovardida nutqning sayqallanishiga erishish masalalari tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Matn qurilishida punktuatsion belgilarning to‘g‘ri qo‘llanilishini pragmalingvistik aspektida talqin qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Dunyo tilshunoslida adabiy til me’yorlari badiiy matn va uning tarjimalarida namoyon bo‘lganligi sababli tarjima matnlarini pragmalingvistik aspektida o‘rganishga ehtiyoj ortib bormoqda. Tillararo samarali muloqotga erishish natijadorligini ta’minalashga xizmat qiladigan nutq me’yorlari muammolari, tarjimada pragmatik ma’lumotlarning to‘g‘ri ifodalanganligi, tinish belgilarining o‘xhash va farqli jihatlarining talqini zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biriga aylanmoqda. Badiiy adabiyot tarjimasi bilan bog‘liq punktuatsion belgilar doirasidagi masalalar hanuzgacha o‘z yechimini topmagani, inglizcha badiiy matnlardagi pragmatik ma’nolar, tasviriy hamda uslubiy bo‘yoq dorlikka ega bo‘lgan vositalarning o‘zbek tili tarjimalarida to‘g‘ri aks ettirilganligini tadqiq qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar natijasida, milliy til taraqqiyoti, davlat tilini rivojlantirish, uni xorijiy tillar bilan chog‘ishtirib o‘rganish hamda o‘zbek tilining o‘ziga xos tabiatini ochib berish masalalari tahlili va tadqiqiga katta ahamiyat berilmoqda. “Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘ramiz”¹. Shu ma’noda turli tizimli til birliklarining pragmalingvistik qiyosiy tadqiqi, xususan,

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/21/uzbek-language/>

puntuatsion belgilardan matnda foydalanish xususiyatlari va ularning tarjimada ifodalanishini o‘rganish bugungi kun zaruratidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fikrning teran bo‘lishi va uning qiymatini oshirishda tinish belgilaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tinish belgilarining shakli ularning qadimgi yozuv namunalari ekanligidan darak beradi. Jahon tilshunosligida punktuatsion belgilarning strukturaviy-semantik, stilistik xususiyatlari I.Gordon, R.C.Pinckert, M.B.Parkes, H.V.Fowler, F.G.Fowler, J.Brody, J.Seely kabi olimlar tomonidan yoritilgan²

² Gordon I. Practical punctuation of the English language. – London.: Heinemann Educational Books, 1978. – P.40.; Gordon I. Practical Punctuation. –M.: Vyssaja Skola, 1981. – 71 p.; Pinckert R. C. Pinckert’s Practical Grammar. The Guide to Usage, Punctuation and Style. Cincinnati, 1986. – 174 p.; Parkes M.B. Pause and Effect: An Introduction to the History of Punctuation in the West. London: Scolar Press, 1992. – 240 p.; Fowler H.W., Fowler F.G. The King’s English. Ware: Wordsworth Edition Ltd., 1993. – 383 p.; Seely J. Oxford A – Z of Grammar &

Rus tilshunos olimlari O.V.Dolgova, V.V.Babayseva, I.I.Akmatova, E.A.Yao, N.I.Yaxnovich, Y.V.Dzyakovich, L.L.Baranova, A.T.Siukayeva, I.G.Merkulova, N.V.Mayzenger, N.S.Valgina, M.V.Biyanova tadqiqot ishlarida fikrni teran ifodalash va qiyomatini oshirishda tinish belgilaridan unumli foydalanish masalalari, punktuatsion belgilarning qo‘llanish tizimi ilmiy jihatdan asoslangan³.

O‘zbek tilshunoslida punktuatsiya qoidalari, o‘zbek tili punktuatsiyasi, o‘zbek tili ishora-imlo qoidalari, zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari, matnlarda punktuatsiya va matnni anglash uchun ishlatalgan ishoralar jadid ma’rifatparvar olimlarimizdan A.Fitrat⁴, tilshunoslар Sh.Shoabdurahmonov⁵, K.Nazarov, B.Egamberdiyev⁶, B.Baxriddinova⁷, R.Alimuxammedov⁸, N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov⁹ singari olimlar tadqiqotlarida tahlilga tortilgan.

Binobarin, tadqiqot doirasi pragmalingvistik tahlilni qamrab olishiga ko‘ra jahon tilshunos olimlaridan Ch.Morris¹⁰, G.Yule¹¹ hamda o‘zbek tilshunos

Punctuation. Oxford University Press, revised second edition, 2013.; Brody Jennifer DeVere. Punctuation: Art, Politics, and Play. Durham, NC: Duke University Press, 2008. /Р.136.

³ Долгова О.В. Семиотика неплавной речи. –М.: Высшая школа, 1978. –264 с.; Бабайцева В.В. Русский язык. Синтаксис и пунктуация. – М.: Просвещение, 1979. – 269 с.; Акматова И.И. Выраженное и невыраженное в синтаксическом членении речи: Автореф. дисс . канд. филол. наук. –М., 1990. – 17 с.; Яо Э.А. Употребление знаков препинания в современном английском языке // Иностранные языки в школе, 1988. № 1. – С. 83-84.; Яхнович Н.И. Пунктуация как средство ритмико-стилистической организации текста: Автореф. дисс.канд. филол. наук. –М., 1991. –19 с.; Дзякович Е.В. Стилистический аспект современной пунктуации. Экспрессивные пунктуационные приемы : дисс.канд. филол. наук / Е. В. Дзякович. –М, 1995. – 193 с.; Барабанова Л.Л. Онтология английской письменной речи: Учебно-методическое пособие к курсу лекций по орфоэпии и орфографии современного английского языка. – М.: Диалог - МГУ, 1998. – 246 с.; Сиукаева АТ. Семантические основы пунктуации в английском языке в материале драматургических произведений): Автореф. дис. канд.филол. наук. –М., 2000. – 18 с.; Меркулова И.Г. Периферийные знаки пунктуации в современной французской прозе: дисс.канд. филол. наук / И. Г. Меркулова. –М., 2001. –167 с.; Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации / Н. С. Валгина. – М.: Высш. шк., 2004. – 259 с.; Майзенгер Н.В. Позиционно-содержательная и прагматическая значимость знаков препинания в современном английском языке: дисс.канд. филол. наук. – Барнаул, 2004. – 167 с.; Биянова М.В. Пунктуационные системы: синхронный и диахронный аспекты: Дисс.канд. филол. наук. – Ижевск, 2010. – 185 с.

⁴ Fitrat A. Tanlangan asarlar: Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. –Т.: “Ma’naviyat”, 2009. –336 б.

⁵ Шоабдурахмонов Ш. Пунктуация қоидалари. –Тошкент. 1953. –223 б.

⁶ Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. –Тошкент. Ўқитувчи. 1976; Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари (пунктуация). –Тошкент. Ўқитувчи. 1996.;

⁷ Бахридинова Б.М. Замонавий ўзбек пунктуацияси асослари. Монография. –Тошкент: Академ нашр, 2015. – 64 б.;

⁸ Алимухаммедов Р. Кадимги туркий битикларда пунктуация ва матнни anglash учун ишлатилган ишоратлар ҳақида // Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – №. 1 (58). – С. 49-53.

⁹ Махмудов Н., Мадвалиев А., Махкамов Н. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. – Тошкент, 2015// O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – 232 b.

¹⁰ Morris Ch. W. Foundations of the theory of signs / Charles W. Morris. - Chicago, Ill: The University of Chicago Press, 1938. - VIII, 59 c.

olimlaridan Sh.Safarovning¹² pragmalingvistikaga oid ilmiy-nazariy ma'lumotlarini ham e'tirof etish joizdir.

Tillarda punktuatsiya masalasi bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar mavjud, ammo ingliz va o'zbek tillari tinish belgilarining pragmalingvistik xususiyatlarini qiyoslab tahlil qilish ayni kun tilshunoslik ilmi uchun muhim tadqiqotlardan hisoblanishi tabiiy.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejali bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Turli tizimdagi tillarning lisoniy va tipologik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlar punktuatsion belgilari pragmalingvistik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillarida punktuatsiya taraqqiyotining asosiy omillari, punktuatsion belgilarning struktur-tizimli jihatlari hamda tinish belgilarining pragmalingvistik ahamiyatini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida punktuatsion belgilarning funksional xususiyatlarini aniqlab, chog'ishtirilayotgan tillardagi matnlarda tinish belgilarining gapdagi o'rniga ko'ra o'xhash va farqli jihatlarini yoritish;

ingliz va o'zbek tillarida tinish belgilarining pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillarida tarjima hamda asliyat matnida ifodalangan tinish belgilarining pragmalingvistik jihatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida inglizcha badiiy matnlar va ularning o'zbek tilidagi tarjimalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz badiiy matnlarining o'zbek tilidagi tarjimalarining punktuatsion belgilari pragmalingvistik xususiyatlarini ochib berish tashkil etadi.

¹¹ Yule G. Pragmatics – Oxford University Press, 1996 -138 p

¹² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент. –2008. 318 6.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda qiyosiy-chog‘ishtirma, deskriptiv, leksik-semantik va pragmalinvistik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi qavs, qo‘shtirnoq, vergul, tire kabi punktuatsion belgilarning chegaralovchilik hamda nuqta, undov, so‘roq, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, ko‘p nuqta kabi belgilarning ajratuvchilik vazifalari, shuningdek, nutqning sintaktik tuzilishi va intonatsiyasi kabi hissiy-ekspressiv baholovchi xususiyatlari aniqlangan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda gap o‘rtasida, oxirida va aralash holda qo‘llanuvchi tinish belgilarining darak, so‘roq, undov, buyruq, istak gaplarda o‘xhash, o‘zbek tilida uyushiq bo‘laklarning tinish belgilar bilan ajratilishi, ingliz tilida uyushgan sifat leksemalarining vergulsiz ifodalanishi kabi farqli jihatlari ochib berilgan;

nuqta, ko‘p nuqta, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, so‘roq va undov punktuatsion-grafik vositalarning inglizcha va o‘zbekcha matnlarning uslubiy ravnligini ta’minlovchi funksional-uslubiy, tarjima mantlaridagi sintaktik konstruksiyalarni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilish kabi pragmalingvistik xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida matnlarda til birliklariga tayangan verbal va harakat, mimika va jestlarga asoslangan noverbal ma’nolarni ifodalashda punktuatsion belgilarning ta’kidlash, kuchaytirish kabi pragmalingvistik jihatlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillaridagi tinish belgilarning pragmalingvistik xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha to‘plangan materiallar, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalar “Ingliz tilshunosligi”, “Adabiyotshunoslik” fanlarini o‘qitishda, xususan, badiiy mantlarning tarjima jarayonida punktuatsion belgilarning ahamiyati ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tilshunosligida punktuatsion belgilarning pragmalingvistik xususiyatlari atroflicha o‘rganilganligi bu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari uchun manba vazifasini o‘tashi asoslangan;

badiiy matn tarjimasida punktuatsion belgilarning asliyatga xos jihatlari o‘z o‘rnida ma’no kasb etishi farqli va o‘xhash jihatlari dalillangan;

oliy ta’lim muassasalari filologiya yo‘nalishi talabalari uchun mutaxassislik bo‘yicha o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar yaratishda hamda ma’ruza matnlarni tayyorlashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat’iyligi, olingan tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va tadqiqot usullari, tahlil qilingan material hajmining yetarliligi, mazkur sohadagi dastlabki izlanishlarning nazariy xulosalari hamda erishilgan yangi natijalar dissertatsiyaning nazariy jihatiga muvofiqligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillari punktuatsiyasining funksional jihatlarining qiyosiy tadqiqi, ingliz va o‘zbek tillarida tinish belgilarining pragmalingvistik hamda tarjimaga xos jihatlari o‘rganilib natijada qiyoslanayotgan tillar badiiy matnlarida punktuatsion belgilarning o‘ziga xos va mushtarak xususiyatlari pragmalingvistik aspektida asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan “Ingliz tilshunosligi”, “Adabiyotshunoslik” kabi fanlar va maxsus kurslarni o‘qitishda hamda tilshunoslikka oid pragmalingvistika va stilistika sohalarini rivojlantirishda, yangi tadqiqotlarni nazariy va amaliy boyitishda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilidagi badiiy matnlar va ularning o‘zbek tilidagi tarjimalarida punktuatsion belgilar pragmalingvistik xususiyatlarining qiyosiy tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi qavs, qo‘shtirnoq, vergul, tire kabi punktuatsion belgilarning chegaralovchilik hamda nuqta, undov, so‘roq, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, ko‘p nuqta kabi belgilarning ajratuvchilik vazifalari, shuningdek,

nutqning sintaktik tuzilishi va intonatsiyasi kabi hissiy-ekspressiv baholovchi xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalardan “O‘qish va yozuv” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sun buyrug‘i bilan № 232-623-raqamda tasdiqlangan nashr guvohnomasi). Natijada darslikning ikkinchi qismining nazariy manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda gap o‘rtasida, oxirida va aralash holda qo‘llanuvchi tinish belgilarining darak, so‘roq, undov, buyruq, istak gaplarda o‘xhash, o‘zbek tilida uyushiq bo‘laklarning tinish belgilari bilan ajratilishi, ingliz tilida uyushgan sifat leksemalarining vergulsiz ifodalanishi kabi farqli jihatlari haqidagi xulosalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020-2021 yillarga mo‘ljallangan 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 4-apreldagi 885/30.02.01-sun ma’lumotnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida yaratilgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishda foydalanilgan;

nuqta, ko‘p nuqta, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, so‘roq va undov punktuatsion-grafik vositalarning inglizcha va o‘zbekcha matnlarning uslubiy ravonligini ta’minlovchi funksional-uslubiy, tarjima mantlaridagi sintaktik konstruksiyalarni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilish kabi pragmalingistik xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalaridan Rossiya Federatsiyasi Qozon federal universitetida 2021-2023 yillarda bajarilgan №47 “Britaniya ingliz tilidagi tinish belgilarini qiyosiy o‘rganish (turk tillari misolida)” mavzusidagi amaliy loyihami bajarishda foydalanilgan (Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta’lim vazirligi Qozon federal universitetining 2023-yil 2-noyabrdagi № 209-AS-sun ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida “Ingliz tili: praktikum” nomli o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda dissertatsiya manbalaridan unumli foydalanilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida matnlarda til birliklariga tayangan verbal va harakat, mimika va jestlarga asoslangan noverbal ma’nolarni ifodalashda punktuatsion

belgilarning ta'kidlash, kuchaytirish kabi pragmalingvistik jihatlari borasidagi xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot" va "O'zbekiston yoshlari" radioeshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston MTRK "O'zbekiston" teleradiokanalining 2023-yil 6-apreldagi 04-36-525-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallar yangi qarashlar asosida mazmunan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 6 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, ulardan 9 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PUNKTUATSIYA (SINTAKTIK) TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILLARI

1.1.§. Jahon tilshunosligida punktuatsiya tizimiga doir ilmiy-nazariy mulohazalar

Tilshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar qatoridan tinish belgilariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarning o‘rin egallashi, bugungi kunda nutqning sayqallashuviga erishish vositalarining chuqur o‘rganilayotganligidan darak beradi.

Yozuv tarixiga nazar solar ekanmiz, ishoraviy belgilarning turli-tumanligini kuzatish mumkin. Nutq tovushlarini ifoda etuvchi harflarning shakllanishi bir necha bosqichni tashkil etadi. Yozuv tarixini ko‘zdan kechirar ekanmiz, “piktografik, ideografik va boshqa yozuvlarning bir-biri asosida shakllanib rivojlanganligiga guvoh bo‘lamiz. Arxeologlarning olib borgan izlanishlari natijasida yozuvning quyidagi turlari aniqlangan: piktografik (*lotincha pictus* – chizilgan, *grapho* – yozuv), ideografik (*grekcha idea* – tushuncha va *grapho* – yozuv) hamda fonografik (*grekcha phone* – tovush, *grapho* – yozuv)¹³. Odamlarning tovushlar orqali ifodalangan tili so‘nggi ming yillikdagi yozuv tarixi va yozma yodgorliklar bilan bog‘liqdir. Qadimi yozma manbalarda aks etganidek yozuvlar turli xil bo‘lib, hozirda uning rivojlangan, takomillashgan qulay ko‘rinishi shakllanib ulgurgan.

Ma’lumki, tinish belgilarini qo‘llash qoidalari majmuyi tilshunoslikda mustaqil bo‘lim *punktuatsiya* [lot. *punctum* – nuqta] tarzida yuritilib, qadimda *interpunksiya* deb nom olgan. Shuningdek, *interpunksiya* yozma nutqda tinish belgilarining qo‘llanilish nazariyasini tashkil etib, ma’lum bir qoidalarga muvofiq nutqning sintaktik tuzilishini tartibga solib, undagi gap hamda gap bo‘laklarini ajratib, og‘zaki nutqning yozmadan farqini yaqqol ifodalashga xizmat qilgan. Interpunksiya terminining asosiy negizi qadimgi Rimga borib taqaladi. Biroq ungacha bo‘lgan davrda qo‘llanilganligi yoxud Aristotelning interpunksiyadan voqif bo‘lganligi xususida ma’lumotlar mavjud emas. Garchi “interpunksiyaning

¹³ Головин Б.Н. Введение в языкознание. Изд. 3-е, испр. – М.: Высшая школа, 1977. – 311 с.

ilk qo'llanilish davri yunon grammatika maktabi bilan bog'liq bo'lsa-da, qadimgi yunon va rim grammatika maktablari davrida amal qilingan interpunksiya tushunchasining zamonaviysidan farq qilib, notiqlik san'ati talablariga, ya'ni nutqning talaffuz qoidalariga muvofiq holda, gap oxiridagi nuqtalar hamda xat boshining qo'llanilishiga rioya qilish kerak. Yunonlar faqat qator tepasida yoki o'rtasida va pastida qo'yiladigan bitta belgi – nuqtani qo'llashgan. Shuningdek, yunon grammatika maktabi vakillaridan Nikonor interpunksiya tizimida 8 ta belgini qo'llagan”¹⁴. Biroq ularning bu urunishlari faqatgina nutqning sintaktik va mantiqiy tarkibining aralashib ketishiga olib kelganki, bu borada hech qanday aniq bir qoida ishlab chiqilmagan. Venetsiyalik noshir Ald Manusiy tomonidan yaratilgan, “aniq bir me'yorlarga muvofiq tarzda qo'llaniladigan belgilar sonining nisbatan ko'payguniga qadar, belgilarga oid qoidalar borasida tushunmovchiliklar XV asrgacha davom etgan. Aynan tinish belgilarini qo'llashga doir me'yorlarni birmuncha tartibga solishga musharraf bo'lganligi sababli, Manusiy interpunksiyaning “otasi”¹⁵ deb hisoblangan. Yevropa xalqlarida ayrim interpunksiya belgilarining qo'llanishi borasida farqlarni kuzatish mumkin. Keyinchalik, rus tilida interpunksiya belgilari qatoriga “nuqtali vergul, ikki nuqta, ko'p nuqta, so'roq va undov belgilari, tire, qo'shtirnoq, qavs”¹⁶ kabilar kiritilgan. Shu o'rinda keltirib o'tish joizki, yozma nutqning muhim belgilari, nafaqat tinish belgilaridan iborat, balki boshqa belgilarni ham tashkil etadi, masalan:

- 1) *Raqamlar;*
- 2) *Maxsus ilmiy belgilar – algebra, geometriya, kimyo, astronomiyaga oid bo'lgan;*
- 3) *Tinish belgilari (punktuatsiyaga doir);*
- 4) *Diakritik belgilar;*
- 5) *Qisman bosh harflar.*

¹⁴ Steinhthal H. Geschichte der Sprachwissenschaft bei d. Griechen und Romern. т. II, Берл. 2021, Р.348-354

¹⁵ https://rusneb.ru/catalog/001055_000090_324/

¹⁶ Булич С. Малый энциклопедический словарь Брокгауза и Ефона: в 4 т. – Изд. 2-е, вновь перераб. и знач. доп., 2008.

Raqamlar va maxsus ilmiy belgilar ideografik logogrammalarni ifodalab, raqam *sifr*, arab tilidan olingan, *nul*, ya’ni *bo’shliq* – degan ma’noni anglatuvchi so‘z vositasida nomlangan. Tinish belgilari esa ideografik logogrammalar guruhiba oid emas va ular yunon tilida – ilk fonetik-tovush tizimiga asoslangan yozuv namunalari, shuningdek, lotin tilida esa o‘rta asr yodgorliklarida nuqta va chiziqcha kabi tinish belgilari so‘zlarni ajratish maqsadida qo‘llangan. Keyinchalik yozma nutqning sintaktik tarkibining murakkablashuvi, shuningdek, “notiqlik san’atining rivojlanishi, nafaqat yozma matnda so‘zlarni ajratish, balki og‘zaki nutqda pauzani ifodalash maqsadida”¹⁷ qo‘llanila boshlangan.

O‘zbek tilidagi matnning nasriy qismiga hozirgi tinish belgilaridan, dastlab, “qavs 1825-yilda Qozon, vergulning teskari shakli – teskari pesh (,) 1841-yilda Parij, ko‘p nuqta 1868-yil, tire 1869-yilda Peterburg, bir nuqta 1872-yilda, qo‘shtirnoq 1878-yilda Istanbul tipografiyalarida bosilgan asarlar orqali kiritilgan. Demak, o‘zbek tilidagi matnlarda qavs, teskari pesh, ko‘p nuqta, tire, qo‘shtirnoq va bir nuqtalar, birinchi marotaba, boshqa xalqlar nashriyoti orqali paydo bo‘lgan”¹⁸. Ikki nuqta bilan nuqtali teskari pesh esa, dastlab, O‘zbekistonda nashr etilgan asarlarda qo‘llanilgan, so‘ngra boshqa xalqlar nashriyoti chop etgan o‘zbekcha matnlarda namoyon bo‘lgan.

Ma’lumki, boshqa xalqlar nashriyotida bosilgan bir qator o‘zbek tilidagi kitoblarning matnlarida hozirda amalda bo‘lgan tinish belgilaridan yuqorida qayd etilgan sakkiztasi ilgari kamdan kam hollarda matnlarda aks etgan bo‘lsa-da, ular muntazam qo‘llanila boshlangan, keyinchalik chop etilgan bir nechta kitoblarda ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin. Biroq XX asr boshigacha bo‘lgan bu davrda o‘zimizda nashr etilgan matnlarda hozirgi tinish belgilari juda kam uchrab, hatto ularning ba’zilari qo‘llanmagan ham. Binobarin, boshqa tillarda chop etilgan matnlar o‘zbek tili yozma matnlarida hozirda mavjud tinish belgilarining qo‘llanganligi punktuatsion belgilari kodifikatsiyalanish tarixida ahamiyatli o‘rin

¹⁷ Добиаш-Рождественская О.А. История письма в Средние века / О.А. Добиаш-Рождественская. – Москва: Издательство Юрайт, 2022. – 159 с.

¹⁸ Фозиев X. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти (пунктуацион белгилар, уларнинг вазифалари ва кўлланиш асослари). –Тошкент. Фан. 1979. –Б.131 – 141.

egallaydi. Shular tufayli XIX asr hozirgi tinish belgilaridan bir nechta yozma matnlarda o‘z ifodasini topgani va ular o‘zbek tilidagi kitoblarda ham bo‘lganligini ko‘rsatishga imkon bergen asr sifatida punktuatsiya tarixidan o‘rin olmoqqa haqlidir. Shuningdek, “XIX asrning ikkinchi yarmida, nisbatan ommaviyroq bo‘lgan dastlabki o‘zbek tilidagi yozma matn 1870-yildan Toshkentda chop etila boshlagan “Turkiston viloyatining gazeti”da namoyon bo‘lgan, ya’ni tinish belgisiz bo‘lgan bu gazeta qavsnı (1873-yildan), tireni (1876-yildan), ko‘p nuqtani (1877-yildan) va qo‘shtirnoqni (1886-yildan) o‘z sahifasida birinchi bo‘lib qo‘llagan gazeta hisoblanadi. Bu belgilar XIX asr oxirigacha shu gazetada onda-sonda uchrab turgan (ayniqsa, qo‘shtirnoq juda kam qo‘llangan)”¹⁹.

Tinish belgisi sifatidagi bir nuqta, so‘roq belgisi (?), vergul (,), nuqtali vergul (;) va ikki nuqta (:) o‘zbek tilidagi matnlarda birinchi marotaba 1885-yilda Toshkentda nashr etilgan V.P.Nalivkinning kitobida uchraydi: “tinish belgilari shu darslikning rus harfi bilan yozilgan 16-betdagi o‘zbek tiliga rus tilidan o‘girilgan tarjimasida qo‘llanilgan. Asosan ushbu manbalar rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan matnlar bo‘lib, asl nusxada tinish belgilari qo‘llanish holatlari tarjimada ham ularning namoyon bo‘lishiga olib kelgan”²⁰. Fikrimiz tasdig‘i, o‘sha o‘zbek tilidagi matnlarda o‘z ifodasini topgan tinish belgilarining qo‘llangan o‘rin va vazifalarini asliyatdagi tinish belgilarining o‘rin va vazifalari bilan solishtirganda, yaqqol ko‘rinadi: ular orasida o‘xshash bo‘lmaganlari juda kam. Bu hol tinish belgilarini qo‘llashda tillar orasida mavjud umumiy tomonlar bilan ham izohlanishi mumkin va shu asosga ko‘ra ta’sir ostida ekanligi g‘ayritabiyy emasligini, balki o‘ng‘ayligini qayd etmoq o‘rinlidir.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda tinish belgilarini bir tizim sifatida, ya’ni matn va nutqning noverbal komponentlarini o‘rganishning nazariy silsilasini o‘zgartirgan zamonaviy lingvistik paradigma hamda tilshunoslikka oid zamonaviy bilimlar tizimining ma’lum bir sohasiga muvofiq yozma nutq vositalari doirasida

¹⁹ Фозиев Х. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти (пунктуацион белгилар, уларнинг вазифалари ва кўлланиш асослари). –Тошкент. Фан. 1979. – Б.156 – 187.

²⁰ Наливкин В.П. Руководство к практическому изучению сартовского языка. Самарканд, 2024.; Фозиев Х. Ўзбек пунктуациясининг тарихий тараққиёти (пунктуацион белгилар, уларнинг вазифалари ва кўлланиш асослари). –Тошкент. Фан. 1979. –Б.187.

o‘rganishni taqozo etadi. Binobarin, yozma nutq kishilik jamiyati hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, uch sath, ya’ni grafika, orfografiya, punktuatsiyaning birlashuvi adabiy me’yorni ifodalashga xizmat qiladi. Biroq adabiy til me’yorlari borasida so‘z borganda, uni nafaqat nomlari sanab o‘tilgan sathlar, balki nutqni ifodalashda faol ishtirok etgan jabhalarni ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida “me’yor” leksik birligining ma’nolariga diqqatimizni qaratamiz.

Bir qator ingliz tilshunoslarining fikricha, “me’yor – ziyolilar tomonidan mintaqaviy o‘zgarishlarni inobatga olgan holda qabul qilingan og‘zaki va yozma shakllardir”²¹; “umumxalq tomonidan qabul qilingan tamoyil yoki modeldir”²². Rus tilshunoslarining ta’kidlashicha, me’yor “ijtimoiy ma’qul ko‘rilgan qoida”²³ bo‘lib, u “tarixiylik tamoyillariga asoslangan holda til birliklarining funksional variantlaridan birini shu tilda so‘zlashuvchilar tomonidan”²⁴ “og‘zaki va yozma muloqot uchun tanlagan ko‘rinishlaridir”²⁵.

Nutq madaniyati masalasini o‘zbek tili misolida o‘rgangan R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov va Y.Tojiyevlar adabiy me’yorlarni quyidagicha ta’riflaydi: “me’yor deganda, til unsurlarining xalq o‘rtasida ko‘pchilikka ma’qul bo‘lgan variantini qo‘llash tushuniladi”²⁶. Yana bir o‘zbek tilshunosi A.Mamatov o‘zining adabiy me’yorlarga bag‘ishlangan asarida me’yorning 23 ta xususiyatini izohlab beradi²⁷.

Ingliz, rus va o‘zbek tilshunoslari tomonidan yuqorida keltirilgan fikrlarga tayanib, adabiy me’yorga shunday ta’rif berish mumkin: adabiy me’yor muayyan xalqning tarixi va bugunini, ijtimoiy hayotini o‘zida aks ettirgan, dinamik hamda variantlilik xususiyatlariga ega bo‘lgan, til egalari tomonidan qo‘llanishi normativ holat deb qabul qilingan til birliklari yoki til ko‘rinishidir.

Nutq madaniyati sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida tilshunoslikda me’yor, til me’yorlari, adabiy til me’yori kabi terminlar mohiyati xususida

²¹ Biber Douglas. Variation across Speech and Writing. – New York: Cambridge University Press, 1992. – P. 34.

²² Gerald P.D., James J.G. The English Language. From sound to sense. – Colorado: The WAC Clearinghouse, 2010. – P.

²³ Горбачевич К.С. Нормы современного русского литературного языка. – М.: Просвещение, 2011. – С.76

²⁴ Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.:Высшая школа, 1980 – С.15

²⁵ Введенская Л.А., Павлова Л.Г. Культура и искусство речи. Ростов-на-Дону: Феникс, 1995. – С.86

²⁶ Кўнгурев Р., Бегматов Э., Тожиев Е. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.

²⁷ Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол.фанд-ри. ... дисс. автореф. – Т., 1991. – 56 б.

hanuzgacha bir to‘xtamga kelinmagan. Ta’kidlash joizki, *me’yor* va *adabiy til* tushunchalari maxsus adabiyotlarda aniq ta’rifga ega emas. Ko‘pincha “*me’yor* qoidalari tizimi emas, balki “qonunlar majmuyi” sifatida tavsiflangan”²⁸. Ayrim ta’riflarda mualliflarning *me’yor* (til) va *adabiy me’yor* tushunchalariga sinonimlar sifatida qarashganligiga guvoh bo‘lamiz, “o‘qimishlilar nutqi amaliyotida qabul qilingan talaffuz qoidalari, grammatika va boshqa til vositalari, so‘z qo’llash qoidalari”²⁹.

Adabiy til *me’yorlari* bo‘yicha tadqiqot olib borgan rus olimi K.S.Gorbachevichning fikricha, “*me’yor* bu nafaqat ijtimoiy ma’qul ko‘rilgan qoida”³⁰, balki til tizimi qonuniyatları hamda uning evolyutsiyasini o‘zida aks ettirgan, haqiqiy nutqiy faoliyatda obyektivlashtirilgan qoidalari majmuyidir”³¹. B.N.Golovin *me’yor* haqidagi barcha fikrlarni qiyoslab, “*me’yor* – tarixiylik prinsiplariga asoslangan holda, til birliklarining funksional variantlaridan birining shu tilda so‘zlashuvchilar tomonidan tanlanishidir”³² degan xulosaga kelgan, uning variantliligi va o‘zgaruvchanligini ko‘rsatib bergen. Bu masalaga ingliz va o‘zbek tilshunoslari ham diqqat qaratganlar³³.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “*me’yor*” so‘zi shunday izohlanadi: *me’yor* – مهیار – o‘lchov, asosiy o‘lchov; andaza **1.** Rasmiy lashtirilgan, umum tomonidan qabul qilingan, hamma tomonidan majburiy deb hisoblangan, qonun hukmiga

²⁸ Веселицкий В.В. Норма и вариант // Русский язык в школе, 2016. – № 5. – С.30

²⁹ Граудина Л.К. Русский язык: Энциклопедия. – М.: Дрофа, 1997. – С.163

³⁰ Горбачевич К.С. Нормы современного русского литературного языка. – М.: Просвещение, 2011. – С.76


³¹ Горбачевич К.С. Вариантность слова и языковая норма (на материале современного русского языка). – Москва : Книжный дом “ЛИБРОКОМ”, 2009. – С.237

³² Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.: Высшая школа, 2002. – С.335

³³ Вандриес Ж. Язык: лингвистическое введение в историю. – М.: Государственное социально-экономическое издательство, 2011. – 410 с.; Есперсон О. Философия грамматики. – М.: Издательство иностранный литературы, 2006. – 404 с.; Пауль Г. Принципы истории языка. – М.: Издательство иностранный литературы, 2012. – 499 с.; Блумфильд Л. Язык. – М.: Прогресс, 2012. – 607 с.; Кўнгурев Р., Бегматов Э., Тожиев Е. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.; Абдурахмонов F., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти: Олий ўкув юргарининг дарслар ўзбек тилида олиб бориладиган ноғилологик гуруҳ талабалари учун дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 352 б.; Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Фан ва технология, 2009. – 391 б.

kirgan tartib-qoida”³⁴. O‘zbek tilida “me’yor so‘ziga ma’nodosh sifatida *mezon*, *qonun-qoida*, *me’yor va qonuniyat* so‘zlari ham ishlataladi”³⁵.

Til sathlarida amal qilishi va lingvistik vositalarining qo‘llanilish ko‘lamiga asosan me’yor tiplari (1.1-rasmga qarang)³⁶:



1.1-rasm. Til sathlarida amal qilishi va lingvistik vositalarining qo‘llanilish ko‘lamiga asosan me’yor tiplari

Demak, “me’yor yozuvda ko‘proq ko‘zga tashlanadi va unda mustahkamlanadi”³⁷. Me’yor yozuvda kodifikatsiyalanadi. “Kodifikatsiyalash me’yorni bir maromda o‘zgarmasligini ta’minlaydi”³⁸. Biroq kodifikatsiyalash variantlilik mavjudligini tan oladi. Nutq esa adabiy til me’yorlarining amalda qo‘llanishi yoki tovushlar yordamida voqelanishidir.

E.Begmatov va A.Mamatovlarning fikriga ko‘ra, “adabiy til undan foydalanuvchi jamiyat a’zolarining mushtarak quroli sifatida barcha uchun bir xilda tushunarli, foydalanishga qulay bo‘lishi, ko‘pchilikka maqbul tushishi lozim. Buning ustiga, adabiy til va uning lisoniy vositalari til egasi bo‘lmish jamiyat a’zolarining estetik va etikaviy talablariga, madaniy va ma’naviy ehtiyojlariga

³⁴ Ўзбек тилининг изохли лугати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-жилд. – Б. 585

³⁵ Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти: Олий ўқув юртларининг дарслар йузбек тилида олиб бориладиган нофилологик турух талabalari учун дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 352 б.

³⁶ Москвин В.П. Правильность современной русской речи. Норма и варианты. – Волгоград: Перемена, 2004. – С.37

³⁷ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. – Т.: Наврўз, 1997. – 92 б.

³⁸ Ицкович В.А. Норма и ее кодификация // Актуальные проблемы культуры речи: сб. статей. – М.: Наука, 2017. – С.306.

hamohang bo‘lishi zarur”³⁹. Shu paytga qadar insonlar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib kelgan tilning asosini qoidalardan holi bo‘lgan umumxalq tili tashkil etadi. Demak, tinish belgilari me’yor nuqtayi nazaridan qaralganda, yozma nutq me’yorlari sirasiga kiradi. Biroq “adabiy til me’yorlari asosida yaratilgan nutq madaniyatini ifodalovchi tamoyillarga muvofiqlik ham punktuatsion sathga rioya etishni talab qiladi”⁴⁰. Garchi nutq madaniyati quyidagicha ta’riflansa-da: “Biror-bir nutqiy holat uchun til vositalarining to‘g‘ri qo‘llanishi”⁴¹, boshqacha aytganda, so‘zlovchining turli funksional usullardan mohirona foydalanishini taqozo etadi. Demak, nutq madaniyatining to‘g‘riliği hamda vaziyatga bog‘liq holda adabiy til nutq madaniyatining mukammal bo‘lishida muhim omil ekan. To‘g‘rilik tamoyili alohida nutq madaniyatidan ajratgan holda ta’riflanib, uning asosiy sifatlari B.N.Golovin, M.A.Vedenskaya, L.G.Pavlova, P.P.Chervinskiyning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Aslida nutqning to‘g‘riliği, aniqligi va boshqalar nutq me’yorining ko‘rinishlaridir.

Shuningdek, S.Ibrohimovning izohlashicha, “...hozirgi yozma va og‘zaki adabiy tilimizdan foydalanishda tilning qariyb hamma sohalarida adabiy til me’yorlaridan belgili darajada chetga chiqish: grammatik, leksik, stilistik, imlo va orfoepik qoidalarga e’tiborsizlik davom etmoqda”⁴². Demak, punktuatsiya ham jamiyat hayoti va taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, sintaktikaning bir qismi sifatida tinish belgilarini o‘rganishni – “so‘zlovchi tomonidan tilning qo‘llanilishi bilan bog‘liq fanni boshqa soha bilan qarama-qarshi qo‘yuvchi grammatika sohasi zamonaviy lingvistik paradigma tamoyillariga nomutanosibligini”⁴³ ko‘rsatib beradi.

³⁹ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси (Адабий норманинг шаклланиш ва яшаш қонуниятлари). – Т.: Наврӯз, 1999. – Б.4

⁴⁰ Отажонова Д.Б. Инглизча бадиий матнларнинг рус ва ўзбек тилларидаги таржималарини ортологик тадқики: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) дисс. ... автореф. – Т.:2019. – 46 б.

⁴¹ Актуальные проблемы культуры речи. – М.: Наука, 2013. – С.403.

⁴² Иброхимов С.И. Ўзбек тилининг нутқ маданиятига оид масалалари / Нутқ маданиятига оид масалалар. – Т.: Фан, 1973. – Б.19.

⁴³ Ломов А.М. Грамматика: содержание и объем понятия // Русский язык вчера, сегодня, завтра. (Материалы Российской конференции, посвященной 40-летию кафедры русского языка Воронежского государственного университета и 75-летию со дня рождения И. П. Распопова). – Воронеж: [Издательство Воронежского университета], 2000. – С. 8.

Punktuatsion me'yorlarni tadqiq etish masalasi tilshunoslik sohasida muhim o'rin egallaydi. Ushbu jabhani tahlil qilib o'rganish turli yo'nalishlarga bo'linadi:

- nazariy jihatlari O.V.Dolgova (Aleksandrova), L.U.Arapiyeva, L.L.Baranova, N.S.Valgina, L.M.Kolsova, T.M.Nikolayeva, N.N.Orexova, A.M.Peshkovskiy, B.S.Shvarskopf, N.L.Shubina, L.V.Sherba kabi tilshunoslар tomonidan o'rganilgan;
- stilistik nuqtayi nazardan G.N.Akimova, A.V.Desyatova, V.V.Jilsova, Y.M.Lotman, B.S.Shvarskopf, A.D.Shmelyov kabi olimlar tadqiq qilishgan;
- punktuatsiya jabhasining tarixiy silsilasidagi o'zgarishlar N.S.Valgina, N.N.Orexova, B.I.Osipov, B.S.Shvarskopflar tomonidan ko'rib chiqilgan;
- S.I.Abakumova, V.V.Babaysevalar punktuatsiyaning metodik tamoyillarini ishlab chiqishgan.

Punktuatsiyaning nazariy qoidalarining ifodasi asosan gap bo'laklari va turlari doirasida o'z aksini topdi. Keyinchalik obyekti punktuatsion qoidalar majmuyiga aylangan tadqiqotlar matnda ifodalinish jihatlarini o'rganishga diqqat qaratishgan. Ushbu masalalar bilan bog'liq bo'lgan matnga murojaat etilganda, "punktuatsion belgilar vazifasiga muvofiq bir-biriga bog'langan matnlarda, jumladan, turli xil aralash va bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi sintaktik konstruksiyalarda o'z ifodasini topadi"⁴⁴.

Shunisi ahamiyatliki, "tinish belgilarining yangi ishlab chiqilgan qoidalariga muvofiq punktuatsion belgilar orqali bog'langan gap bo'lagining ma'nosini ifodalash uchun uning ijodiylilik xususiyatlariga hamda kontekstga mos variantlarini tanlash imkonini yaratadi"⁴⁵. Bugungi kun zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, "tinish belgisining bu tarzda qo'llanilishi matnning mazmun mohiyatini kengayishiga olib keladi"⁴⁶.

⁴⁴ Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации / Н. С. Валгина. М.: Высш. шк., 2004. С. 4

⁴⁵ Правила русской орфографии и пунктуации. Полный академический справочник / Под ред. В.В. Лопатина. – М: АСТ, 2009. – 432 с.; Бахриддинова Б.М. Замонавий ўзбек пунктуацияси асослари. Монография. – Тошкент: Академ нашр, 2015. – 64 б.

⁴⁶ Лосева Л.М. Как строится текст: пособие для учителей / Л.М.Лосева; под ред. Г.Я.Солганика. – М.: Просвещение, 2002. – 96 с.; Мурzin Л.Н., Штерн А.С. Текст и его восприятие. – Свердловск: Изд-во Урал, ун-та, 1991. – 172 с.; Шаховский В.И. Эмоции в деловом общении. – Волгоград: Перемена, 2009. – 169с.

Matn tarkibini tashkil etuvchi bo‘laklar joylashuvining o‘zgarishi munosabati bilan tadqiqotchilar yozma matnning yangi turlari, jumladan, gipermatnning elektron va qog‘oz variantlarini yaratishdi⁴⁷.

I.Y.Liskova tomonidan joriy etilgan nazariya asosida “gaplar vositasida matn tuzish sxemasi taklifi kiritildi. Unga binoan, punktuatsion metagrafemalar gap, matn, gipermatnlarda o‘z aksini topadi”⁴⁸.

“Matnni shakllantirishda faol foydalaniladigan punktuatsion-grafik vositalar majmuini metagrafemalar tashkil etib, bugungi kunda ulardan keng foydalaniladi”⁴⁹. Ushbu ishlab chiqilgan strukturaviy tizim punktuatsion belgilar tadqiqini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi. L.M.Kolsova o‘zining “Badiiy matnning punktuatsion tadqiqi” monografiyasida badiiy matnda ifodalangan tinish belgilariga konseptual yondashuvni shakllantirish ehtiyojining rag‘batlantirilish zaruratini asoslab beradi⁵⁰.

Unga muvofiq, lingvistik paradigmaning o‘zgarishi va uning doirasida yangi nazariyalar shakllanishi bilan avvalgi tinish belgilari vositasida e’tibordan chetda qolgan ko‘plab lingvistik va nutqiy faktlarni izohlash mumkin, shuningdek, lingvistik paradigmaning yangi nazariya asosida shakllanishi, shuningdek, ilgari rad etilgan punktuatsion konsepsiyalarni til va nutqqa xos bo‘lgan dalillarni isbotlash; yangi nazariy asoslarga ega empirik ma’lumotlarni idrok etish va

⁴⁷ Щевцова О.Н. Стилистические функции знаков препинания: На материале прозы В.Маканина: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1998. – 243 с.; Щербинина Ю.В. Речевая агрессия: Территория вражды. – М.: Форум, 2013. – 400 с.; Меркулова И.А. Квантитативные характеристики русской лексики на общеславянском фоне. Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014, (3): 100–107.; Дедова О. В. Русский художественный текст в пространстве Интернета // Вестник МГУ. Сер. 9, 2004, № 2. – С.120-126.

⁴⁸ Лыскова И.Ю. Формирование пунктуационных систем в литературном языке (на материале немецкого XVII-XVIII вв. и французского XVI-XVIII вв. языков): Дисс. ... канд. филол. наук. –Ижевс, 2006, – С. 9

⁴⁹ Баранов А.Н., Паршин П.Б. О метаязыке описания визуализаций текста // Вестник ВолГУ. Серия 2: Языкознание. 2018. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-metayazyke-opisaniya-vizualizatsiy-teksta>; Щербинина Ю. В. Буктрейлерство как издательская стратегия в современной России // Вопросы литературы. 2012. № 3. URL: <http://magazines.russ.ru/voplit/2012/3/s8.h1>; Шубина Н.Л. Невербальная семиотика печатного текста как область лингвистического знания // Известия РГПУ им. А. И. Герцена. 2009. №97. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/neverbalnaya-semiotika-pechatnogo-teksta-kak-oblascь-lingvisticheskogo-znaniya>; Малькина А.П. Визуализация как способ понимания иноязычного текста по специальности в обучении иностранному языку (неязыковой вуз) // Вестник ТГУ. 2008. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vizualizatsiya-kak-sposob-ponimaniya-inovazchnogo-teksta-po-spetsialnosti-v-obuchenii-inostrannomu-yazyku-neyazykovoy-vuz>. Одекова Ф.Р. Толкование слов в структуре художественного текста Н.В. Гоголя как особенность его метапоэтики / Вестник Сургутского государственного педагогического университета. Научный журнал. – № 5 (32) 2014. – С. 39-45.

⁵⁰ Кольцова Л.М. Пунктуационный эксперимент в художественном тексте. – Воронеж: Изд-во Воронежского государственного университета, 2006. – 194 с.

tizimlashtirish zaruratini tavsiflash, ayniqsa, L.M.Kolsova muhim deb bilgan jihat faqat “matnning ichki aloqalarini tashkil qilish uchun tinish belgilarining turli maqsadlarda, jumladan, badiiy ma’no ifodalash xususidagi mezonlar imkoniyati to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish orqali matn mazmunini to‘g‘ri talqin qilishni amalga oshirish mumkin”⁵¹.

Matn punktuatsiyasining nazariyasi doirasida amalda bo‘lgan matn-tinish belgilarining tizimli tabiatini va unga xos bo‘lgan birliklarga asoslangan. Bundan tashqari, matnning grafikasida aks etuvchi tinish belgilarining majmuini tashkil etishini ta’minlaydigan invariant va variantdor shakllarning imkoniyatlari matn punktuatsion belgilarining rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradi.

Biroq ayrim tilshunoslar tomonidan “Lingvistik birliklarni birlashtirish, ajratib ko‘rsatish va moslashtirish orqali matnni tartibga soluvchi hamda shu yo‘sinda muallifning fikrlarining teranligini o‘zida mujassamlashtirgan tinish belgilarining iyerarxiyasiga tizim sifatida qaralgan”⁵². Bundan shunday konsepsiya anglashiladiki, fikrga tuzatishlar kiritilgan, tartibga solingan holda yozuvda o‘z ifodasini topgan. Tinish belgilarining muhim jihatlari mavjudligi uni qo‘sishimcha va moslashuvchan tizim sifatida qayta ko‘rib chiqish va qolaversa, tinish belgilarining nafaqat badiiy matnning vizual qurilishida juda muhim rol o‘ynashi, balki yashirin ma’nolarni ochib berishi, ba’zi hollarda tinish belgilarining kompozitsion, tarkibiy birliklar, she’riy satrlar bilan vertikal aloqalarining o‘rnatilishi dalillar vositasida aniqlash zaruratini taqozo etadi.

V.Grossman tomonidan amalga oshirilgan tahlillar natijasiga ko‘ra, yirik faylasuflarning asarlarida qo‘llanilgan tinish belgilari falsafiy nazariyani tushunishda alohida ahamiyatga ega. Ko‘pgina falsafa sohasiga yo‘naltirilgan ta’limotlarning mazmun ifodasidan tashqari sintaktik sathni ham qamrab olishi kerak bo‘ladi. Biroq sintaktik sathni idrok etgan holda to‘liq qamrab olinmagan holatlar ham uchraydi⁵³.

⁵¹ Кольцова Л.М. Пунктуационный эксперимент в художественном тексте. – Воронеж: Изд-во Воронежского государственного университета, 2006. – С.48

⁵² Кольцова Л.М. Ko‘rsatilgan manba,. – С.48

⁵³Гроссмановский сборник. Наследие современного классика (Grossman studies. The Legacy of a contemporary classic) / Под ред. М. Калузио, А. Красниковой, П. Тоско. – Милан: EDUCatt, 2016. – 441 с

Bundan tashqari ijtimoiy va falsafiy g‘oyalarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etgan tinish belgilarining ma’lum tamoyillarga muvofiq usul hamda konseptual maqsadlarda qo‘llanilishini uchratishimiz mumkin.

Rossmanning ta’kidlashicha, tinish belgilarining mustaqil ma’no ifodasiga ko‘ra, ularni mustaqil sath sifatida tan olish kerak⁵⁴.

Mazmun ifodasiga oid zamonaviy yondashuv namoyandalaridan K.Kerbrat, K.Fush, F.Jak, M.Net va boshqa fransuz tilshunoslari – tinish belgilarini lingvistik ma’no ifodasi sifatida e’tirof etishgan. Shuningdek, lingvistik subyektivlikni aks ettirishning usullaridan biri bo‘lgan ma’no ifodasiga ko‘ra punktuatsion belgilar matnda, birinchidan, faoliyat, ya’ni akt ifodasini, ikkinchidan, ma’lumotlarning boyitilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rus filologlari O.M.Adayeva, O.V.Aleksandrova (Dolgova), I.V.Arnold, L.U.Arapiyeva, L.L.Baranova, G.A.Veyxman, B.A.Ilish, L.L.Iofik, N.A.Kobrina, L.N.Sklyar kabilar ingliz tili punktuatsiyasi masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, nazariy va amaliy punktuatsion tizimning amalda tatbiq etilishi bilan bog‘liq muammolarga biroz bo‘lsa-da oydinlik kiritishga musharraf bo‘lishgan.

Ingliz tili punktuatsiyasiga oid nazariy bilimlar majmuyi shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilshunoslari metanazariy yondashuv asosida tinish belgilarini tadqiq etishgan. Unga muvofiq, tinish belgilarini tushungan holda qo‘llash va ulardan foydalanish amaliyotini tubdan isloh qilish jarayonlari nisbatan osonlashgan.

XX asrda ingliz tili punktuatsiyasi bilan bog‘liq masalalarini hal etishga jiddiy kirishgan tilshunoslardan Dj.Nesfld, M.Spenser, G.Suit, E.Gauerz, H.U.Fauler, F.G.Fauler, G.Keri, R.Skelton, R.Kvirk, S.Grinbaum, D.Lich, Dj.Svartvik, U.Nesh, R.Pinkert, E.D.Djonson, T.Keynlarning nomlarini keltirib o‘tish joizdir.

XX asr boshlarida “ingliz tili grammatikasi *preskriptiv* an’anaga bo‘ysungan holda rasmiylashtirilgan bo‘lsa, joriy asrning o‘rtalariga kelib, *deskriptiv* me’yor amalda tatbiq etila boshlagan”⁵⁵.

⁵⁴ Россман В. Техники пунктуации: знак препинания как философский метод// Вопросы философии. – 2003. – № 4. – С. 75

⁵⁵ Баранова Л.Л. Онтология английской письменной речи. Учебно-методическое пособие к курсу лекций по орфоэпии и орфографии современного английского языка Текст. / Л.Л. Баранова. –М.: Диалог -МГУ, 1998. –

Ingliz tilidagi ba’zi tadqiqotlarga asoslangan holda, N.M.Perelgut “tinish belgilaridan foydalanishni tartibga soluvchi “to‘g‘rilik” (correctness) prinsipi emas, balki “muvofiglik” (appropriateness) tamoyili”⁵⁶, degan xulosaga keldi.

Shuningdek, tinish belgilarining qo‘llanilishiga oid qoidalarni me’yorlashtirish jarayonida ularni qat’iy joriy etish usullari har doim ham tilda bir-biriga muvofiq kelmasligini kuzatish mumkin.

Garchi tinish belgilarini qo‘llashda asosan qoidalarga emas, balki til birliklarining mazmuni, idrok etilishi va tashqi shakliga tayangan holda amalga oshiriladi. Biroq adabiy tilning sathlari, jumladan, orfografiya, so‘z yasalishi va o‘zgarishi, punktuatsiyada uchraydigan variantlilikni nisbatan kamaytirishni amalga tatbiq etilganligini ham alohida e’tirof etish kerak.

U.Nesh ingliz tili an’anaviy punktuatsiyasi xususida fikr yuritganda “yaxshi” ishlatilgan va “to‘g‘ri usul” – deya izohlaydi. Shuningdek, H.U. va F.G.Faulerlarning “The King’s English” va ser Ernest Gauerzning “Plain Words” nomli ishlarida keltirilgan fikrlarga e’tiroz bildirmagan holda, U.Nesh barcha punktuatsiyaga oid qoidalar o‘zida “avtoritarlikni mujassamlashtirganligini ta’kidlab, bundan holi bo‘lish yo‘llarini o‘zining risolalarida keltirib o‘tgan”⁵⁷.

Tomas S.Keyn “The New Oxford Guide to Writing” nomli kitobida “Rules of Punctuation” – sarlavhali bir faslini punktuatsiyaga bag‘ishladi⁵⁸.

Aslida Keyn punktuatsiyani tizimlilikka bog‘liq emas, aksincha, u bir qator qoidalar, an’analar, individual-avtorga xos qarorlardan iborat bo‘lganligi bois, tinish belgilari tavsiflanganda, muqim qoidalar, konvensiya va noan’anaviy, biroq amalda mavjud bo‘lgan qonuniyatlarining tatbiq etilishidagi cheklanish holatlari kuzatiladi.

⁵⁶ 246 с.; Перельгут Н.М. К проблеме становления нормы английского языка Текст. / Н.М. Перельгут // Иностранные языки в школе. –М., 2002. – № 3. –С. 62– 65.

⁵⁷ Перельгут Н.М. К проблеме становления нормы английского языка Текст. / Н.М. Перельгут // Иностранные языки в школе. –М., 2002. – № 3. –С. 64.

⁵⁸ Nash W., Routledge K.P. English Usage. A guide to first principles Text. / W. Nash, K.P. Routledge. London: Boston and Henley, 1986. – 512p.; Nash W. An Uncommon Tongue Text. / W. Nash. London and New York: Routledge, 1992. – 561 p.

⁵⁸ Tomas S. Keyn. The New Oxford Guide to Writing. – Oxford University Press, 1994. –336 p.

Tomas S. Keynning fikriga ko‘ra, “punktuatsiyani ikki yirik kategoriyalarga, ya’ni tinish belgilari – bunga ularning nomlanish sabablari va qo‘llanishi haqidagi ma’lumotlar kiradi; keyingisi boshqa belgilar guruhini tashkil etadi. Boshqa belgilar yozuvda ifodalansa ham pauzaning mavjudligini anglatmaydi. Garchi ba’zi hollarda gap ohangini o‘zgarishiga ishora beradi”⁵⁹. Masalan, *apostrof, qo ‘shtirnoq, chiziqcha, yoysimon va to ‘rtburchak qavs, diakritik belgi*.

Shuningdek, tinish belgilariga tegishli bo‘lmagan toifaga bosh harflar va pastki satrda yoziladigan yoki shriftlar vositasida ifodalanadigan harflar kiradi⁶⁰.

Tinish belgilari grammatika va uslubiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ifoda etilgan matn yoki jumlada qo‘llanilmaydi. Neshning “English Usage” asarida tinish belgilarining qo‘llanilishini ijodiy jarayon sifatida e’tirof etganini ko‘rshimiz mumkin. Punktuatsiya ijodiy jarayonning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, so‘zlarni tanlash va matn tuzilishi xususida fikr yuritayotib, unda qo‘llaniladigan tinish belgilarining tartibi haqida oldindan aniq tasavvur hosil bo‘ladi⁶¹.

Shubhasiz, matn yaratilgandan so‘ng keladigan bosqich – qayta tekshirish bo‘lib, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etiladi. Shu bilan birga, so‘zlar o‘rtasidagi aloqalar dalillanib, mavhum bo‘lgan holatlarga anqlik kiritilish jarayonida tinish belgilarining joriy etilishini ijodiy mahsul sifatida belgilab beradi.

Ma’lumki, biror-bir tinish belgisini qo‘llash gapning grammatik tuzilishi va leksik tarkibining o‘zgarishiga olib keladi. Neshning fikriga ko‘ra, “nutqning sintaktik bo‘laklarga ajratilishida o‘zgartirishlar kiritilishi punktuatsiyaning ritmik-ohangida o‘z aksini topadi”⁶².

Punktuatsion belgilarning bu kabi ikki xil tabiatga ega bo‘lishi, unga beriladigan muqim izohini idrok etishda murakkabliklar keltirib chiqaradi. Shu sababli, tinish belgilari quyidagi guruhlarga ajratilgan:

1) “tinish” (stops) yoki ajratuvchi belgilari;

⁵⁹ Tomas S. Keyn. Ko‘rsatilgan manba, – 140 p.

⁶⁰ Tomas S. Keyn. Ko‘rsatilgan manba, – 214 p.

⁶¹ Nash W., Routledge K.P. English Usage. A guide to first principles Text. / W. Nash, K.P. Routledge. London: Boston and Henley, 2017. – 167 p.

⁶² Nash W., Ko‘rsatilgan manba – P.105.

- 2) “to ‘xtash” (*suspensions*), ya ’ni, to ‘xtash, bog ‘lash, sanab o ‘tish belgilari;
- 3) “baholash” (*scorings*) yoki ekspressiv belgilardan iborat.

Birinchi turdag'i tinish belgilariga – *nuqta*, *ikki nuqta*, *nuqtali vergul*, *vergul* va *belgining ifodalanmasligi*, *ya ’ni belgining qo ’llanilishi mumkin bo ’lmagan holatlarni* misol tariqasida keltirish mumkin.

To ‘xtash turidagi belgilarni – *ikkilangan vergul*, *nuqta*, *tire* va *qavs* tashkil etib, ular nutq ohangini ifodalashdagina farqlanadi.

Ayrim hollarda, *ko ’p nuqtaning gap mazmuniga tuzatish kiritish maqsadida qo ’llanganligiga guvoh bo ’lish mumkin*. Shu bilan bir qatorda, *ko ’p nuqta juda uzoq pauza orqali hissiy-ekspressivlik va kuzatuvchanlikni ifodalaydi*. Masalan, quyida keltirilgan gap misolida *ko ’p nuqtaning qo ’llanilishini kuzatish mumkin*:

*thought of tu daughter... for so long a stranger to me... and I felt sad*⁶³.

Keyingi “baholash” (*scorings*) belgisi matn uslubining mohiyati, ohangi, urg‘usi, tempini *vergul*, *tire*, *qavs*, *ko ’p nuqta*, *qo ’shtirnoq*, *undov* va *so ’roq* belgilari vositasida ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

She felt – what was the word? – “depleted”.

It was a “good” book (and he hated “good” books).

V.Vulf, E.Xeminguey kabi yozuvchilar “baholash” (*scorings*) belgisidan to’g‘ri foydalanish san’atini mukammal darajada egallahsgan. Aynan ularning asarlarida tinish belgilarining umumiyligi qoidalari va shuningdek, san’at darajasida qo ’llanilganligiga guvoh bo ’lish mumkin⁶⁴.

Tan olish kerakki, tinish belgilarini san’at darajasida qo ’llay bilish qobiliyatidan barcha yozuvchilar ham mosuvo emasligi tufayli, ingliz tilida yozilgan asarlar tarjimasi bilan shug’ullanayotib, tinish belgilari vositasida

⁶³ Nash W., Routledge K.P. English Usage. A guide to first principles Text. / W. Nash, K.P. Routledge. London: Boston and Henley, 2017. – P.167.

⁶⁴ Сафонова И.И. Стилевые особенности пунктуации в художественной прозе Э.Хемингуэя //Слагаемые качества современного гуманитарного образования. – 2020. – С. 123-128.; Коутия Лада Андреевна Способы передачи «Потока сознания» в синтаксисе романа Вирджинии Вулф «Миссис Дэллоуэй» // Вестник КГУ. 2007. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-peredachi-potoka-soznaniya-v-sintaksise-romana-virdzhinii-vulf-missis-dellouey>; Ивушкина Т.А Социолингвистические аспекты развития английской речи: На материале речевых характеристик представителей высш. кл. Великобритании в произведениях англ. худож. лит.: Дисс. ... д-ра филол. наук. –М.: 1998. –296 с.

ifodalangan ma’noni ko‘r-ko‘rona anglagan holda turli qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Demak, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tinish belgilariga oid qonun-qoidalar adabiy til rivojlanishi jarayonida shakllangan me’yorlarga muvofiq holda vujudga kelgan bo‘lib, har bir tinish belgisi o‘z ma’nosidan tashqari yozuvchi tomonidan ifodalangan ma’noni ham izohlashga xizmat qiladi.

1.2.§. Punktuatsion belgilarning struktur-tizimli jihatlari

Jamiyatda barcha sohalarning shiddat bilan rivojlanishi barobarida tilshunoslikda ham birmuncha ildam qadamlar tashlanganini kuzatish mumkinki, ular o‘z o‘rnida bir qancha tadqiq etilishi lozim bo‘lgan masalalarni yaqqol ko‘rsatib beradi. Garchi tilshunoslik sohasida matn bilan bog‘liq muammolar o‘rganilganligiga qaramasdan, ko‘rgan narsa yoki eshitgan ma’lumotni idrok etish va shu bilan birga, matn mazmunini ifodalashda ahamiyatga ega vositalar, jumladan, tinish (keyingi o‘rinlarda *punktuatsion* va *tinish belgilari* sinonimlar sifatida qo‘llaniladi) belgilari hozirga qadar muhim sanalgan. Binobarin, punktuatsion belgilar qadimgi yozuv namunalaridan hisoblanib, evolyutsiya natijasida hozirgi kunda mavjud bo‘lgan ko‘rinishlarga kelgan. Ularning asosiy milliy til grafikasining tarkibiy qismi sifatida yozma matnda ifodalangan fikrni tushunarli va ravon tarzda aniq bayon qilishda muhim vositalardan hisoblanadiki, ularning yozuvda ishlatilish o‘rinlari, asosiy funksiyalari va xususiyatlarini bilish yuksak nutq madaniyatini egallash va savodxonlikni oshirishda katta ahamiyatga egadir. Yozuvda tinish belgilaridan foydalanishda ko‘p qiyinchiliklar uchramoqda, bu narsa, ayniqsa, matbuot va nashriyot ishlarida ko‘proq seziladi. Buning bir sababi o‘zbek punktuatsiyasi masalalarining ilmiy jihatdan keng va chuqr o‘rganilmaganligida bo‘lsa, ikkinchi sababi nashriyot va matbuot xodimlari uchun o‘zbek tili punktuatsiyasi bo‘yicha hozirgacha mukammal qo‘llanmaning yaratilmaganligi bilan izohlanadi.

Ma'lumki, biror-bir asar namunasi u xoh qadimgi, xoh zamonaviy adabiyot durdonalaridan bo'lsin, unda ifodalangan matnni to'g'ri idrok etishda kitobxon muammoga duch kelishi tabiiy holdir. Matn mazmunini anglash tinish belgilari xususidagi bilim va ko'nikmalarga bevosita bog'liq bo'ladi. Tinish belgilari musiqa notalari singari muallif tomonidan nazarda tutilgan fikrni idrok etishda to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Ayniqsa, butun matnda tizilgan so'zlar asosiy mazmunni ifodalashda tasviriy vositalarga ega bo'limganda, punktuatsion belgilar orqali anglash mumkin. Tinish belgilari nafaqat, so'z ma'nosiga alohida urg'u beradi, balki undagi ma'noviy hamda grammatik munosabatlar zanjirini buzib, uni tubdan o'zgartira oladi. Ushbu xususiyatlarni zamonaviy tinish belgilari tizimi – punktuatsiya o'zida mujassam etadi. Shu bilan birga, G'.Abdurahmonovning o'rinli fikrlarini keltirib o'tish joizdir, "o'quvchilarning yozma ishlaridagi xatoliklarning 60-70 foizi punktuatsion xatolar... keyingi 30-35 yil ichida o'zbek tili orfografiyasi besh marta qayta ko'rib chiqilgan bo'lsa, tinish belgilarini qo'llash qoidalari biror marta qayta ko'rib chiqilgan emas"⁶⁵.

Tinish belgilari tilning eng muhim tizimlaridan biri sanalib, ushbu sohaga oid bir qator tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, V.V.Babayseva, N.S.Valgina, A.B.Shapiro va boshqa tilshunoslarning ishlarida ko'rishimiz mumkin⁶⁶. Biroq tinish belgilarining o'ziga xosligi va vazifalari nafaqat tilshunoslik, balki alohida tillar ko'lamida yetarlicha tadqiq etilmagan. Punktuatsiyaga nazariy tadqiqot faoliyati sifatida yondashish unga xos bo'lган me'yorlarning taraqqiy etishini ta'minlabgina qolmay, alohida sohaning shakllanishiga yordam beradi. Garchi tilshunoslikda "me'yor" tushunchasining izohi hanuzgacha muammoligicha qoladi. Albatta, til tizimi sathlarining me'yorlari orfoepik, orfografik, morfologik, sintaktik va boshqalarni tashkil etib, punktuatsion me'yor orfografik mezon bilan birga o'rganilishi an'anaga kirgan. Orfografik me'yor variantdorlik, o'zgaruvchanlik, ma'lum darajada majburiy rioya qilinishi zarur bo'lgan qoidalar

⁶⁵ Абдурахмонов Ф. Пунктуацияни ўргатиш методикаси. –Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968. – Б. 6-7

⁶⁶ Бабайцева В.В. Русский язык. Синтаксис и пунктуация. – М.: Просвещение, 2011. – 269 с.; Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации: Учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 2004 – 259 с.; Шапиро А.Б. Современный русский язык: Пунктуация. – 3-е изд., 2011. – 296 с.

turkumini o‘zida mujassam etgan. Punktuatsion me’yorlarning muayyan vazifalarini amalga tatbiqi jarayonida orfografiyadan farqli ravishda belgilangan o‘zgarishlarga duch keladi. Bu kabi o‘zgaruvchan sifatlar tinish belgilariga oid me’yorlarning shakllanishi uchun asosiy manba vazifasini o‘tabgina qolmay, ushbu tizimga xos bo‘lgan qonuniyatlarning doimiy rivojlanib borishini ta’minlaydi.

Tilshunoslikda birinchilardan bo‘lib 1913-yilda olim I.A.Boduen de Kurtene punktuatsiyaga tizimli-tarkibiy yondashib, tinish belgilarining “yozuv birliklari yoki nutq tovushlari bilan bog‘liq bo‘lmaidan, faqat gap bo‘laklarini ajratishga xizmat qiluvchi tilning yozuvdagi ifodasi”⁶⁷ sifatida ko‘rib chiqqan. Uning punktuatsiya xususida yuritgan ushbu fikridan tushunish mumkinki, tinish belgilarini yozma nutqda ifoda etgan morfologiyaga oid, ya’ni eng kichik qismlarga ajratishga xizmat qiluvchi belgilarga va aynan, so‘zlovchi yoki yozuvchining kayfiyatini ko‘rsatib, uning yozilgan yoki so‘zlangan ma’lumotga bildirgan munosabatini ifodalovchi semasiologik tomonini aniqlab berishda shu tinish belgilari kategoriyasiga zid bo‘lgan aniq bir tizim sifatida tasavvur qilish mumkin.

I.A.Boduen de Kurtenening bu kabi qarashlari L.V.Sherbaning punktuatsiya borasida yuritgan fikrlarini qayta ko‘rib chiqishga undadi. Uning punktuatsiya borasidagi fikri quyidagicha, “iboralarning qofiyasi va ohangdorligini ta’minalashga xizmat qiladigan yozuv belgilarining qo‘srimcha qo’llanilish qoidalari”⁶⁸.

Shu tariqa L.V.Sherba tinish belgilarini intonatsiya (ohang)ning o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘ladi. Shu bilan birga, u punktuatsiyaning ikki xil tabiatga ega ekanligini ta’kidladi:

1. Ayrim tovushga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifoda etganligi bois fonetik tabiat;
2. U bevosita mazmun bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ideografik tabiatga ham ega”⁶⁹.

⁶⁷ И.А. Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию. Том II. – М.: Изд-во Академии наук СССР, 1963. – С. 238.

⁶⁸ Щерба Л. Пунктуация // Литературная энциклопедия: В 11 т. – 2012. – С. 365-366

⁶⁹ Щерба Л. Ко‘rsatilgan manba, 2012. – С. 365-366.

L.V.Sherbaning punktuatsiya borasida bildirgan fikrlari I.A.Boduen de Kurtenening qarashlari bilan hamohang bo‘lib, u tinish belgilari tizimini I.A.Boduen de Kurtene farqli ravishda boshqacha asosga ko‘ra tuzgan. Punktuatsiya tizimiga yozuvdagi qo‘srimcha belgilarni saralab, kiritish jarayonida tilshunos, avvalambor, ularning iboraviy ohangni ifodalashdagi faol yoki passiv tarzda ishtirokini aniqladi. Shuningdek, L.V.Sherba o‘zining punktuatsiyaga doir “og‘zaki nutqda ohang vositasida gap bo‘laklariga ajratadigan va ajratmaydigan belgilarni zidlash”⁷⁰ nazariyasini mustaqil tizimga asoslangan holda targ‘ib etgan.

Ingliz tilshunosi Ellsvorsning fikricha, “biz gapiroytgan paytda qo‘llaydigan pauza va to‘xtashlarni tinish belgilarining deyarli ko‘pchiligi orqali ifodalanadi. Nuqtalar, so‘roq belgilari, undov belgilari, ikki nuqta, nuqta vergul kabi barcha to‘xtash belgilari yozuvning “qizil chiroqlari”dir. Vergul va tire kabilar pauza belgilari sariq chiroqlari bo‘lib, bizga vaqtinchalik sekinlashishni ko‘rsatib turadi. Ayrim punktuatsion belgilar alohida urg‘u berilgan so‘zlarni va g‘oyalarni ajratsa, boshqa belgilar esa bir-biriga bog‘liq bo‘lgan fikr va g‘oyalarni birlashtiradi”⁷¹. Demak, tinish belgilari nafaqat, ma’lum bir tizimga solingan faqat gap bo‘laklarini ajratishga xizmat qiladi, balki bir-birini mantiqan to‘ldiradigan g‘oyalarni birlashtirishga ham xizmat qiladi.

Elsvorsdan farqli o‘laroq Kuiper va Lukelarning ta’kidlashlaricha, “punktuatsiya so‘zlarni, iboralarni, ergashgan bo‘laklarni va gaplarni birlashtiruvchi va ajratuvchi belgilardan tashkil topgan. Punktuatsiyaning maqsadi kitobxonga tushunarsiz bo‘lgan jihatlarni aniqlashga xizmat qilish”⁷². Poyatosning qarashlari, aksincha, “og‘zaki nutqda uchraydigan barcha tafsilotlarni yozuvda to‘liq ifodalashi”⁷³ni izohlagan.

⁷⁰ Щерба Л. Ко‘rsatilgan manba. – С. 369-370

⁷¹ Smith, C.A., & Ellsworth, P.C. (1985). Patterns of cognitive appraisal in emotion. *Journal of Personality and Social Psychology*, 48(4), 813–838. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.48.4.813>

⁷² Kuiper, Shirley, and Cheryl M. Luke. 1992. Report writing with microcomputer applications. Cincinnati: OH South-western Publishing Co.; Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник для вузов. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2002. –384 с.

⁷³ Poyatos, Fernando. 1981. Punctuation as nonverbal communication: toward an interdisciplinary approach to writing. *Semiotica* 34.91-112.

Punktuatsiya tarixidan ma'lumki, John Lennardning tadqiqotlariga ko'ra, biror-bir hodisa yoki narsa haqida bildirilgan tugal fikr yakunida qo'llaniladigan belgi – nuqta, keyin esa vergul bo'lib, ularning bir-biriga nisbatan ustun jihatlarini ko'rsatishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu tahlillar Jennifer de Vere Brodining “yosh kitobxonlarni tinish belgilarining me'yorga zid bo'lgan jihatlarini uqib olishga undovchi”⁷⁴ strategik g'oyalarining debochasi bo'lib xizmat qiladi.

Brodi tahlil jarayonida tinish belgilarining standart qo'llanilishini umumiyl foydalanishga mo'ljallangan ixtiyoriy me'yorga asosan baholab, nuqtani qavsga zidlab, uning o'nga tengligini va qolgan belgilarni shu shkala bo'yicha baholab, ularni quyidagicha izohlaydi:

- Vergul ikkiga teng;
- Tire beshdan uchga teng;
- Nuqta vergul oltiga;
- Ikki nuqta esa sakkizga teng⁷⁵.

Ushbu baholashni yanada soddalashtirishning bir usuli – nuqtani tinish belgilari ichidagi eng oddiy belgi sifatida tan olish va Xemingueydan tortib Folknergacha bo'lgan davrda eng ommalashgan usul – qavsning murakkab gaplarda qo'llanilganligi sababli uni asosiy o'ringa qo'yishdan iborat.

Tilshunoslarning e'tirof etishlaricha, “punktuatsiyaning asosiy vazifasi yozuv matnida leksik va sintaktik vositalar bilan ifodalanishi mumkin bo'limgan ma'noni, ma'no bo'yoqlarini ifodalashdir. Shuningdek, punktuatsion belgilar leksik va sintaktik vositalar bilan bayon etilishi mumkin bo'ladigan hodisalarda ham qo'llanadi. Bu bilan ular o'sha tekstdagi ma'nolarni, ma'no munosabatlarini, sintaktik strukturalarni tez va to'g'ri tushunishga yordam beradilar”⁷⁶.

Adabiy tilga xos ifodaning muqim qirralarini aks ettirishda uning ifoda me'yoriy chegaralari va stilistik bo'yoq beruvchi belgilar, ya'ni ajratuvchi va sintaktik tarkibni o'zgartiruvchi tipografik vosita sifatida xizmat qiluvchi belgilar talab etiladi. Ijod mahsuli aniq bir chegara va me'yorga muvofiq ifodalanishi

⁷⁴ Brody, Jennifer DeVere. Punctuation: Art, Politics, and Play. Durham, NC: Duke University Press, 2008. / P.4

⁷⁵ Brody, Jennifer DeVere. Ko'rsatilgan manba. /P.136

⁷⁶ Шапиро А.Б. Основы русской пунктуации. – М., 2012. – С. 398.

asnosiда tinish belgilari vositasida undagi so‘zlarning tartibsizligini ma’lum bir tizim asosida boshqaradigan shaklda tartibga solishni, yuzaga keladigan bahsli o‘rinlarni bartaraf etishni talab etadi.

Masalan: *For a wry example of the dire semantic effects of punctuation, compare two versions of this heartfelt “Dear John” letter:*

Dear John, I want a man who knows what love is all about. You are generous, kind, thoughtful. People who are not like you admit to being useless and inferior. You have ruined me for other men. I yearn for you. I have no feelings whatsoever when we’re apart. I can be forever happy – will you let me be yours? Gloria

*Dear John, I want a man who knows what love is. All about you are generous, kind, thoughtful people, who are not like you. Admit to being useless and inferior. You have ruined me. For other men, I yearn. For you, I have no feelings whatsoever. When we’re apart, I can be forever happy. Will you let me be? Yours, Gloria*⁷⁷.

Quyidagi gapda vergulning qo‘llanilishi unga xos bo‘lgan qoidalar borasida biroz bo‘lsa-da bahslarga sabab bo‘ladi:

“*Let’s eat, grandma*” – ushbu gapda buvisiga birga ovqatlanishni taklif qilyotgani anglashiladi;

“*Let’s eat grandma*” – vergulning tushirib qoldirilishi bilan ma’no tamoman o‘zgarib, insonga xos bo‘lmagan xislat – odam yejish, ya’ni buvisini iste’mol qilish taklifi bildirilgan.

Theodor Adornoning izohlashicha, “fikr mazmunini ifodalashda matnning sintaktik strukturasining o‘zi yetarli emas”ligi⁷⁸, uning tinish belgilariga xos qo‘llanilish holatlariga bo‘lgan e’tiborini oshirdi. Shuningdek, Teodor har bir tinish belgisini “svetofor chiroqlarining ranglari” kabi ifodalanish o‘rinlarining turli-tumanligiga ishora qiladi. Uning fikricha, “undov belgisi – qizil, ikki nuqta – yashil, tire esa to‘xtashni anglatuvchi belgilar sirasiga kiradi”⁷⁹.

⁷⁷<https://www.innocentenglish.com/learning-english-grammar-esl/dear-john-letter-importance-punctuation.html>

⁷⁸ Adorno Theodor. W., and Weber Nicholsen, Shierry, ‘Punctuation Marks’, The Antioch Review Vol. 48, No. 3, Poetry Today (Summer, 1990), pp. 300-305.

⁷⁹ Adorno Theodor. W., and Weber Nicholsen, Shierry, ‘Punctuation Marks’, The Antioch Review Vol. 48, No. 3, Poetry Today (Summer, 1990), P.300

Mary Olivering e'tirof etishicha, “yozuvchi cheklangan miqdordagi tinish belgilaridan oqilona foydalana bilishi kerak”⁸⁰. Uning nazarida, bir marta qo'llanilgan belgi takroran kelmasligi, shuningdek, punktuatsion belgilarga ehtiyyotkorlik bilan murojaat qilish maqsadga muvofiqligini, fikrlarni har qanday belgidan holi bo'lgan she'rlarda ifodalashni taklif etadi. Adorno ham uning ijodida qat'iy qoidalarga muntazam rioya etishini kuzatgan holda fikrini qo'llab-quvvatlab, u xususida shunday deydi: “Har bir rad etilgan tinish belgisidan yozma matnda o'z ifodasini topgan nutq tovushlari muhim ahamiyat kasb etadi”⁸¹.

Yozuvchi va tilshunoslarning bahsiga ko'ra, “punktuatsiya ma'noni aniqlashga xizmat qilishi” borasidagi g'oyani “sintaktik tartib bilan qurilgan ergashgan bo'laklardan tashkil topgan gapda ifodalangan urg'uni aniqlashga” xizmat qilishi xususidagi fikrlar bir-biriga ziddir. Har ikkala holatda ham tinish belgilarini tartibga soluvchi vosita sifatida qaralmasdan, u orqali namoyon bo'luvchi ritorik ma'nolar, masalan, nuqtalar o'miga vergulni qo'llash yoki undan ham boshqacha yo'sinda ifodalash usullarini ishlatischdan iborat.

Ma'lumki, punktuatsion belgilari yozma matnlarga xos bo'lib, yozuv paydo bo'lganidan so'ng shakllangan. Shu o'rinda John Lennardning fikrini keltirib o'tish joizdir, “g'arbda tinish belgilarining eng dastlabki namunalari eramizdan avvalgi II asrga to'g'ri kelib, ulardan: xat boshi (abzats) qariyb ming yil davomida ichki tinish belgilarsiz ifoda etib kelingan”⁸². Shuningdek, ingliz tilida 12 ta asosiy tinish belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- 1. nuqta / the full stop (AmE: the period) .*
- 2. so 'roq belgisi / the question mark ?*
- 3. undov belgisi / the exclamation mark !*
- 4. vergul / the comma ,*
- 5. nuqta vergul / the semicolon ;*

⁸⁰ Oliver, Mary. (2001). Mary Oliver on the Magic of Punctuation. <https://www.brainpickings.org/2014/09/10/mary-oliver-on-punctuation/>

⁸¹ Adorno Theodor. W., and Weber Nicholsen, Shierry, 'Punctuation Marks', The Antioch Review Vol. 48, No. 3, Poetry Today (Summer, 1990), P.300

⁸² Lennard, John. But I Digress: The Exploitation of Parentheses in English Printed Verse. Oxford: Clarendon Press, 1991.

6. ikki nuqta / the colon :

7. tire / the dash –

8. chiziqcha / the hyphen –

9. qavs / the brackets ()

10. to ‘rtburchak qavs / the square brackets []

11. the inverted commas ‘ ’ – o’zbek tilida mayjud emas

12. the apostrophe ' – o’zbek tilida mayjud emas

Ingliz tilidan o‘ziga xos jihatlari bilan farqli tarzda o‘zbek punktuatsiyasi, avvalo, o‘zbekcha nutq (gap) qurilishiga asoslanadi, ya’ni o‘zbek tilining grammatik strukturasi o‘zbek punktuatsiyasi uchun negiz hisoblanadi. O‘zbek tili gap qurilishi tinish belgilarining qo‘llanishidagi birinchi, yetakchi asos bo‘lib, o‘zbek punktuatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Rus punktuatsion sistemasi o‘zbek punktuatsiyasining ikkinchi asosi hisoblanadi. Bu, birinchidan, so‘roq, undov, ko‘p nuqta, qo‘shtirnoq kabi tinish belgilarining o‘zbek tiliga rus tilidan o‘tganligi; ikkinchidan, ba’zi punktuatsion qoidalarning rus tili punktuatsiyasi asosida tuzilganligi; uchinchidan, millatlararo aloqa vositasi bo‘lmish rus tilining boshqa tillar qatori o‘zbek tiliga ham ko‘rsatgan ta’siri bilan izohlanadi.

Hozirgi yozuvimizda qo‘llanuvchi tinish belgilarining umumiy miqdori o‘nta bo‘lib, ularning har biri o‘z grafik shakliga ega; ular yozma nutqda ma’lum maqsadlar uchun ishlataladi va aniq bir vazifani bajaradi. Har bir tinish belgisi o‘z funksiyasi va qo‘llanish o‘rniga egadir.

Tinish belgilari vazifasiga ko‘ra, 2 ga bo‘linadi, jumladan, chegaralovchi va ajratuvchi⁸³:


a) chegaralovchi belgilar – muayyan sintaktik tuzilmaning yoki umuman gapning chegarasini bildirish, biron bir gap bo‘lagini intonatsion-mazmuniy jihatdan ajratib ko‘rsatish, nutq qaratilgan shaxs yoki predmet nomi qamrab olingan, yozuvchi (so‘zlovchi)ning subyektiv munosabati ifodalangan sintaktik tuzilma chegarasini ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi tinish belgilari: qavs,

⁸³ <https://uzsmart.uz/ensiklopediya/ensiklopediya/tinish-belgilari.html>

qo'shtirnoq, yagona qo'shaloq belgi sifatida qo'llanuvchi vergul, ayni shu vazifadagi tire;

b) ajratuvchi vazifasi orqali mustaqil gaplarni, ularning qismlari (bosh va ergash gaplar, bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning predikativ qismlari)ni, gapning uyushgan bo'laklarini, birgalik ergashishli qo'shma gaplarni, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini, nutqning bo'linganligini ko'rsatib, ular quyidagilarni tashkil etadi: nuqta, so'roq va undov belgilari, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, ko'p nuqta.

Ta'kidlash joizki, "ayrim tinish belgilari har ikkala vazifani o'zida aks ettirish tabiatiga ega. Tinish belgilari tuzilish jihatdan ham 2 ga bo'linadi: a) bir elementli tinish belgilari – vergul, tire, nuqta; b) ko'p elementli tinish belgilari. Bu guruh, o'z navbatida, 2 elementli (so'roq va undov belgilari, ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs), 3 elementli (ko'p nuqta) va 4 elementli (qo'shtirnoq) kabi belgilarga ajraladi"⁸⁴.



⁸⁴ Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. –Тошкент, 1974. – 68 6.

gap boshida, o'rtasida va
oxirida qo'llanuvchilar:
qo'shtirnoq, qavs va ko'p
nuqta

1.2-rasm. Tinish belgilarini qo'llanish o'rni quyidagi jadvalda aks ettirilgan

Tinish belgilariga oid qoidalar majmui tahlilga tortilganda, punktuatsiyada mavjud qoidalar va yozma nutqda yozuvchining tasavvuridagi mazmunni yaratishga keng imkoniyat yaratadigan, amalda rioya qilib kelinayotgan me'yor o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bu o'z o'rnida, qoidalar o'rtasida variantdorlikning paydo bo'lishiga sabab bo'lib, tinish belgilaridan nutqimizda foydalanishni bir muncha murakkablashtiradi. N.L.Shubinaning fikriga ko'ra, "an'anaviy yondashgan holda to'g'ri yozish tizimi doirasida tinish belgilarini ham o'rganish, bir qancha qoidalarga tuzatishlar kiritishni taqozo etadi"⁸⁵. Demak, biror-bir ma'noni ifodalashda mustaqil yoki muhim bo'limgan o'rnlarda tinish belgilarining "Lingvistik yoki ekstralolingvistik majburiyatlarga bo'ysungan"⁸⁶ biror-bir variantini tanlash vazifasini foydalanuvchi zimmasiga yuklaydi. A.B.Shapiro shunday deydi: "Saqlanib qolgan qadimgi yozma yodgorliklar asosida hukm chiqarish mumkinki, bajaradigan vazifasi jihatidan punktuatsiya grafika, xususan, orfografiya kabi juda sodda bo'lgan. Bu jihatdan punktuatsiya tarixining ikki davri o'rtasidagi qat'iy chegara kitob nashr etishni ixtiro etish bilan mahkam bog'langan..."⁸⁷.

L.K.Graudinaning ta'kidlashicha, "mazmun ifodasining rang-barangligi bilan bog'liq bo'lgan tinish belgisining o'zgaruvchanligi amalda tatbiq etilishi, nafaqat muqobili sifatida, balki sinonimi bo'lib xizmat etishi mumkin"⁸⁸.

Tilshunoslarning yuqoridagi fikrlari shuni ko'rsatadiki, o'tmishda yozuv matnlarini ma'nolarga – so'zlarga, ayrim hollarda gaplarga, mazmunan qismlarga

⁸⁵ Шубина Н.Л. Пунктуация современного русского языка. учеб. для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2006. – С.90

⁸⁶ Билялова А.А. Системно-функциональное описание факультативности как языкового феномена (на материале татарского, русского и английского языков): Дисс. ... д-ра филол. наук. Казань, 2011. – С.28

⁸⁷ Шapiro А.Б. Основа русской пунктуации. – Москва, 2012. – С.398.

⁸⁸ <https://www.twirpx.com/file/4117758/>

ajratishga yordam bergen vositalar va hozirgi belgilar – bularning hammasi tinish belgilaridir. Modomiki shunday ekan, u belgilarning hammasini, keng ma’noda, punktuatsion belgilar deyish mumkin. Punktuatsion shakllar va ularning vazifalariga bunday qarash u vositalarning tarixiy rivojiga qarashda turmush dalillariga asoslanishdir. Shuning uchun punktuatsiya leksemasini keng ma’noda qo’llab, yuqorida qayd etilganday funksiyali belgilarning hammasini punktuatsion belgilar sifatida tanish, ular ishlatilgan matnlarni esa punktuatsiya bo‘yicha olib boriladigan ish uchun obyekt hisoblash asoslidir.

Ma’lumki, punktuatsiya – muayyan til yozuv sistemasining tarkibiy qismi hisoblanib, birinchidan, tinish belgilaringin qo’llanilishiga oid qoidalar jamlanmasi bo‘lsa, ikkinchidan, tinish belgilaringin o‘zi o‘sha me’yorlar majmui hamdir. Punktuatsiya qoidalarini puxta egallash va ulardan amalda o‘rinli foydalanish yozma nutq uchun muhim. Shu barobarida, yozma nutqda gapni semantik, tarkibiy hamda ohang vositasida bo‘laklarga ajratish punktuatsiyaga qo‘ylgan vazifalar sirasiga kiradi. Masalan, quyidagi gaplarda vergul hamda nuqtali vergulning qo’llanilishiga e’tibor qaratamiz:

“King Charles walked and talked; half an hour after, his head was cut off”. Ushbu gap mazmunidan anglashiladiki, Qirol Charls (*King Charles*) ketma-ket “sayr qilish” va “suhbatlashish” harakatlarini bajargan va yarim soatdan so‘ng uning boshi tanasidan judo qilingan. Demak, nuqtali vergul harakat bajarilgan qismini ajratib ko‘rsatgan bo‘lsa, vergul yordamida “yarim soatdan so‘ng” hamda “boshi tanasidan judo qilindi” – qismlari vergul bilan ko‘rsatilgan. Ingliz tilida mavjud bo‘lgan nuqtali vergul bilan ajratilgan bo‘lakda ifodalangan ma’no gap mazmunining boshqa qismi bilan mos kelmagan hollarda qo’llanilish qoidasiga muvofiq ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin. Quyida keltirilgan yuqoridagi misolning aynan o‘zi bo‘lib, tinish belgilarisiz ifodalangan:

“King Charles walked and talked half an hour after his head was cut off” – punktuatsion belgilaringin tushirib qoldirilishi gapning mutlaq mazmunini o‘zgartirgan, ya’ni “Boshi tanasidan judo qilingandan yarim soat keyin Qirol Charls sayr qilib suhbat qurgan”ligi ma’lum qilinadi.

Keyingi o‘rinlarda tirening qo‘llanilishiga e’tibor qaratamiz:

“*Нынче совсем ничего не мог писать утром – заснул*” (Lev Tolstoy). – ushbu gapda tire “заснул” kesimini ajratibgina qolmay, “не мог писать” ish-harakatiga nisbatan asosli sababni keltirib, ertalabki harakatning vaqtinchalik ekanligini asoslab, uning ertalab uqlab qolganligini ko‘rsatadi. Aynan shu gapning o‘zida tire o‘rni almashtirilganda, ya’ni:

“*Нынче совсем ничего не мог писать – утром заснул.*” – Rus tilidagi ikkinchi misolda “утром заснул” jumlasidan oldin tirening qo‘llanilishi personajning kechasi bilan uxlolmagani va ertalab chog‘ida ko‘zi ilinganidan darak beradi. Ayni bitta gapning o‘zida tinish belgisi o‘rnining almashtirilishi gap mazmunining tubdan o‘zgarishiga olib kelgan. Shuningdek, tire gapdagi mavjud bo‘lgan pauzalar o‘rmini ifodalilik sifatiga hamda so‘zlarning semantik xususiyatlariga mos tarzda namoyon etadi. Demak, “matnning tinish belgilari vositasida bo‘laklarga ajratilishi yozuvchi tasavvuridagi mazmunni kitobxonga tushunarli qilib yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z o‘rnida shuni anglatadiki, yozuvchi va kitobxon belgini bir xil tushunishi, ya’ni matnning yaratilishi va qabul qilinishi yagona qoidaga asoslanishi kerak. Punktuatsiyaning aynan shu jihatini ijtimoiy hodisa deb hisoblash mumkin, qachonki tinish belgilari yozma muloqot talablarini ifodalashga xizmat qilib, yozuvchi va kitobxon tomonidan bir xil idrok etilsa.....”⁸⁹.

Punktuatsiya qoidalarining amalda sinab ko‘rilishida, uning qanchalik hayotiyligini belgilashda kundalik matbuotning va nashriyotning hissasi kattadir. Tinish belgilarini yozuvda qo‘llashning muayyan tizimi, me’yorlari vujudga keldi. Matbuot va nashriyot ishlaridagi boy tajriba mavjud punktuatsiya qoidalarini takomillashtirish – ayrimlarini to‘ldirish, qayta ishslash, ba’zi yangi qoidalarni kiritish, ya’ni an’anaga kirgan ba’zi holatlarni qoidalashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

⁸⁹Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари / тузувчилар: Н.М.Махмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Махкамов. –Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2015. – 88 б.

Punktuatsion qoidalarga ko‘ra: sarlavhalardan so‘ng nuqta qo‘yilmasligi keltirilgan. Vaholanki, o‘zbek adabiy tili darsliklarining o‘zida har bir sarlavhadan keyin nuqta ishlatilganligini ko‘ramiz; matbuotda esa sarlavhalarda tire, ikki nuqta, ko‘pnuqta, so‘roq, undov kabi belgilarning ishlatilishini uchratish mumkin. Masalan, quyidagi misollarga diqqat qilaylik:

“*Gazeta – ommaga!;*

Axir, g‘alabaning kaliti hujum-da! (“*Toshkent haqiqati*”)

Muz – to ‘shagim bo ‘ldi. (*Uyg‘un*)

Sening g‘oyang – g‘oyamizdir, sening so‘zing – so‘zimiz. (*Uyg‘un*)”

Yuqorida keltirilgan gaplarda ta’kidlangan egadan so‘ng tire ishlatilgan. Tireni bunday va shunga o‘xhash boshqa funksiyalarda qo‘llash odat tusiga kirib bormoqda, chunki tirening hozirgi yozuvimizda qo‘llanish doirasi va vazifasi juda kengaygan: u, yozuvda o‘n olti xil asosiy funksiyani bajaradi. Shunga ko‘ra, “Ega bilan ot kesim orasiga tire qo‘yiladi. Bunda kesim bosh kelishik formasida bo‘lib, bog‘lamalar ishlatilmaydi”⁹⁰ degan mavjud qoidani yuqoridagi misollarga tatbiq etib bo‘lmaydi. Chunki bu gaplarda struktura, intonatsiya, grammatik holat va nutq vaziyati o‘zgachadir. Qiyoqlang:

“*Salim ham talaba./Salim is a student.*” – Ushbu gapda ot kesim bosh kelishik shaklida, bog‘lama ishlatilmagan. Lekin ega va kesim orasida tire qo‘llanmagan, chunki orada “ham” so‘zi bor. Ko‘rinadiki, yuqoridagi qoida ham dalillarni sinchiklab o‘rganish asosida to‘ldirilishi lozim.

Shuni ham aytish kerakki, har qanday me’yor, har qanday qoida nisbiy tabiatga ega bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib boradi: qayta ko‘riladi, takomillashadi, eskilari o‘rniga yangilari vujudga keladi. Shuning uchun eski qoidalarga mahkam yopishib olib, “bunday o‘rinlarda tirening ishlatilishi noto‘g‘ri, normaga mos emas” deyish masalaga biryoqlama yondashuv, til taraqqiyoti, davr talabini tushunmaslikka olib boradi. Ba’zan bir turdagি hodisalarni ifodalashda tinish belgilari har xil ishlatilmoqda. Masalan, dramatik asarlarda gaplar quyidagicha yozilayotganini uchratishimiz mumkin:

⁹⁰ Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи. 1965. – Б. 31.

- a) *personaj nomidan so 'ng nuqta va tire qo 'yish;*
- b) *personaj nomidan so 'ng ikki nuqta va tire qo 'yish;*
- v) *personaj nomidan so 'ng faqat tire qo 'yish;*
- g) *personaj nomidan so 'ng faqat nuqta qo 'yish.*

Punktuatsion belgi sifatida yana qanday vazifadagi shakllar tanilishi lozimligi S.I.Abakumovning quyidagi mulohazalari orqali ko'rsatiladi: "U (punktuatsiya – X.G'.) ko'pgina qo'lyozmalarda mutlaqo qo'llanilmagan, ayrimlarida esa faqat bitta katta nuqta ishlatilgan. Ba'zan nuqtalar o'rnida "she'rlar" sistemasi qo'llangan, har bir katta "period" (fikrni mufassal ravishda kengaytirib ifodalangan bir necha sodda va qo'shma gaplar tizmasi) xat boshidan bosh harf bilan boshlangan, kichikroq period esa so'zlar o'rtasida ochiq joy qoldirish bilan ajratilgan va ular ham bosh harf bilan yozilgan"⁹¹.

Tizimli-struktur yondashuv asosida punktuatsion belgilarning ekspressiv ma'no ifodasi tasniflanadi. Shuningdek, ushbu tasniflash jarayoni punktuatsion prinsiplarga aniqlik kiritilishini taqozo etadi.

N.N.Barulina tilning kommunikativ aspektiga asoslangan holda rus tilida mavjud bo'lgan tinish belgilarining asosiy tamoyillarini belgilab berdi⁹².

Ta'kidlash joizki, zamonaviy punktuatsiya qadimdan ma'lum bir belgilar tizimi sifatida shakllanib ulgurgan bo'lib, maqsadga muvofiq tarzda yetarlicha mukammal va moslashuvchan xususiyatni o'zida namoyon etadi. Tinish belgilari o'z vazifalari va spetsifik xususiyatlari jihatidan yozuvning boshqa vositalaridan (masalan: raqamlar, harflar, ayrim ilmiy belgilar, transkripsion va diakritik belgilar va boshqalardan) alohida ajralib turadi. Tinish belgisi bo'lishi uchun:

- a) *ijtimoiy-sotsial funksiyani bajarishi;*
- b) *vazifasi gapning semantik-grammatik jihatni bilan bog'liq bo'lishi;*
- v) *qo'llanishi grammatik (ko'proq sintaktik) qonuniyatga asoslanishi;*
- g) *o'z grafik shakliga, o'z qo'llanish sistemasiga ega bo'lishi lozim.*

⁹¹ Абакумов С.И. Методика пунктуации. – М.: Учпедгиз, 2011. – С.149.

⁹² Барулина Н.Н. Принципы современной русской пунктуации с учетом коммуникативного аспекта языка: Дис. ... канд. филол. наук. – Л., 2017– 143 с.

Tinish belgilarining tizimliligi, avvalambor, tamoyillarining o‘zaro ta’siri hamda ifodalanishiga oid yagona qoidaga bo‘ysunishida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, tizimlilik nafaqat bo‘laklarning mavjudligi va ularning majmuida, balki ularning o‘zaro ta’sirida, barqarorligida namoyon bo‘ladi. Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Tinish belgilari yozma matnning barcha shakllarida ishlataladi:

“*Hurry!*”; “*Bahor!*” kabi bitta leksemadan iborat gaplardan boshlab;

“*Claire passed the test with flying colours; Laura failed.*”;

“*El yasharmas, yer ko ‘karmas, bo ‘lmasa ko ‘k tomchisi; qaydan olsin she’rni shoir, bo ‘lmasa ilhomchisi?*” (A.To‘qay) kabi murakkab gaplar tarkibida ham qo‘llanaveradi. Tinish belgilari yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (Masalan, leksik, morfologik vositalar, harflar yoki diakritik belgilar) bilan ifodalash mumkin bo‘lмаган томонларини аниқ belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning tushunilishini osonlashtirish uchun qo‘llaniladi.

Tilning barcha tizimlari singari tinish belgilari ham noaniq hamda turli me’yorlarga muvofiqligi sababli, qolaversa, ko‘plab tilshunoslarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlagan holda B.S.Shvarskopf punktuatsiyani uchta aspektga asosan izohlashni taklif etadi⁹³. An’anaga ko‘ra, tinish belgilarining asosiy tamoyillari orasida quyidagilar alohida tilga olinadi:

- a) *tarkibiy*;
- b) *mazmun*;
- v) *ohangga ko ‘ra*⁹⁴.

Struktur tamoyil gapning tarkibiy, ya’ni sintaktik tuzilishiga muvofiq tarzda tinish belgilarining ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Izohi keltirilgan ushbu tamoyilga muvofiq, odatda tugallanmagan gapdagi ega va kesim o‘rtasida yoki murakkab gaplarda tinish belgilarining qo‘llash jarayoni bilan kechadi.

⁹³ Шварцкопф Б.С. Пунктуационная стилистика и ее приемы // Координационное совещание: Статус стилистики в современном языкоznании. 13-17 ноября 2002. Тезисы докладов. – Пермь, 2002. – С.208.

⁹⁴ Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации: Учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 2004 – 259 с.

Tarkibiy tamoyil asosida ifodalangan tinish belgilari zamonaviy punktuatsion tizimning poydevorini tashkil etib, ularning qo'llanishi so'zsiz gap mazmunidagi barqarorlikni ta'minlaydi. Bu kabi belgilar matnni ma'noviy bo'laklarga ajratib, ularning o'zaro uzviyligini ta'minlabgina qolmay, bir fikrning tugallanishi-yu, boshqasining boshlanishini ko'rsatadi. Ular turli maqsadlarni ifodalashga yo'naltirilgan gaplarda, jumladan, rasmiy hujjatlarda, ilmiy risolada, badiiy asarda va publisistik nutqda qo'llaniladi.

Tarkibiy va ma'noviy punktuatsion tamoyillarga xos tarzda shakl va mazmun o'rtasida uzviy bog'liqlik paydo bo'ladi. "Unga muvofiq mazmun ifodasi ma'lum bir sintaktik shakl yoki aksincha grammatik struktura idrok etilishi nazarda tutilgan ma'noni ifodalaydi"⁹⁵. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi ingliz tilidagi gaplarda bo'laklarga ajratilishini kuzatamiz:

"The fire, although it had been burning for several days, was still blazing fiercely."

"You should, indeed you must, report this matter to the police."

Har ikkala gapda belgilab ko'rsatilgan ergashgan gap bo'laklari struktur tamoyilga asosan vergul yordamida ajratilgan bo'lib, mazmun ifodasi nuqtayi nazaridan maqsadni belgilovchi ish-harakatni anglatadi.

Shuningdek, maqsadni ifodalashda ikki prinsipning, ya'ni tarkibiy-semantik yoki semantik-strukturning ta'sirini kuzatishimiz mumkin.

Binobarin, matnning struktur, ya'ni sintaktik bo'linishi mantiq va mazmunga muvofiq amalga oshiriladi. Negaki, tarkibiy mazmunga ega qismlar gapdag'i boshqa ma'noviy hamda mantiqiy bo'laklar bilan mos kelib mazmunni ifodalashga xizmat qiladi.

Biroq tinish belgilarining qo'llanilishiga oid tamoyillarni tarkib va tizim jihatdan tavsiflashda cheklab bo'lmaydi, chunki har bir jumla yoki gap doimo ohang vositasida ifoda etiladi. Shu sababli og'zaki nutqda punktuatsiya belgilari ohang orqali namoyon bo'ladi. Masalan, gap oxirida qo'llanilgan nuqta tarkibiy

⁹⁵ Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.К., Абузалова М.К. Хозирги ўзбек адабий тили. Ўкув кўлланма. – Тошкент, 2009. – Б.46

ahamiyatga ega bo'lib, gapning tugallanganligini anglatsa, mazmunan tugal fikrni ifodalab, har ikkalasi ham ohangning pasayishiga ishora qiladi. Aynan shu misol vositasida yana bir qoidani hukm etish mumkin. Ya'nikim ohangga (keyingi o'rinlarda: intonatsiya) oid tamoyil zamonaviy punktuatsion prinsip sifatida ushbu sohaga oid tamoyillarga hamrohlik qilib, kontekstual mezonga bo'ysunganligi sababli, ayrim hollarda me'yordan chekinish holatlari kuzatiladi.

Xulosa o'rnida keltirish mumkinki, punktuatsiya belgilari, keng ma'noda, yozuv orqali fikrning ochiq, aniq bayon etilishiga va matnning oson, to'g'ri o'qilishi ham uqilishiga, o'qilishdagi emotsiyal holatlarning ifodalanishiga yordam beruvchi vositalardir. Ular yozuvning ajralmas bo'lagidir. Ana shu belgilar qo'lyozma va nashriy matnlardagi harflardan, orfografik (*yozuvda urg'u, atoqli otlik nishonasi singari*) belgilardan, nasriy yozuv ustunlari orasidagi tik chiziqlardan, maxsus bezaklardan boshqa shakllarni o'z ichiga oladi. Anglashiladiki, punktuatsiya yozuvning, yuqorida zikr etilganidek, bir vositasidir. Shuning uchun punktuatsiyaning taraqqiyot yo'li ham barcha xalqlarning o'tmishidan hozirgacha bo'lgan davr davomida qo'llangan yozuvlari tarkibidagi hodisa sifatida qaralmog'i lozim.

Demak, punktuatsion nuqtayi nazardan struktur tamoyil asosiy prinsip hisoblanib, qoidalarning deyarli ko'p qismi unga muvofiq tarzda ifodalanadi. Tinish belgilarini belgilash nuqtayi nazaridan esa yetakchi tamoyil ma'noviy hisoblanib, har qanday gapni ifodalash maqsadini uning mazmunini tashkil etadi.

1.3.§. Pragmatik ma'noni ifodalashda punktuatsion belgilarning ahamiyati

Tinish belgilari yozma nutqni ifodali, mantiqan to'g'ri bayon qilishda, uni ixchamlashtirishda, yozma matn qismlarining o'zaro mantiqiy-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vositalar sifatida ishlatiladi. Yozma matnning mazmuni, ma'no tuslari, sintaktik qismlari (tarkibi) orasidagi semantik va grammatik munosabatlarni aniqlashda tinish belgilarining o'rni beqiyosdir. Punktuatsiya, bir tomonidan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali

bayon eta olish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, kitobxonga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi, ya’ni bir tinish belgisi yozuvchi tomonidan qanday ma’no va vazifada qo‘llangan bo‘lsa, mazkur tinish belgisi kitobxon tomonidan ham xuddi shunday vazifada tushuniladi.

Ingliz va o‘zbek tillari punktuatsiya tizimi juda murakkab va serqirra qo‘llanilish ko‘lamiga egadir. Til sathlarida uning turli aspektlari o‘rganilgan bo‘lishiga qaramasdan hanuzgacha matn mazmunini anglashda muammolar mavjud. Garchi tinish belgilarining yozuvchilar tomonidan har xil ma’nolarni ifodalashda muhim bo‘lgan jihatlari kuzatib kelinayotgan bo‘lsa-da, stilistik hamda pragmalingvistik aspektlari, jumladan, punktuatsion belgilarning stilistik imkoniyatlari, ifodalanishiga ko‘ra pragmatik xususiyatlari tilshunoslar tomonidan yetarlicha tadqiq etilmagan.

“Tizimga solingan tinish belgilari majmuining o‘ziga xos jihatlaridan tashqari, u bir qator ekspressivlikni ifodalovchi lingvostilistik imkoniyatlarni ham mujassamlashtirgan”⁹⁶. Binobarin, ekspressivlikni namoyon etuvchi tinish belgilari ifodalilikning sintaktik jihatlari bilan mos kelmasligi tilning punktuatsion tizimi o‘ziga xosligidan darak beradi.

Tinish belgilarining tizimlashuvi ularning yozma matnda grafik joylashuvini taqozo etuvchi vazifalariga asoslanadi⁹⁷. Shu tariqa punktuatsiya belgilari tizimi gap oxiri va o‘rtasida qo‘llanilgan tinish belgilarining zidlashuvi asosida shakllanadi.

Tinish belgilari tizimining bu kabi zidlanishni tashkil etishi punktuatsiyaning ekspressiv ma’no ifodalashda qo‘llanishini taqozo etsa, boshqa tizimlar majmui ushbu sistemaning buzilishiga olib keladi.

Badiiy yoki publisistik matnda tizimli tinish belgilarining qoidalarga zid tarzda qo‘llanilishi ekspressivlikni ifodalovchi natijasiga asoslanadi. Shuningdek,

⁹⁶ Шварцкопф Б.С. Современная русская пунктуация: система и ее функционирование. – М., 2002. – С.190.

⁹⁷ Пеньковский А.Б., Шварцкопф Б.С. Опыт описания русской пунктуации как функциональной системы // Современная русская пунктуация. – М., 2016. – С.192.; Шварцкопф Б.С. О параметрах кодификации пунктуационной нормы // Язык: система и функционирование. – М., 2002. – С.190.

ekspressivlikni ifodalovchi punktuatsiya tushunchasini yoritishda, tinish belgilarini ekspressiv ma’no aks ettiruvchi birliklar sifatida ko‘rib chiqish vositasida namoyon etish mumkin. Ta’kidlash joizki, tinish belgilarining muallif tomonidan o‘ziga xos tarzda qo‘llanilishi uning ma’lum bir uslubi yoki stili bilan bog‘liq bo‘lib, yozuvchiga o‘z uslubini punktuatsion belgilar vositasida namoyon etishga ko‘maklashadi.

Ma’lumki, “stil” tushunchasining o‘zi punktuatsion birliklarni yozma matnda qo‘llash me’yoriga nomuvofiqligini ko‘rsatadi. Tinish belgilarining ekspressivlikdan farqli o‘laroq, me’yoriy jihatdan qo‘llanilishi uning tizimini ta’minlab, punktuatsiyaning tizimli-tarkibiy vositalari hamda punktuatsion holatlarning o‘zaro muvofiqligiga asoslanadi.

“Punktuatsion belgilarning me’yorga muvofiq qo‘llanishi tabiiy holatda yuz beradi”⁹⁸. Stil esa idrok etish nuqtayi nazaridan “doimiy qo‘llash” tushunchasiga yaqin bo‘lgan Praga tilshunoslik maktabining “e’tiborni jalb etuvchi, g‘ayriixtiyoriy qo‘llanishdan mosuvo bo‘lgan o‘zgacha til birliklaridan foydalanish konsepsiyasiga asoslangan”⁹⁹. Til birliklarining bu kabi qo‘llanishi punktuatsion belgilarning ekpressiv xususiyatlarining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Ekpressivlikni ifodalovchi punktuatsion belgilardan foydalanish yozma nutqda ifodalilikning yaratilishiga olib keladi. Shuningdek, unda tinish belgilarining majmuaviy qolipi matnning turli janrlarida keng muallif ommasi tomonidan foydalaniladi.

Tinish belgilarining ekspressivlikni ifodalash maqsadida ishlatilish usullari zamonaviy punktuatsion badiiy-publisistik uzus tarkibiga kirgan bo‘lib, usul vositasida tinish belgilari yoki uning qolipiga mos tarzda kitobxonga ta’sir qilish maqsadidan iborat.

Ekspressivlikni ifodalash maqsadida tinish belgilaridan foydalanish usuli quyidagi holatlardan tubdan farq qiladi¹⁰⁰:

⁹⁸ Леонтьев А.А. Слово в речевой деятельности. – М., 2012. – С.245

⁹⁹ Гавранек Б. Задачи литературного языка и его культура // Пражский лингвистический кружок. – М., 2012. – С. 338.

¹⁰⁰ Дзякович Е.В. Стилистический аспект современной пунктуации: Экспрессив. пунктуац. приемы: Дисс. ... кан. филол. наук. – Москва, 1995. – С.65

1) o‘zaro tizimli bog‘langan, kodifikatsiyalangan qoidalar va tinish belgilarini ekspressivlikni ifodalash maqsadida tarkibiga muvofiq qo‘llash xususida ma’lumotnama, shuningdek, boshqa hollarda qo‘llash me’yoridan;

2) matndagi gapga ma’noviy urg‘u berish maqsadida kommunikativ jihatdan bo‘laklarga ajratishdan;

3) yakka tarzda muallifning badiiy yoki publisistik matnda ekspressiv ma’no ifodalash maqsadida tinish belgilaridan foydalanishi kabi jihatlar inobatga olinishi zarur.

Yozma nutqda u yoki bu tinish belgisining qo‘llanishi ma’lum bir tizimga asoslanib, bu tizim, avvalo, ingliz va o‘zbek tillaridagi gap qurilishiga bog‘liq holda belgilanadi. Chunki “butun til qurilishining mohiyati gapdadir”¹⁰¹.

Tinish belgilarining ekspressiv ma’no ifodalash usuli ayrim hollarda punktuatsion me’yorga xos bo‘lmagan nuqtayi nazarga tayanadi. Bunday hollarda gapning yakunlanganligidan darak beruvchi oxirida qo‘llanilgan belgi gap o‘rtasida yoki aksincha bo‘lishi yoki matnda ishtirok etgan gap bo‘laklariga ajratuvchi belgi yordamida mazmuniga ko‘ra og‘zaki nutq muhitiga zidlash orqali mutloq aksincha ma’no berishi va ifoda etilishi mumkin.

Ma’lumki, gapning bo‘laklarga ajratilishi punktuatsion belgilarning ekspressiv ma’no ifodalashga muvofiqlashgan me’yoriga mutanosibdir. Ekspressiv ma’no ifodalovchi tinish belgilaridan foydalanish usuli gapdagi intonatsiya va ma’no jihatdan yaxlit bo‘lgan bir necha so‘zdan iborat sintaktik birliklar “(sintagmatik) zanjiri”¹⁰²ning buzilishi asosida matn yaratiladi. Shu sababli ekspressiv ma’no ifodalovchi punktuatsion belgilarni qo‘llash usuli kodifikatsiyalashga zarurat tug‘dirmaydi. Aksincha, ularga xos bo‘lgan qoidalarning ayrimlari zamонавиу me’yor tizimida o‘z aksini topgan bo‘lib, jumladan, so‘roq va undov gaplarni ekspressivlikka xos tarzda bo‘laklarga ajratish

¹⁰¹ Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – Л., 2011. – С.620

¹⁰² Арутюнова Н.Д. О синтаксических типах художественной прозы // Общее и романское языкознание. – М., 2011. – С. 383.; Арутюнова Н.Д. О синтаксических разновидностях прозы // Сборник научн. трудов МГПИИ им. М.Тореза. Вып. – М., 2002. – С.252.

misol bo‘la oladi. Ta’kidlash kerakki, ekpressiv punktuatsion belgilarning o‘ziga xos jihatni, badiiy yoki publisistik matnda birovning fikrini ifodalashdan iboratdir.

Ingliz va o‘zbek tillarining grammatik qurilishi ushbu tillar punktuatsiyasining mantiqiy-grammatik negizi sanaladi. Demak, tinish belgilarining yozma nutq jarayonida ishlatalishi o‘z ilmiy-nazariy va ijtimoiy-amaliy asosiga ega. Punktuatsiya – yozuv oynasi bo‘lib, tinish belgilari yozma nutqdagi maqsadni aniq ifodalash, uning tushunilishini osonlashtirish uchun qo‘llanadi. Ular yozma nutqning mazmunan, grammatik, ohangdorlik munosabatlarini, sintaktik bo‘linishini belgilovchi, stilistik ravonligini ta’minlovchi va ko‘rsatuvchi vositadir. Shuningdek, tinish belgilari gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi, tuzilish tabiatini, emotsiyal xususiyatlari kabi tomonlarini belgilashda juda katta ahamiyatga ega. Yozuvning moddiy birligi hisoblangan tinish belgilari avval boshdanoq nutqning mantiqiy va grammatik tomonlari bilan bog‘liq holda qo‘llangan. Tinish belgilarining inson fikr-tuyg‘ularini ifodalovchi vositalardan biri sifatida qo‘llanishi uning tizimlashuvini va barqarorligini ta’minlagan.

Ma’lumki, lingvostilistikaning asosiy tushunchalaridan biri, adabiy tilning ekspressiv sintaktik hodisalarini o‘rganishda va tinish belgilarining ekspressiv xususiyatini aniqlashda tahlil uchun muhim sanalgan tushuncha ekspressivlikdir (keyingi o‘rinlarda: ifodalilik).

Ekspressivlik leksemasi izohli lug‘atlarda turlicha talqinga ega. Sanoqli tilshunoslar ham, jumladan, Y.M.Galkina-Fedoruk, V.V.Vinogradov, G.A.Zolotova, G.N.Akimova, V.N.Teliyalar¹⁰³ tomonidan ifodalilik tushunchasi xususidagi qarashlarining bir xillikni kasb etmaganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

¹⁰³ Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке // Сборник статей по языкознанию. – М., 2013. – С. 272.; Виноградов В.В. Стиль “Пиковой дамы” // О языке художественной прозы. – М., 1980. – С. 176-239.; Золотова Г.А. О перспективах синтаксических исследований // АН СССР. Серия яз. и лит. Т.45. №6. – М., 2005. – С. 350.; Акимова Г.Н. Новое в синтаксисе современного русского языка. – М., 1990.; Телия В.Н. Экспрессивность как проявление субъективного фактора в языке и ее прагматические ориентации // Человеческий фактор в языке. Языковые механизмы экспрессивности. – М., 1991. – С.5-36.

Kuzatuvlar natijasini umumlashtirganda ta'kidlash joizki, “ekspressivlik kategoriysi so‘zlovchining adresatga yoki nutq mazmuniga bo‘lgan munosabatini subyektiv ifodalash vositasi sifatida muloqot jarayonida qo‘llash ko‘lамини ta’minlovchi til birliklarining semantik-stistik belgilari majmuidir. Til ekspressiv birliklarining amalda tatbiq etilishi natijasida, “nutqda ekspressiya (ifoda), ya’ni so‘zlovchining ruhiy holatini ifodalash imkoniyati yaratiladi”¹⁰⁴.

Ushbu tavsifdan anglashiladiki, ekspressiv vositalarni til sohasiga, ruhiy holatdan voqif bo‘lish imkoniyatini yaratuvchi – ifodalilikni esa nutq doirasiga kiritish mumkin.

Ifodalilikni nutqiy kategoriyalarga nisbat berish an’anasi Sh.Balli qarashlaridan kelib chiqib, aqliydan farqli ravishda ekspressivlik ta’sir etish doirasiga teng bo‘lgan nutqqa mansubligini ta’kidlaydi¹⁰⁵. Bunday farqlash ekspressiv tinish belgilariga oid hodisalarning mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda badiiy matn tahlili jarayonida ifodalilik va emotsiyonallik kategoriyalari chalkashtirilib, alohida va bir-biriga o‘xhash bo‘lmagan tushunchalar, ya’ni Y.M.Galkinoy-Fedoruk ta’kidlaganidek, “tilda namoyon bo‘lgan hissiyot doim ifodalilikni kasb etadi, biroq tilda aks etgan ifodalilik esa doimo emotsiional bo‘lavermaydi”¹⁰⁶. Binobarin, “ifodalilik” tushunchasi “hissiyot”ga nisbatan kengdir.

G.N.Akimova tomonidan ham “hissiyot” va “ekspressivlik” leksemalari bir-biridan ajratilgan holda tadqiq etilib, “hissiyotning beqarorligi, beixtiyorligi, uning inson ichki kechinmalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatsa, ekspressivlik esa ta’sir qilish vositasi sifatida nutq jarayonida so‘zlovchi maqsadiga muvofiq tarzda til birliklaridan foydalanadi”¹⁰⁷. Demak, til vositalari orqali inson ichki kechinmalarini nutqda ifodalashda punktuatsiya katta ahamiyatga ega.

¹⁰⁴ Гридин В.Н. Экспрессивность // Лингвистический энциклопедический словарь. –М., 1990. –С. 591.

¹⁰⁵ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955. – С43.

¹⁰⁶ Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке // Сборник статей по языкознанию. – М., 2013. – С.272.

¹⁰⁷ Акимова Г.Н. Новое в синтаксисе современного русского языка. – М., 1990.

Hozirgi kunga kelib, badiiy asar mazmunini talqin etishda va uni yaratishda tinish belgilarining o‘rni beqiyosdir¹⁰⁸. Tilshunoslarning e’tirof etishicha, punktuatsiya semasiologiya tizimining maxsus bo‘limi bo‘lib, yozma matn yaratishda yozuvchining ko‘rinmas, biroq tig‘i qalamdan o‘tkir quroliga aylanadi.

Tinish belgilari, nafaqat yozma matnning sintaktik va semantik tizimini tashkil etish uchun xizmat qiladi, balki “g‘oyaning mavjudligi va unda ifoda etilgan munosabat haqida ma’lumot beradi”¹⁰⁹.

Demak, ular ma’lumot yetkazuvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘lib, bu kabi xususiyati orqali muallifning ishtiroki tinish belgilaridan mohirona foydalanish qobiliyati aniq aks etadi.

Shuningdek, “tinish belgilari yordamida badiiy matn ohangidan tashqari unda ifoda etgan imo-ishora, harakatlarni ham ko‘rsatib beradi”¹¹⁰. Bundan tashqari, yozma matnda nutq tovushlarining o‘sishini ko‘rsatish bilan birga, nutq vaznining tuzilishi va muallif ohangining hissiy baholovchi jihatlarini aniqlab beradi. Aynan, shu sababli, tinish belgilari matn yaratuvchi bo‘libgina qolmay, mazmunan ekspressiv tomonini ham ifodalovchi vositadir¹¹¹.

Yozuvning moddiy vositasi hisoblangan tinish belgilari avval boshdanoq nutqning mantiqiy va grammatik tomonlari bilan bog‘liq holda qo‘llangan. Tinish belgilarining inson fikr-tuyg‘ularini ifodalovchi vositalardan biri sifatida qo‘llanishi uning tizimlashuvi va barqarorligini ta’minlaydi. Shu o‘rinda, ingliz yozuvchisi Edgar Allen Poening “The Tell-Tale Heart” nomli hikoyasida tinish belgilarining qo‘llanganligini tahlilga tortganda, uning bu boradagi bilimi tahsinga loyiq.

¹⁰⁸ Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. – М.: Рокос, 2004. – 208 с.; Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М.: Высшая школа, 2004. – 259 с.; Гришко Ф.Т. Возможное варьирование знаков препинания // Русский язык в школе. 2006. – №5. – С. 174.; Канафьева А.В. Функции авторской пунктуации в художественном тексте: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 2000. – 121 с.; Сафонова И.П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой: Дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – 247 с.

¹⁰⁹ Мельничук О.А. Повествование от первого лица. Интерпретация текста. – М.: МГУ, 2002. – С.185

¹¹⁰ Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. – М.: Рокос, 2004. – 208с.

¹¹¹ Яхнович Н.И. Пунктуация как средство ритмико-стилистической организации текста: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1991. – 183 с.

Edgar Allen Poening “The Tell-Tale Heart” nomli hikoyasida tasvirlangan o‘ziga past nazar bilan qaraydigan, shuningdek, kitobxonning g‘azabini qo‘zg‘atuvchi, yuraklarni junbushga keltiruvchi g‘ayrioddiy ta’sirga ega ifoda aynan nima vositasida namoyon bo‘lishi barcha tilshunoslarni qiziqtirib qo‘ygan. Ular Edgar Allan Poening hikoyasi matnining sintaktik qurilishidan ko‘ra ta’sirchanligini oshirgan vosita aynan tinish belgilari ekanligi aniqlashdi. Edgar Allen Poe qudratli va sehrli kuchga ega so‘zlardan-da muhim bo‘lgan tinish belgilaridan mohirona foydalanganligi punktuatsiyaning so‘zlardan ustunligini ko‘rsatadi. Asar syujeti va motivning mavhumligidan tortib, hikoya qiluvchining jinsi yoki jabrlanuvchiga bo‘lgan munosabatiga mantiqiy asos va izohlarning mavjud emasligi kitobxonning butun diqqatini hikoya yakunida kutiladigan uning taassurotiga, idrokiga qaratadi. Shuningdek, tinish belgilari vositasida muallif kitobxонни yolg‘izlikka yetaklab, o‘zining olamida uni toabad qolishga undaydi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida Edgar Allen Poening “The Tell-Tale Heart” nomli hikoyasidan keltirilgan quyidagi matnni tahlil qilib ko‘raylik:

“I gasped for breath – and yet the officers heard it not. I talked more quickly – more vehemently; but the noise steadily increased. I arose and argued about trifles, in a high key and with violent gesticulations; but the noise steadily increased. Why would they not be gone? I paced the floor to and fro with heavy strides, as if excited to fury by the observations of the men – but the noise steadily increased. Oh God! what could I do? I foamed – I raved – I swore! I swung the chair upon which I had been sitting, and grated it upon the boards, but the noise arose over all and continually increased. It grew louder – louder – louder! And still the men chatted pleasantly, and smiled. Was it possible they heard not? Almighty God! – no, no! They heard! – they suspected! – they knew! – they were making a mockery of my horror! – this, I thought, and this I think.”¹¹²

Matnda keltirilgan “this, I thought, and this I think” jumlalari tartibsiz tarzda vergul bilan ajratilgan va shu asnoda mantiqiy uzviylikni bo‘rttirib ko‘rsatishga

¹¹² Poe Edgar Allen. “The Tell-Tale Heart.” In The Fall of the House of Usher and Other Writings. Harmondsworth: Penguin, 2003, P.228–233

harakat qilish hamda obraz jazavasining takroriyligini, aksincha, buzib ko'rsatishga xizmat qilgan. Muallif nutqida anoforaning qo'llanilishi qanchalik darajada voqelikning ketma-ketligini ko'rsatib, tasavvurimizni ostin-ustun qilib, idrok oynasini xira torttiradi va bu bilan personajning sarosimadagi xayollari hamda keragidan ortiq keltirilgan takrorlar vositasida sintaksisning qo'pol buzilishi kitobxonni tubsiz xayol domiga tortadi. Tiredan tortib, undov belgisi-yu, o'rinsiz so'roq belgilarining, hattoki ayrim hollarda katta harflarning besamar ishlatilishi personajning emotsiyonal (hissiy) qo'rquvini ko'rsatib va ayni damda kitobxonning mutolaa qilayotganini esiga soladi. Shuningdek, vasvasaning darajama-daraja ifodalanishini baholash maqsadida matnning tarkibini o'zgarishsiz qoldirgan holda tinish belgilari olib tashlansa, unda ifodalangan bo'yoqdorlik o'z mazmunini yo'qotadi.

Bundan tashqari tinish belgilarini tartibga soluvchi ma'lum bir me'yор Poening hikoyasida ifodalanganda, uning qoidalariga xos ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Muallif kitobxonni punktuatsiyaning mavjud qoidalaridan tashqariga, ya'ni o'zining me'yoriga muvofiq holda hikoyani talqin etishga undaydi.

Muxtasar qilib aytganda, Edgar Poening tinish belgilaridan tashqari, hikoyasining eng ahamiyatli jihatni muallifning ichki ovozini kitobxonga eshittira bilishidadir. Shu asnoda, ataylab tinish belgilarining, jumladan, tirening takror va takror qo'llanilishi, undov belgisini o'rinsiz ifodalishi personajning ichki tuyg'ularini so'zlarda emas, balki belgilar orqali ko'rsatishga harakat qilgan.

Keyingi o'zbek badiiy matnidan keltirilgan gaplarda tinish belgilarining qo'llanilishini kuzatamiz:

Men sizning foydangizni o'ylayman. Arava kishinikimi? Qovunni tushirib olaman shu yerda. Anov yerda usta Toshpo 'lat bor, bilarsiz. Arava ishida farang! Qovunning puliga aravani tuzattirasiz. Egasi xafa bo'lmaydi. (O.)

Matn mantiqiy-grammatik jihatdan mukammal shakllangan yetti mustaqil qismga bo'lingan – yetti gapga ajratilgan. Buni shu misolda ishlatilgan nuqtalar, so'roq va undov belgisidan aniq bilamiz. Matndagi so'roq, undov belgisi va

nuqtalar, qismlarning tugallanishini ko‘rsatish bilan birga, shu qismlardagi ifoda maqsadi va emotsiyal jihatlarini ham anglatadi. Demak, matndagi so‘roq, undov belgisi va nuqtalar ikki asosiy vazifani bajaradi: a) gapning mantiqiy-grammatik tugallanishini; b) shu gapdan kuzatilgan maqsad va undagi emotsiyal holatlarni bildiradi. To‘rtinchi gapdagi vergul ham mantiqiy-grammatik vazifani bajarayotgan bo‘lsa-da, uning vazifasi so‘roq, undov va nuqtalarning vazifasidan o‘zgachadir: vergul avvalgi qismning keyingi qismdan ayrilishini ko‘rsatmoqda. Tinish belgilarning yozma nutqda qo‘llanishiga oid barcha funksiyalarni alohida-alohida ko‘rsatmay, ularga xos umumiy tomonlarni va yozma nutq jarayonida ko‘proq uchraydigan holatlarni ta’kidlash bilan cheklanamiz. Shuningdek, tinish belgilari, butun gapga xos umumiy mazmuniy munosabatlarni ifodalabgina qolmay, gap qismlariga xos semantik munosabatlarni ham bildirish xususiyatiga egadir.

Ma’lumki, tinish belgilari matnda ikkita asosiy vazifani bajaradi, jumladan, semantik va ekspressiv. Biroq belgilar ifodalilikni boshqa til vositalarisiz yarata olmaydi. “Har qanday punktuatsion belgi ekspressivlikni kasb eta oladi, qachonki, “uning asosiy ma’nosini tushunib, qo‘llash imkoniyatlari va o‘rinlarini bilgan holda maqsadga muvofiq” yo‘naltirilsa, shundagina ekspressivlikni ifodalashi mumkin”¹¹³. Ta’kidlash joizki, matnda ifodalangan tinish belgilarning tahlili jarayonida ikki jihatni inobatga olish kerak, ya’ni:

- 1) *Yozuvchining nuqtayi nazari;*
- 2) *Kitobxonning dunyoqarashi va ifodalangan matndagi tinish belgilarini to‘g‘ri tushunishi.*

Bu kabi munosabatlar tizimida tinish belgilari asosiy vosita sanalib, u orqali yozuvchi ma’lum bir ma’no va tasviriy ifodalarni jo etadi, kitobxon esa matndagi tinish belgilari orqali yozuvchi tomonidan aks ettirilgan g‘oyani anglab yetadi¹¹⁴.

¹¹³ Сафронова И.П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой: Дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – С.26

¹¹⁴ Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. – М.: Рохос, 2004. –208 с.; Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М.: Высшая школа, 2004. –259 с.; Гольцова Н.Г. “Есть нечто в стихах, что важнее их смысла: – их звучание...” (Авторская пунктуация в произведениях М. Цветаевой) // Русский язык в школе. 2001. – №3. – С. 63-67.

Ya’ni kitobxon tinish belgilari yordamida muallif tomonidan ifodalangan g‘oya maqsadini boricha tushunishi mumkin. Faqat bir holatdagina, ya’ni muallif ham, kitobxon ham ma’lum bir belgining ma’nosini teng tushunganda ushbu jarayon ro‘y beradi.

Ayrim hollarda, matnda tasviriy vositalar va ma’noga berilgan bo‘yoq punktuatsiyada muhim sanalmagan, biroq muallif nazarida asosiy hisoblangan sanoqli tinish belgilari orqali ifodalanadi. Albatta, matnda qo’llanilgan, kitobxon nazarida bir ma’noga ega bo‘lgan tinish belgilari matn mazmunining tushunilishini yengillashtirib, g‘oyani aniqlashga xizmat qiladi.

Binobarin, tinish belgilari tizimi ma’lum darajada matnning muallif maqsadiga muvofiq ohangdorligini “urg‘u, pauza, vazn kabi vositalar orqali ta’minlaydi”¹¹⁵.

L.G.Vedeninaning e’tirof etishicha, “tinish belgilaridan foydalanish qoidalari yetarli darajada tartibga solinmagan”¹¹⁶. Biroq kodifikatsiyalanmagan tinish belgilari tizimi xususida so‘z borar ekan, ushbu tizimning moslashuvchanligi va erkin ifodalanishini keltirib o‘tish joiz.

I.Y.Liskovaning izohlashicha, “punktuatsion belgilarning ikki turi bo‘lib, ularni xususiyatlariga ko‘ra “nemis” va “fransuz” deb nomlaydi, shuningdek, “nemis” – rus va o‘zbek tillarida mavjud tinish belgilarini, “fransuz” esa – ingliz va roman tillarining tinish belgilarini o‘z ichiga oladi”¹¹⁷.

Birinchi turdagи nemis punktuatsiyasi qat’iy tartibga solingan tizimni, ikkinchi – fransuzcha turi esa ancha moslashuvchan, erkin, shuningdek, ko‘plab mualliflar tomonidan doim amalda tatbiq etilib kelingan – variantdorlikni ifodalaydi. Garchi tilshunoslikda “mualliflik tinish belgilari” tushunchasi mavjud

¹¹⁵ Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. –М.: Рохос, 2004. – 208с. / С.130

¹¹⁶ Веденина Л.Г. Пунктуация французского языка. – М.: Высшая школа, 2011. – 168 с.

¹¹⁷ Лыскова И.Ю. Формирование пунктуационных систем в литературном языке (на материале немецкого XVII-XVIII вв. и французского XVI-XVIII вв языков): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ижевск, 2006. – 24 с.

bo‘lsa-da, uning har ikkala turdag'i punktuatsiyadan keng foydalanishi e'tirof etilgan¹¹⁸.

Yakka mualliflik va tinish belgilarining boshqa turlarini bir paytning o‘zida qo‘llash hissiy bo‘yoqdorlik kasb etgan nozik ma’no qirralarini yozuvda ifodalashga xizmat qilib, ularning tizimga xos jihatlariga, shuningdek, kontekstda yoritilgan sintaktik mazmun va me’yorga muvofiq ishlatilishiga asoslanadi.

Tinish belgilarining o‘ziga xos tarzda qo‘llanilishi o‘z-o‘zidan stilistikaga bog‘lanadi, chunki muallifning o‘zgacha yondashuvi tinish belgilari vositasida idrok etilishi kutilgan g‘oya va o‘zining usulini yaratishni taqozo etadi.

Garchi bu holat muallifning alohida ijod mahsuli bilan bog‘liq bo‘lsa-da, “uslub” tushunchasi tor ma’noda tushuniladi¹¹⁹. Uslub xususida so‘z yuritayotib E.M.Beregovskaya J.Sand tomonidan bildirilgan ushbu fikrni keltiradi:

“Uslub doimo til qonuniyatlariga, tinish belgilari esa – uslubiyat talablariga bo‘ysunishi kerak”¹²⁰.

Boshqacha aytganda, tinish belgilarining bu tarzda qo‘llanilishi uslubiy vositalardan biri bo‘lib, yozuvchiga o‘zining maqsadini amalga oshirishda yordam beradi. Matnni tashkil etgan gap qismlarining tinish belgilari bilan ayrilishi, ajratilishi turlicha bo‘lib, bu kabi turlilik sintaktik aloqaga, sintaktik-stilistik holatga ko‘ra belgilanadi. Masalan:

- gap boshida va oxirida kelgan kirish so‘z, undalma va undov so‘zlar bir (yakka) tinish belgisi bilan ajratiladi;
- gap o‘rtasida kelganda esa qo‘sh (ikki) tinish belgi bilan ajratiladi.

Masalan: *Nihoyat , Oyqiz Jalolovga tikilib, qat’iy fikrini aytdi. (Sharof Rashidov)*

¹¹⁸ Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. –М.: Рохос, 2004. –208 с.; Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. –М.: Высшая школа, 2004. –259 с.; Гришко Ф.Т. Возможное варьирование знаков препинания // Русский язык в школе. 2010. –№5. –С. 128.; Канафьева А.В. Функции авторской пунктуации в художественном тексте: Дис. ... канд. филол. наук. –М., 2000. –121 с.; Мельничук О.А. Повествование от первого лица. Интерпретация текста. М.: МГУ, 2002. 208 с.; Сафонова И.П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой: Дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. –247 с.

¹¹⁹ Яхнович Н.И. Пунктуация как средство ритмико-стилистической организации текста: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1991. –183 с.

¹²⁰ Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. –М.: Рохос, 2004. –С.129

Xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘lishdan ham o‘zga baxtni tasavvur qilish mumkinmi, axir?

Keltirilgan misollarda vergulning yakka va qo‘sha qo‘llanishi ularning vazifasi o‘zgacha ekanligini ko‘rsatmaydi. Bulardagi vergullar ko‘rinishda ikki xil (yakka va qo‘sh) bo‘lishiga qaramay, bitta vazifani – kirish so‘zlarning asosiy gapdan ayirishi vazifasini – bajaradi.

Aksariyat tilshunoslar muallifning o‘ziga xos tarzda tinish belgilaridan foydalangan holda o‘z uslubini yaratishi masalasini muallif belgisi, muallif punktuatsiyasi, tartibga solinmagan tinish belgilari, poetik punktuatsiya va shu kabilar bilan nomlaydi.

I.P.Safronovaning ta’kidlashicha, bu tushunchalar “muallif tafakkurining estetik jihatdan ahamiyatga ega birliklari, degan tavsifni o‘zida aks ettirib, ular yordamida ijodkorning his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalarini kitobxonga yetkazish barobarida dunyo badiiy olamining o‘ziga xos qiyofasi yaratiladi”¹²¹.

Muallif tomonidan o‘ziga xos tarzda qo‘llangan tinish belgilari filologiyada keng va tor ma’nolarni kasb etadi.

“Punktuatsiya keng ma’noda – muallif tomonidan ma’lum bir tasviriy vositalarni ifodalashga yo‘naltirilgan tinish belgilari tizimi qoidalariga nomuvofiq matnning turli janrlarida qo‘llanilishi tushuniladi. Shu bilan birga, yakka muallifning o‘ziga xos bo‘lgan aniq, izchil va tizimli ravishda amalga oshirilgan usulini tor ma’noda tushunish mumkin”¹²².

Punktuatsiyaga nisbatan yuritilgan bu kabi ikki xil qarashlar borasida biror-bir to‘xtamga kelinmagan. Zamonaviy tilshunoslikda o‘ziga xos tarzda yozuvchi tomonidan tinish belgilaridan foydalanish xususida uch xil qarashlar mavjud:

1. Muallif tomonidan tinish belgilarining belgilangan qoidalarga muvofiq tarzda matnning barcha turlarida qo‘llanilishi¹²³;

¹²¹ Сафронова И.П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой: Дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – С.22

¹²² Канафьева А.В. Функции авторской пунктуации в художественном тексте: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 2000. – 121 с.

¹²³ Сафронова И.П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой: Дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – 247 с.; Валгина Н.С. Трудные вопросы пунктуации: Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 2002. – 175 с.

2. Punktuatsiya tizimida mavjud bo‘lgan qoidalarga nomuvofiq holda tinish belgilarining tartibsiz ifodalanishi¹²⁴;

3. Matn mazmunini ifoda etishda asosiy vazifani bajaruvchi tinish belgilari¹²⁵.

N.S.Valgina “tinish belgilarining yozuvchiga xos jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xoslik bilan bog‘liqligini” e’tirof etadi¹²⁶.

Bu kabi belgilar “kontekst talablariga yoki mazmuniga bo‘ysunishi bilan emas, balki muallifning ma’lum usullarga moyilligi”¹²⁷ vositasida yuzaga keladi.

Muallifga xos bo‘lgan belgilardan foydalanish usuli yordamida nutq birliklari – dinamiklik, raxonlik, sof va tez tovushlarning talaffuzi, ya’ni muallifning ekspressivlikni ifodalash maqsadida tinish belgilaridan foydalanish usuli o‘ziga xos ohangga ega.

Muallif tomonidan punktuatsion belgilarning qo‘llanilishi tartibga solingan tinish belgilari tizimidan o‘zining muayyan ifodalangan matn mazmuni, stilistik jihat bilan uzviy bog‘langan.

Shu o‘rinda, A.V.Kanafyevaning quyidagi fikrini keltirib o‘tish joizdir, “yozuvchi qo‘llagan tinish belgilarini unga xos bo‘lgan jihatlarga tayanib tushunish mushkul bo‘lib, barcha xususiyatlari inobatga olingandagina to‘laligicha anglash mumkin”,¹²⁸.

Muallif esa bu holatni “butunlay badiiy matnga tegishli, lug‘at va grammatika bilan bir qatorda kuchli obrazli va ifodali vositalardan biri” deb hisoblaydi¹²⁹. Shu tariqa, muallif tomonidan tinish belgilarining o‘ziga xos tarzda qo‘llanish usulining ikki xil jihat mavjud. Birinchi jihat, tilshunoslar tomonidan grammatik

¹²⁴ Базжина Т.В., Крючкова Т.Ю. Авторская пунктуация // Русский язык. 2000. – №14 (230). – С. 14-16.; Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. – М.: Рохос, 2004. – 208 с.; Канафьева А.В. Функции авторской пунктуации в художественном тексте: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 2000. 121 с.; Сафонова И.П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой: Дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – 247 с.

¹²⁵ Базжина Т.В., Крючкова Т.Ю. Авторская пунктуация // Русский язык. 2000. – №14 (230). – С. 14-16.; Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. – М.: Рохос, 2004. – 208 с.; Канафьева А.В. Функции авторской пунктуации в художественном тексте: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 2000. – 121 с.; Мельничук О.А. Повествование от первого лица. Интерпретация текста. – М.: МГУ, 2002. – 208 с.

¹²⁶ Валгина Н.С. Что такое авторская пунктуация? // Русская речь. 1980. – №1. – С. 21–29.

¹²⁷ Валгина Н.С. Трудные вопросы пунктуации: Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 2002. – С.175

¹²⁸ Канафьева А.В. Функции авторской пунктуации в художественном тексте: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 2000. – С.14.

¹²⁹ Канафьева А.В. Ко‘rsatilgan manba. 2000. – В.14

me'yorning buzilishini taqozo etishi ta'kidlansa, ikkinchisi aynan me'yorga asoslangan holda qoidalarni “buzish” orqali tinish belgilarining qo'llanilish ko‘لامи yanada kengayishini e'tirof etishadi¹³⁰.

Biroq A.P.Shapironing fikriga ko‘ra, “mavjud bo‘lgan qoidalarga rioya qilmaslik uni buzish hisoblanmaydi, aksincha, badiiy asarlarda qo'llanilishini kengaytirish va teranlashtrishdir”¹³¹. Bu kabi me'yorlarning muallif tomonidan “buzilishi” qo'llanilgan tinish belgisi yordamida kitobxon kutmagan ma’noni yoritib berishida pragmatik jihatini ham ko‘rshimiz mumkin.

Ma'lumki tilshunoslikda muallifning tinish belgilaridan o‘ziga xos tarzda foydalanish usuli xususida ikki xil qarashlar mavjud:

a) punktuatsion me'yorga muvofiq qat'iy belgilangan qoidalalar majmuini muallif tomonidan qo'llaniladigan tinish belgilari tashkil etishi. Bu kabi belgilar stilistik jihatdan asoslangan bo‘lishi kerak;

b) badiiy asar mazmunini ifodalashda muallif tomonidan qo'llanilgan tinish belgisining asosiy vazifani o‘tashi. Bunday hollarda tinish belgilarining grammatik me'yorga muvofiq ifodalanishini e'tirof etish mumkin. Biroq har ikkala holatda ham tinish belgilarining qo'llanilishi muallifning maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Punktuatsion belgilarning shakllanishi bir necha bosqichdan – piktografik, ideografik hamda fonografik kabilardan iborat bo‘lib, hozirgi kundagi yozma matnda ham ularning qadimgi shakllari, jumladan, nuqta, vergul, va boshqalar qo'llaniladi. Ta'kidlash joizki, yozma nutqning muhim belgilari nafaqat nuqtali vergul, ikki nuqta, ko‘p nuqta, so‘roq va undov belgilari, tire, qo‘shtirnoq, qavs, nuqta, vergul, balki boshqa belgilarni, ya’ni *raqamlar; maxsus ilmiy belgilar* –

¹³⁰ Базжина Т.В., Крючкова Т.Ю. Авторская пунктуация // Русский язык. 2000. – №14 (230). – С. 14-16.; Береговская Э.М. Очерки по экспрессивному синтаксису. – М.: Рохос, 2004. – 208 с.; Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. – М.: Высшая школа, 2004. – 259 с.; Сафонова И.П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой: Дис. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2004. – 247 с.; Мельничук О.А. Авторская пунктуация и явление пунктуационной синонимии в произведениях современных франкоязычных авторов // Романские языки в прошлом и настоящем: Сборник статей к 80-летию Т.А.Репиной / Под ред. Т.И.Зелениной. СПб: Филологический факультет СПбГУ, 2007. – С.178-188.; Шапиро А.Б. Основы русской пунктуации. – М.: Изд-во АН СССР, 2012. – 398 с.

¹³¹Шапиро А.Б. Основы русской пунктуации. – М.: Изд-во АН СССР, 2012. – 398 с.

algebra, geometriya, kimyo, astronomiyaga oid; tinish belgilari (punktuatsiyaga tegishli); diakritik belgilar; qisman bosh harflar ham tashkil etadi.

2. Tinish belgilari ham leksik birliklarning bir tildan ikkinchisiga o'zlashgani kabi shakli va ayrim qo'llanish o'rirlari o'zlashtirilgan bo'lib, asosan, ingliz tiliga lotin, yunon tillaridan, o'zbek tiliga esa arab, rus tillaridan olingan. Shuningdek, o'zbek tilidagi matnlarda o'z ifodasini topgan tinish belgilarining qo'llangan o'rni va vazifalarini asliyatdagi tinish belgilarining o'mi va vazifalari bilan solishtirganda, yaqqol ko'rindi: ular orasida o'xshash bo'lmanlari juda kam. Bu hol tinish belgilarini qo'llashda tillar orasida mavjud umumiy tomonlar bilan ham izohlanishi mumkin va shu asosga ko'ra ta'sir ostida ekanligi g'ayritabiiy emasligini, balki o'ng'ayligini qayd etmoq o'rinali hisoblanadi.

3. Tinish belgilarining matnda ishtiroki fikrga oydinlik kirituvchi eng muhim vositalardan biri ekanligini asoslaydi. Ayrim hollarda o'rinsiz qo'llanilgan tinish belgilari matn mazmuni va maqsadini noto'g'ri anglashga sabab bo'lib, muallif maqsadini kitobxonga to'laligicha yetkazilishiga daxl qiladi. Binobarin, matnning ichki aloqalarini tashkil qilish uchun tinish belgilarining turli maqsadlarda, jumladan, badiiy ma'no ifodalash xususidagi mezonlar imkoniyati to'g'risida bilimga ega bo'lish orqali matn mazmunini to'g'ri talqin qilishni amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, matnning grafikasida aks etuvchi tinish belgilarining majmuini tashkil etishini ta'minlaydigan invariant va variantdor shakllarning imkoniyatlari matn punktuatsion belgilarining rivojlanish tendensiyalari belgilandi.

4. Tinish belgilarini san'at darajasida qo'llay bilish qobiliyatidan barcha yozuvchilar ham mosuvo emasligi tufayli, ingliz tilida yozilgan asarlar tarjimasi bilan shug'ullanayotib, tinish belgilari vositasida ifodalangan ma'noni ko'r-ko'rona angagan holda turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Demak, tinish belgilariga oid qonun-qoidalar adabiy til rivojlanishi jarayonida shakllangan me'yorlarga muvofiq holda vujudga kelgan bo'lib, har bir tinish belgisi o'z ma'nosidan tashqari, yozuvchi tomonidan ifodalangan ma'noni ham izohlashga xizmat qiladi.

5. Matn mazmunini anglash punktuatsion belgilari xususidagi bilim va ko‘nikmalarga bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu belgilar musiqa notalari singari muallif tomonidan nazarda tutilgan fikrni idrok etishda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Shuningdek, tinish belgilari nafaqat, so‘z ma’nosiga alohida urg‘u beradi, balki undagi ma’noviy hamda grammatick munosabatlar zanjirini buzib, uni tubdan o‘zgartira olishi kabi xususiyatlarni zamonaviy tinish belgilari tizimi – punktuatsiya o‘zida mujassam etadi.

6. Ingliz tilidan o‘ziga xos jihatlari bilan farqli tarzda o‘zbek punktuatsiyasi, avvalo, o‘zbekcha matn qurilishiga asoslanib, grammatick struktura punktuatsiya uchun negiz hisoblanadi. Matn tinish belgilarining qo‘llanishidagi yetakchi asos bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI PUNKTUATSIYASINING FUNKSIONAL JIHATLARINING QIYOSIY TADQIQI

2.1. § Ingliz va o'zbek tillarida gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilarining o'xshash va farqli jihatlari

Hozirgi yozuvimizda qo'llanuvchi tinish belgilarining umumiyligi miqdori o'nta bo'lib, ularning har biri o'z grafik shakliga ega; ular yozma nutqda ma'lum maqsadlar uchun ishlataladi va aniq bir vazifani bajaradi. Har bir tinish belgisi o'z funksiyasi va qo'llanish o'rniga egadir. Tinish belgilarini qo'llanish o'rni jihatidan quyidagicha guruhash mumkin:

1. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari: nuqta, so'roq va undov belgilari;
2. Gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari: vergul;
3. Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilari: 1) gap boshida va o'rtasida qo'llanuvchilar: tire; 2) gap oxirida va o'rtasida qo'llanuvchilar: ikki nuqta va nuqtali vergul; 3) gap boshida, o'rtasida va oxirida qo'llanuvchilar: qo'shtirnoq, qavs va ko'p nuqta¹³².

Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillarida gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilarini nuqta, so'roq va undov belgilari tashkil etib, turli tizimli tillarda ularning qo'llanish o'rnlari bir-biridan farq qiladi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida ingliz tilida nuqtaning qo'llanish holatlarini tahlilga tortamiz.

1) Ingliz tilida nuqta variantlarga qarab farqlanadi, ya'ni *full stop* – Britaniya varianti; *period* – Amerika variantida qo'llanilib, boshqa tillardagi kabi tugal fikrni bildirib, gapning turidan qat'i nazar oxirida keladi. Masalan:

- “*I run three miles every morning.*” (declarative sentence)
- “*I could study better if you turned down the music.*” (conditional sentence)
- “*Please start the car.*” (imperative sentence).
- “*Water is important for everyone.*”
- “*I looked out of the window.*”
- “*It was snowing again.*”

¹³² Тураева Д.М. Умумий ва хусусий пунктуацион мөъёларга доир //Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 6.

– “I know that you would never break my trust intentionally”

O‘zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda darak gaplar oxirida nuqta qo‘llanilib, fikrning tugallanganligini anglatadi. Ma’lumki, darak gaplardan xabar ma’nosi ifodalanadi, voqeа, hodisa ta’kidlanadi. Shuningdek, ulardan iltimos, nasihat, orzu-istik, gumon, qat’iylik kabi ma’no bo‘yoqlari ham anglashiladi. “Darak gaplar tinch ohang, pasayuvchi intonatsiyaga ega bo‘lib, intonatsiya, ayniqsa, oxirgi bo‘lakda (oxirgi so‘zning oxirgi bo‘g‘inida) juda pasayadi”¹³³. Bu nuqta intonatsiyasi hisoblanadi.

Oxiriga nuqta qo‘yilgan darak gaplar struktura jihatdan sodda, murakkab, qo‘shma, bir bo‘lakli va ikki bo‘lakli, to‘liq va to‘liqsiz gap shakllarida bo‘ladi. Masalan:

– *Hozir men Toshkentdaman.*

– *Yodgor o‘z yonimda, ba’zan Mehrixonlar oilasiga ham borib kelib turamiz.*

(*G‘afur G‘ulom*)

– *Qor. Sovuq. Bo‘ronning o‘chmagan uni.*

Ayozning zabitidan qaltirar daraxt. (Uyg‘un)

Ta’kidlash joizki, ingliz tilida darak gaplarni kuchli his-hayajonni ifodalash uchun undov gapga ham aylantirish mumkinki, bu yozuvchining maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi gaplarni undov gaplarga o‘zgartiramiz:

– “*I run three miles every morning!*”

– “*I could study better if you turned down the music!*”

– “*Please start the car!*”

1. Ingliz tilida so‘roq gapni o‘z ichiga olgan darak gaplar so‘ngida ham nuqta qo‘llaniladi, masalan:

– “*Jane asked Paul if he was hungry.*”

– “*I wonder what has happened.*”

– “*She asked him if the bus had left.*”

¹³³ Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. –Тошкент, 1974. – Б. 30.

2. Ingliz va o‘zbek tillarida buyruq gaplar oxirida nuqta ishlatiladi. O‘zbek tilida bunday buyruq gaplar sof buyruq ma’nosini anglatmay, buyruq-iltimos, buyruq-yalinish, buyruq-istik, buyruq-maslahat, buyruq-nasihat, buyruq-ogohlantirish, buyruq-da’vat (undash), buyruq-ruxsat (yoki taklif) kabi emotsional ma’nolarni ifodalaydi. Bu turdag'i har bir buyruq gap o‘zicha maxsus ohang va intonatsiya bilan aytildi. Yuqoridagi ma’nolarning ifodalanishida buyruq gap kesimining shakllanishi, unda ayrim grammatik vositalarning qo‘llanishi muhim ahamiyatga ega¹³⁴. Masalan, shart, istak mayli affikslari va ba’zi yuklamalar shunday vazifani bajaradi. Demak, oxiriga nuqta qo‘yilgan buyruq gaplar o‘z leksik-grammatik va intonatsion belgilariga ega bo‘ladi. Masalan:

- *Bugun zora havo ochilsa.* (“*Havo ochilsin*” ma’nosida.)
- *Shunday yosh xotinning umriga zomin bo‘lganidan keyin jabrini ham tortda.* (*G‘afur G‘ulom*)
- *Qo‘rqma, qochsang o‘zingga jabr qilasan. Qani, yur-chi ichkariga.* (*Parda Tursun*)

Ingliz tilida buyruq gaplar oxirida nuqtaning qo‘llanishi:

- *Close the door, please.*
- *Listen. Someone is knocking at the door.*
- *Look. The talking to the woman is my brother.*

2. Ingliz va o‘zbek tillari punktuatsiyasida ayrim qisqartmalar nuqta bilan ifodalanadi:

etc. = *and so on – va hokazo;*

e.g. = *for example – masalan;*

a.m. – *kunning yarmigacha bo‘lgan vaqt;*

p.m. – *kunning yarmidan keyingi ikkinchi qismi;*

p. = *page – bet;*

fig. = *figure – rasm;*

vol. = *volume – bob;*

Dec. = *December – dekabr;*

¹³⁴ Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари. Т.: Ўқитувчи, 1996. – 68 б.

Aug. = August – avgust;

Joanne K. Rowling – Djoan K. Rouling.

Yana shuni inobatga olish kerakki, qisqartmalar gap oxirida kelsa, undagi nuqta gapga yakun yasaydi¹³⁵. Biroq vergul yoki so‘roq belgilari qisqartmalardan so‘ng qo‘llanilsa, unga tegishli nuqtadan keyin keladi:

“Our offices are open each week Mon.–Fri.” (abbreviations of Monday and Friday)

“My new house is on Lilac Ave., just across from the old courthouse.” (abbreviation of Avenue)

“Are you returning to work in Feb.? ” (abbreviation of February).

O‘zbek tilida qisqartmalarning nuqta bilan ifodalanishiga quyidagilarni keltirish mumkin:

v.b. – va boshqalar;

v.h. – va hokazo;

mn. – masalan;

Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartmalarning bir turi bo‘lmish akronim (acronyms)lar nuqta bilan ifodalanmaydi. Negaki ular bitta leksema sifatida o‘qib talaffuz qilinadi:

“Scientists from NASA have confirmed the spacecraft’s location on Mars.” (acronym of “National Aeronautics and Space Administration”)

“The officer went AWOL following the attack.” (acronym of “Absent Without Leave”)

“I need those documents finished A.S.A.P.” (acronym of “As Soon As Possible”; also often written as ASAP, asap, and a.s.a.p.)

“His scuba equipment turned out to be faulty.” (Scuba is actually an acronym of “self-contained underwater breathing apparatus,” but it is now written as a regular word.)

O‘zbek tilidagi akronimlar:

¹³⁵ Хазраткулов О.Ф. Аббревиация как продуктивный способ словообразования в разносистемных языках: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Душанбе, 2021. – 31 б.

BMT vakillari tashrif buyurishdi.

YUNESKO tasarrufiga kirgan davlat inshoottlari hozirgi kunda avaylab saqlab kelinmoqda.

Shuningdek, o‘zbek tilida ingliz tilidagi singari kishi ism-sharifi qisqartirilganda ham nuqta qo‘llaniladi:

G‘.G‘ulom – G‘afur G‘ulom

O. – Oybek;

U. – Uyg‘un.

Ingliz tilida ism sharifi qisqartirilish holatlari:

“Martin S. Smith, the renowned physicist, will be speaking here next month.”

“I love the writing of J.R.R. Tolkien.”

Ta’kidlash kerakki, ism-sharifning kasb yoki murojaatni ifodalovchi so‘zlar bilan qo‘llanishida ingliz tili variantlari orasida farqlar mavjud bo‘lib, Amerika variantida nuqta qo‘llanilib, Britaniya ingliz tilida esa tushirib qoldiriladi. Masalan:

Dr. Johnson – doktor Djonson

Mr. and Mrs. Smith – mister i missis Smit

Ph.D. candidate – aspirant / doktorant

B.Sc. graduate – bakalaviat darajasi / tugallanmagan oliy

“Please cont. to page 41 for further instructions.” (abbreviation of continue)

“Dr. Davis has been of immense service to the hospital.” (abbreviation of Doctor)

Britaniya varianti:

Dr Jekyll – doktor Djekill

Mr Hyde – mister Xayd

Ms Marple – miss Marpl

PhD student – aspirant.

1. O‘zbek tilida yozilgan asarlarda kiritiladigan izoh yoki remarka turidagi gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi. Ma’lumki, remarkalarda pyesadagi voqealarning tavsifi, personajning vaziyati, ichki kechinmalari, muallifning turlicha tushuntirish va izohlari beriladi. Masalan:

- *Xalqimga, ijodimga! (Keta boshlaydi.)*;
- *Xayr, shohanshoh! (Yo 'lida davom etadi. Hamma bosh egib, turgan joyida qotib qoladi. Tashqaridan Navoiyni olqishlagan xalqning ovozlari eshitiladi.)*
(*I.Sulton va Uyg'un*)

Shuningdek, gazeta va jurnallar sahifasida tez-tez uchraydigan va qavs ichida beriladigan – *Davomi bor, Boshi falon sonda, Davomi 3-betda, Hamma o 'rnidan turadi* shaklidagi gaplar oxiriga ham nuqta qo'yiladi. Masalan:

- (*Gazetamizning kelgusi soni 2-noyabrda chiqadi.*),
- (*Davomi. Boshi gazetaning o'tgan sonida.*)

Barcha holatlarda nuqta yopiluvchi qavsdan oldin ishlatiladi. Shu o'rinda keltirib o'tish joizki, remarka personaj nomidan keyin kelib, uning harakatini bildirsa, ulardan so'ng nuqta qo'yilmaydi. Chunki bular personaj nomi bilan birgalikda bir sintaktik butunlikni hosil qiladi:

Qo 'ldosh (cho 'chib).

Yo 'g'-e! Toshmat (kulib). O'n ikki-yu nol-nolda!

Bunday hollarda personaj nomidan so'ng ishlatilishi lozim bo'lgan nuqta remarkadan keyingi yopiluvchi qavsdan so'ng qo'yiladi:

Qodir (ichkariga taklif qilib). Qani, marhamat! (Uyg'un)

Yana shuni inobatga olish kerakki, jurnal, gazeta sahifalarida uchraydigan “*Qarsaklar, gulduros qarsaklar, zalda jonlanish*” shaklidagi iboralardan so'ng nuqta qo'yilmaydi. Chunki bularda gapga xos predikativlik bo'lmaydi. Bular qavsga olinadi, xolos:

(Qarsaklar);

(zalda jonlanish) kabi.

Dramatik asarlarda har bir personajning nomidan so'ng nuqta qo'yiladi va uning gapi bosh harf bilan boshlanadi. Masalan:

Dadavoy. Ordenlarimni olib chiq!

Bahor. Shu topda ordenni nima qilasiz?

Dadavoy. Kerak... Medallarni ham ola chiq! (Uyg'un)

O‘zbek tilida nuqta belgisining qo‘llanishida ingliz tilidan farqli jihatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- a) dramatik asarlarda har bir personajning gapidan oldin tire ishlatilmaydi.
- b) tartibni bildiruvchi raqamlardan so‘ng nuqta qo‘yiladi. Bundan keyingi gaplar bosh harf bilan boshlanadi va ular oxiriga ham nuqta qo‘yiladi. Bunday gaplar leksik-grammatik va semantik jihatdan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lmaydi. Masalan:

...quyidagi onalarga “Qahramon ona” faxriy unvoni berilsin:

1. Kenjayeva Parpi
2. Baratova Tursuntosh
3. Bekmurodova O‘g‘il

Agar tartibni ko‘rsatuvchi raqamlar fasl (paragraf) belgisi (§) va qoida, modda, band kabi so‘zlar bilan birgalikda qo‘llansa, nuqta shulardan so‘ng qo‘yiladi. Masalan:

1-§. Ot haqida umumiy ma’lumot.

2-§. Otlarning semantik turlari.

Agar tartibni bildiruvchi raqamlar (ba’zan harflar) yarim qavs bilan ajratilgan bo‘lsa, ulardan so‘ng nuqta qo‘yilmaydi. Bulardan keyingi gaplar kichik harf bilan boshlanadi va semantik-grammatik jihatdan o‘zaro zinch bog‘liq bo‘ladi: bir voqeani turli tomonidan to‘ldirishga, izohlashga, tizimlashtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ulardan so‘ng nuqtali vergul qo‘yiladi. Masalan:

Esik yozuvi: 1) harfning grafik ko‘rinishi; 2) harfning o‘ngdan chapga qarab yo‘nalishi; 3) so‘z oralarida belgilarning yo‘qligi bilan oromey yozuviga yaqin turadi. (“O‘zbek tili va adabiyoti”)

v) Ergash gapdan so‘roq ma’nosi, bosh gapdan xabar ma’nosi anglashilgan ergash gapli qo‘shma gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi.

g) Nuqtaning manba va havolalarda qo‘llanish holatlari:

1. Iqtiboslik, o‘zga nutq va misolning qayerdan, kimdan olinganligini bildiruvchi nomlar qisqartib ishlatilsa, ulardan so‘ng nuqta qo‘yiladi:

(O.), (H.O.), (G‘. G‘.).

2. Havolalarda (snoskalarda) familiyadan so‘ng va havolaning oxirida nuqta qo‘yiladi. Agar havolada jurnal, to‘plam va kitoblarining ham nomi ko‘rsatilsa, ularning nomi qo‘shtirnoqqa o‘ralgan holda, qavs ichida beriladi. Havola oxirida ishlatilishi lozim bo‘lgan nuqta yopiluvchi qavsdan so‘ng qo‘yiladi. Masalan:

1. *H.Olimjon. Tanlangan asarlar, Toshkent, 1951, 5-bet;*
2. *Q.Pirmatov. Hikoya janrining o‘ziga xos xususiyati (ToshDU aspirantlarining ilmiy ishlari, “O‘zbek filologiyasi masalalari” to‘plami, 395-soni, 1970, 166 –181-betlar).*

Ingliz tilida ham nuqtaning qo‘llanishida o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ko‘chirma gaplarda ko‘p uchratish mumkin¹³⁶. Biroq Amerika variantida nuqta qo‘shtirnoq ichida, ya’ni quyidagicha:

The CEO said, “This is a great day for the company.”

Our five-year-old said that when she grows up she wants to be a “doctor and a pop star and a ballerina.” – ifodalanib, Britaniya ingliz tilida esa, aksincha, qo‘shtirnoqdan so‘ng keladi. Masalan:

The CEO said, ‘This is a great day for the company’.

Our five-year-old said that when she grows up she wants to be a ‘doctor and a pop star and a ballerina’.

Gap oxirida qo‘llaniladigan keyingi belgi so‘roq belgisi bo‘lib, har ikkala tilda ham tugal fikr hamda so‘roq ma’noni anglatgan, biror narsaga oydinlik kiritish maqsadida ifodalangan so‘roq gapda ishlatiladi¹³⁷. Masalan:

“Will you be joining us tonight?”

“How are you feeling?”

“This weather is wonderful, isn’t it?”

Why did you do that?

He’s certain to be elected, isn’t he?

Would you like to have a cup of tea or coffee?

¹³⁶ Азарова Н.Д. Лингвопоэтические, семиотические и коммуникативные основы английской пунктуации: На материале современной англоязычной художественной прозы: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001. – 209 с.

¹³⁷ Сиукаева А.Г. Семантические основы пунктуации в английском языке. На материале драматургических произведений: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2000. –140 с.

Ingliz tilidan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida so‘roq gaplar ikki xil shakllangan bo‘ladi¹³⁸, ya’ni:

a) so‘roqni bildiruvchi grammatik vositalar ishtirok etadi:

– *Endi ketib qolmaysizmi?*

Ha, nima, uyalasanmi, kap-katta qiz-a? (G‘afur G‘ulom)

b) so‘roqni bildiruvchi grammatik vositalar ishtirok etmaydi, bundagi so‘roq ma’nosи yozuvda so‘roq belgisi orqali, og‘zaki nutqda intonatsiya orqali aniqlanadi:

– *To ‘ygacha qo ‘limni ham ushlatmayman deysiz chog ‘i? (Uyg ‘un).*

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida ko‘chirma gapda so‘roq ma’no ifodalanganda so‘roq belgisi ishlatiladi:

The lady asked, ‘Where are you going?’

The boss inquired, ‘Is Mr. Brown still away on business?’

– *Qayoqqa ketasiz? – taajjublanib so‘radim men. (Artur Konan Doyl)*

– *Bo ‘yinbog‘ haqida nima dedi? (Artur Konan Doyl)*

Ingliz va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan so‘roq gap turlarida ushbu tinish belgisi ifodalanadi, jumladan:

1. Tasdiq-so‘roq gaplar (tag question):

“*You’ll be home in time for dinner, right?*” – *Kechki ovqat paytida uyda bo‘lasiz, to‘g‘rimi?*

“*They won’t have the report finished on time, will they?*” – *Ular ushbu risolani o‘z vaqtida yakunlay olishmaydi, shundaymi?*

“*You can’t be serious, can you?*” – *Siz hech qachon jiddiy yondashmagansiz, shundaymi?*

“*Have some more tea, won’t you?*” – *Yana choy ichishni, xohlaysizmi?*

“*Help me dry these dishes, will you?*” – *Shu idishlarni quritishga, yordam berasizmi?*

1. Ayrim darak shaklda ifodalangan, biroq so‘roq ohangiga ega gaplar:

¹³⁸ Normamatova D.T. PRAGMATIC FEATURES OF INTERROGATIVE CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH //Conference Zone. – 2022. – C. 188-194.

“*You won?*”

“*It ended just like that?*”

“*Excuse me?*”

O‘zbek tilida ham bu kabi holatni kuzatish mumkin:

– *Ketasiz? ((Artur Konan Doyl)*

– *Seshanba kuni kechqurun? – so ‘radim taajjub bilan ((Artur Konan Doyl)*

2. So‘roq olmoshlari yoki bitta leksemaning ishtiroki vositasida yasalgan so‘roq gaplar:

Speaker A: “A package arrived for you.”

Speaker B: “When?”

Speaker A: “Sir, you need to move your car.”

Speaker B: “Me?”

Speaker A: “You didn’t eat all of your vegetables.”

Speaker B: “So?”

Speaker A: “Well?”

Speaker B: “Hold on, I’m thinking!”

O‘zbek tili punktuatsiyasida ham so‘roq olmoshlari gap tarkibida yoki yakka holda kelganda so‘roq belgisi ishlatiladi:

“*Men hozir qayerdaman o ‘zi?*” – so ‘ragan u qizdan ((Artur Konan Doyl)

“*Menda sizning qanday ishingiz bo ‘lishi mumkin?*” – so ‘ragan otboqar peshonasi tirishib (Artur Konan Doyl)

– *Siz buni muhim deb o ‘ylaysizmi?*

– *O ‘ta muhim!*

– *Yana nimalarga e ‘tibor berishim lozim, deb o ‘ylaysiz?*

– *Jinoyat yuz bergan kuni qo ‘riqchi itning o ‘zini tutishi sizga g ‘alati tuyilmadimi?*

– *It? It nima qipti?*

– *Mana shunisi g ‘alati-da! – dedi Xolms (Artur Konan Doyl)*

3. Ingliz tili va o‘zbek tillarida so‘roq belgisi birinchi gapga aniqlik kiritish maqsadida keyingi gaplar oxirida keladi. Biroq o‘zbek tilida ingliz tilidan farqli o‘laroq **-mi** yuklamasi aniqlik kiritish maqsadida qo‘llangan gaplarga qo‘shiladi:

“How much pizza do you want? one slice? two slices?”

– Nechta pitsa bo‘lagi yemoqchisiz? Bir bo‘lakmi? Ikkib o‘lakmi?

“What’s that in the sky? a bird? a plane?

– Osmondagiko ‘ringan narsa nima? Qushmi? Samolyotmi?

“How often would you say you use the school’s online library? Once a year? Once a week? Once a day?”

– Matabning onlayn kutubxonasidan har qancha vaqtda foydalanasiz? Bir yilda bir martami? Haftada bir martami? Kuniga bir martami?

So‘roq belgisi ingliz tilida xushmuomalalik bilan bildirilgan taklif, biroq so‘roq shakldagi gaplar oxiriga qo‘yilmaydi:

“Will all applicants please wait in the foyer until called for their interview.”

“Would any students who have not received their results please report to the principal’s office as soon as possible.”

4. Shuni ta’kidlash joizki, ingliz va o‘zbek tillarida so‘roq belgisi boshqa tinish belgilari bilan birga qo‘llanilishi mumkin. Masalan, qisqartmalar gap oxirida kelganda ulardan keyin so‘roq belgisi ishlatiladi:

“Did you really meet Martin Luther King, Jr.?”

“Is the meeting still on for Fri.?”

Shuningdek, his-hayajon aralash so‘roq ohangi bilan ifodalangan gapda undov belgisi bilan ham birga keladi:

“What did you say to him?!?”

“You won the lottery?!?!”

So‘roq shakliga ega gapning ichida his-hayajon va hayratlanishni ifodalash maqsadida bir necha so‘roq belgilari qo‘llaniladi:

“What did you say to him??”

“You won the lottery???”

Ingliz tilining o‘zbek tilidan yana bir farqli jihat shundaki, undov va so‘roq belgisining birlashmasini ifodalovchi belgi interrobang (?) his-hayajon ma’nosini aks ettiruvchi so‘roq shaklidagi gaplarda keng qo‘llanilishi mumkin:

“*What did you say to him?*”

“*You won the lottery?*”

5. O‘zbek tilida ingliz tilidan farqli o‘laroq qo‘shma gaplarda so‘roq belgisining ishlatilishi ancha murakkab bo‘lib, quyidagi holatlarda qo‘llanadi: a) qo‘shma gapning har ikki (yoki barcha) bo‘laklaridan so‘roq ma’nosni anglashilganda; b) ergash gapli qo‘shma gaplarda so‘roq ma’nosni bosh gap orqali ifodalanganda¹³⁹:

Keldingizmi, qayoqda yuribsiz, rais opa sizga hech narsa demadilarmi?
(*Said Ahmad*)

Axir, har borganingizda, pochchangiz quruq qo‘ymas? (Abdulla Qahhor)

Qanday uxlар, oyli tun qizning

Yuragiga hayajon solsa? (Uyg‘un)

O‘zing-ku xatingda quyoshim debsan,

Nega G‘arbga ketsam yig‘laysan to‘lib? (Uyg‘un)

6. O‘zbek tilida so‘roq shaklidagi sarlavhalar oxirida ham so‘roq belgisi ishlatiladi. Shuningdek, taqrizlarda yoki sitatalarda biron so‘z yoki jumla noaniqlik, gumon yoki anglashilmovchilikni bildirsa, bunday so‘z va jumladan so‘ng so‘roq belgisi qavsga o‘ralgan holda qo‘yiladi. Masalan:

“*Onaning bokira siynasida (?) gavdalangan...” kampir o‘zining sodda tafakkuri, o‘tmish ongi (?) bilan, tilidagi o‘zbekcha joziba (?) bilan esda qoladi.*

Gap oxirida qo‘llaniladigan keyingi belgi undov belgisi bo‘lib, kuchli his-hayajon va tuyg‘ularni ifodalagan gaplarda keladi. Masalan:

“*I can’t wait to travel to Paris next week!*”

“*I can’t believe I got into law school!*”

“*We are all so excited for your visit!*”

“*I’m so sick of all the negativity in this office!*”

¹³⁹ Фуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили //Тошкент: Ўқитувчи. – 2023. – Т. 315.

- *Nazarimda, ularni qo 'lga ilintirishga muvaffaq bo 'ldik!*
- *Eshitaman, ser! Buyuring! – dedi zabit darg'a qarshida g'oz turgancha.*
(Artur Konan Doyl)
- *Oltinsoy ajoyib go 'zal qishloq! (Sharof Rashidov)*
- *Bu iflosni otgan men bo 'laman! (Yashin.)*
- *Sening xotirangni unutmas aslo, mening yuraklarim, O'rta Osiyo! (Hamid Olimjon)*

7. Ingliz va o‘zbek tillarida kirish so‘zlardan so‘ng undov belgisi keladi:

“*Hooray! I got accepted to my top choice university!*”

“*Yuck! I hate coconuts!*”

“*That was an impressive victory! Congratulations!*”

Oh! I haven't heard that before.

Aaarrgh! The train will pull out in 3 minutes!

- *O! Ser! Men bu g‘alayon haqida Manilada bo‘lgan chog‘imda eshitganman. (Artur Konan Doyl)*

- *Yo, Xudoyim! – deb hayqirib yubordi Varton. – Bizni qaroqchilar kemasi qutqarib qolibdi-ku! (Artur Konan Doyl)*

- *Yo tangrim, madad ber! – deya Tom Brodzerst alamdan boshini qayerga urishini bilmay, dod solib yubordi. (Artur Konan Doyl)*

- 8. O‘zbek tilida undash gaplar oxiriga, ya’ni murojaatlardan keyin undov belgisi qo‘yiladi:

- *Qani shovvozlar, bo‘sh kelmang! G‘animning kunini, mana endi, ko ‘rsatamiz! (Artur Konan Doyl)*

- *Men besh daqiqada chiqaman. Qani, boshlang janob Braun! (Artur Konan Doyl)*

– *Men, ser! (Artur Konan Doyl)*

- *O‘sha kungi parishonxotirligimni, albatta, siz payqagan bo‘lishingiz kerak, Uotson! (Artur Konan Doyl)*

a) Shuningdek, muomala munosabatini bildiruvchi undash gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilda, ular oxiriga undov belgisi qo‘yiladi:

O... Marhamat! (Navoiy)

Soz! (Jomiy.)

Salom, do ‘stlar! (Majiddin.)

Salom, pokiza ustoz! (Uyg ‘un va I.Sultonov)

b) Ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilida kuchli emotsionalikka ega bo‘lgan tasdiq yoki inkorni bildiruvchi undash gaplar oxirida ham undov belgisi qo‘yilishi kuzatiladi:

Ha!

Xo ‘p!

Yo ‘q!

– *Ha! Yanglishmasam, ular martinikalik piyodalarning ikkita rotasi bo ‘lishi kerak. (Artur Konan Doyl)*

v) Qolaversa, xitob, tashviqni bildiruvchi undash gaplar, emotsionallik va kuchli undov intonatsiyasi bilan aytilda, yoki ko‘rsatish hayajonni bildirsa, gap oxiriga undov belgisi qo‘yiladi:

Chux!

Tss!

Ana!

Ma!

Bu-chi!

g) Nominativ gaplar undov ohangi bilan aytilda va emotsionallikni ifodalasa, bular oxiriga undov belgisi ishlatiladi. Masalan:

– *Urush! – Dunyo! (Hamid Olimjon.) Topgan so ‘zi: – Oh, falak! (G ‘afur G ‘ulom)*

Signal! (“Toshkent haqiqati”)

d) Kesimi shart, istak mayli shaklida bo‘lgan ayrim gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi. Masalan:

Qo ‘shiq aytgim keldi sening to ‘yingda,

Qanday qilay, sevinch sayratsa tilni!

Qanday qilay, do 'stim, baxt taronasi,

Bahor tuyg 'ulari yayratsa tilni! (Uyg 'un)

e) So‘roq gap tuzilishidagi ayrim gaplar, ayniqsa, ritorik so‘roq gaplar, undov ohangi bilan aytilib, emotsiyonallikka ega bo‘lsa, ular oxiriga undov belgisi qo‘yiladi¹⁴⁰. Bunda: a) so‘roqni bildiruvchi -mi yuklamasi bo‘lishi mumkin. Bunday gaplarda umumiylar tasdiqni bildiradi; b) qanday, qancha, qanaqa, kim, nima, qani? kabi so‘roq olmoshlari ishtiroki so‘roq ma’noni emas, balki emotsiional (sevinch, rag‘batlanish, kesatiq kabi) ma’nolarni anglatganda, undov belgisi keladi. Masalan:

Qutlaymiz yangi yil, yangi baxt bilan,

Do 'stlar qadahlarni ko 'taring, qani (Uyg 'un)

Nima bizga Amerika!

Nima bizga uning sur'ati! (Hamid Olimjon)

9. Har ikkala tilda ham buyruq gaplar oxirida undov belgisi ishlataladi:

Return the card today!

Don 't delay!

Hurry!

Send me your order now!

“Please don 't stay out too late tonight!”

“Get out of here, now!”

“Go to your room this instant!”

– *Shamol esa boshlayapti, barcha yelkanlar ko 'tarilsin! (Artur Konan Doyl)*

– *To 'plar o 'qlansin! – deb buyurdi leytenat. (Artur Konan Doyl)*

10. Ingliz tilida taqlid so‘zlardan so‘ng undov belgisi keladi:

“With a great whirr! the machine started and began lighting up.”

“The cat let out an angry meow! before running out through the open door.”

“Creak! Went the rusty old gate as we pushed our way into the yard.”

¹⁴⁰ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули //Т.: Фан. – 2002. – Т. 86

11. Ingliz va o‘zbek tillarida bir necha undov belgisi ketma-ket qo‘llanilib, gap urg‘usini belgilashga xizmat qiladi:

“*My mom screamed, ‘Go to your room this instant!!’*”

“*I can’t believe I failed my test again!!!*”

“*Jack, we won the lottery!!!!*”

– *Vahshiyalar, – deya baqirdim o‘zimni tutolmay, – bo‘ldi, bas, yetar!!! Tan olaman, men o‘ldirdim uni, men! Mana, taxtalarni ko‘chirib oling! Ha, xuddi shu yerda. Uning yuragi tinimsiz uryapti, uning yuragi meni tinch qo‘ymayapti!!!*

Ingliz va o‘zbek tillarida gap oxirida qo‘llaniladigan tinish belgilari, jumladan, nuqta, so‘roq va undov belgilarining ishlatilish me’yorlarida o‘xhashliklar va sanoqli o‘ziga xos bo‘lgan jihatlar mavjud.

2.2.§. Ingliz va o‘zbek tillarida gap ichida qo‘llanuvchi tinish belgilarining o‘ziga xos xususiyatlari

Ma’lumki, har bir tilda gap mazmuni tinish belgilari vositasida ifodalananar ekan, ular vazifasiga muvofiq tarzda guruhlarga ajratilgan. Demak, ingliz va o‘zbek tillarida gapning tarkibida qo‘llaniladigan tinish belgilarini *vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta* hamda *tire* tashkil etib, aynan mazmun ifodalashda qo‘llaniladi. Binobarin, tinish belgilari ichida turli vazifalarni bajaruvchisi vergul bo‘lib, doimo gap ichida qo‘llaniladi. Fikrimiz dalili sifatida vergulning ingliz va o‘zbek tillarida ishlatilish holatlarini ko‘zdan kechirib, qiyoslaymiz.

Har ikkala tilda ham uyushiq bo‘laklar vergul bilan ajratiladi. Vergul uyushiq bo‘laklar tarkibida qo‘llanganda, quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1. Uyushiq bo‘laklar ochiq konstruksiyada bo‘lganda, birinchi va ikkinchi uyushiq bo‘lak teng bog‘lovchi orqali birikib, qolganlari vergul vositasida birikadi.

The Three Musketeers were Athos, Porthos and Aramis.

The punishment cell was a dark, damp, filthy hole. (Voynich)

She shook her head, dried the dishes herself, sat down with some mending.

(Cronin)

Her breathing was slow, tortured.

Pul va gazlama, choy, sovun, gugurt kabi zarur narsalarni shirkat davlatdan olib, kambag‘allarga tarqatarmish. (H. G‘ulom.)

2. Uyushiq bo‘laklar yopiq holatda bo‘lganda, oxirgi ikki uyushiq bo‘lak teng bog‘lovchi vositasida birikadi, ular orasiga vergul qo‘yilmaydi. Biroq, ingliz tilida **and** va **but** bog‘lovchilaridan oldin ham vergul qo‘yilib, o‘zbek tilida esa ingliz tilidan farqli tarzda qolgan bo‘laklar o‘zaro vergul bilan birikadi:

The captain, the squire, and I were talking matters over in the cabin (Stevenson)

He lighted his cigarette, said good night, and went on. (London)

At the party we had cakes, jellies, ices and lemonade.

Narigi qirg‘oqdagi mevazorlarda o‘rik, olcha, olma va shaftolilar qiyg‘os gullab yotibdi. (Hamid G‘ulom)

Po‘lat, Oyqiz, Olimjon va mahalla raislari olomon oldiga tushib Ko‘ktog‘ tomon yo‘l boshladilar.

Qo‘shimcha qilib shuni keltirish mumkinki, ingliz tilida teng bog‘lovchilar oldidan qo‘yiladigan vergul tushirib qoldirilish holatlarini uchratish mumkin:

1. “*I like apples, bananas, pears, and figs.*

“*I like apples, bananas, pears and figs.*

2. “*She’s smart, beautiful, and witty.*”

“*She’s smart, beautiful and witty.*”

3. “*We have always wanted to buy a boat, sell everything, and set sail.*”

“*We have always wanted to buy a boat, sell everything and set sail.*”

Ta’kidlash joizki, o‘zbek tilida uyushiq bo‘laklar juftliklari bilan ifodalanganda, har bir juftlik biri ikkinchisidan vergul vositasida ajratilib, har bir juftlikdagi uyushiq bo‘laklar o‘zaro teng bog‘lovchi ishtirokida bog‘langan bo‘ladi¹⁴¹. Masalan:

¹⁴¹ Ашуррова Д., Убаева Ф., Болтабоева Х. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. – Тошкент: Ўзфанақаднашр, 1962. – 180 б.

“...yozadi yo qo'l qo'yadi, bir buyuradi yo yalinadi, koyiydi yo maqtaydi.” (Oybek). Shuningdek, uyushiq bo'laklar orasida bog'lovchilar takrorlanib kelsa, ular orasiga vergul qo'yiladi. Bunda:

- a) *ham* bog'lovchisi takrorlanadi: *Alisher ham, Temur ham ajablanib so'rashdi.* (Sharof Rashidov)
- b) *yoki* (*yo, yoinki*) bog'lovchisi takrorlanadi: *Yo ko'zyoshi, yo gul singari nafis, nozik, ma'nodor.* (Oybek)
- v) *dam* bog'lovchisi takrorlanadi: *Dilbar Abdurahmonova qo'lini dam keskin, dam mayin harakatlantiradi.*
- g) *goh* bog'lovchisi takrorlanadi: *Supa ustidagi so'ri har zamon to'rt tomonga chayqalib, o'z ostida o'tiruvchilarning betlarini goh ko'rsatib, goh yashirib, ular bilan o'ynashgandek, tevarakka husayni g'ujumlarini bir-ikki bora uzib tashladi.* (Abdulla Qodiriy)
- d) *na* bog'lovchisi takrorlanadi: *busiz na zavq bo'lar, na baxt, na tinchim.* (Shukrullo)

Ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek tillarida bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplar bir paytda yoki ketma-ket bo'lgan voqeа, hodisalarни bildirganda o'zaro vergul bilan ajratiladi¹⁴². Fikrimiz dalili sifatida quyidagi misollarni keltirish mumkin:

As he spoke, he threw into the vessel a few white crystals, and then added some drops of a transparent fluid.

I object to rows because my nerves are shaken, and I get up at all sorts of ungodly hours, and I am extremely lazy.

Ishlining ishi bitar, ishsizning kuni o'tar. (Maqol)

Ingliz tilida sifat (coordinate adjectives) so'z turkumiga oid so'zlar uyushib kelganda vergul qo'llaniladi. Biroq ingliz tilida sifatlar tartibi asosida shakllantirilgan sifat so'z turkumiga oid leksemalar ketma-ketligi vergulsiz ifodalanadi:

¹⁴²[https://ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tilida%20undalma%20\(A.Sayfulla_yev\).pdf](https://ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tilida%20undalma%20(A.Sayfulla_yev).pdf)

“I bought a heavy, long table.”

“I bought a long, heavy table.”

“It was a dark, cold, blustery day.”

Otlashgan sifatlarning vergulsiz ishlatalishini kuzatamiz:

“I bought a black wooden table.”

“Take a look at this bright green spider!”

“Wow, that is one huge old pirate trunk!”

Ingliz va o‘zbek tillarida vergulning qo‘llanish o‘rniga ko‘ra ko‘p farqli jihatlarini uchratish mumkin, jumladan, ingliz tilida mustaqil gaplarni *and, but, or, so, for, nor, yet* bog‘lovchilari vositasida biriktirib, ushbu bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘llaniladi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida inglizcha matnlarni keltiramiz:

“The family moved into the new house, and the neighbors welcomed them warmly.”

“She wanted to play tennis, but he wanted to play basketball.”

“We can go to the movies tonight, or we can just stay home.”

Shuningdek, kirish so‘zlar vergul bilan har ikkala tilda ham ajratib berilishi kuzatiladi:

“Strangely, he wrote to Michelle but not to me.”

“In a way, they are both right.”

“When I was traveling in Croatia, I met a lot of interesting people.”

Consequently, I didn’t receive an answer.

Frankly speaking, she is not right.

There is, however, one mistake many students make.

O‘zbek tilida kirish so‘zlar uch xil holatda vergul bilan ajratilib, ular so‘z, so‘z birikmasi (ibora) va gap shaklida ifodalanib, so‘zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiradi¹⁴³. Kirish so‘zlar asosiy gapdan qisqa pauza, past ohang, nisbatan tez temp bilan aytilishiga ko‘ra ajralib turadi. Masalan:

Nihoyat, Oyqiz Jalolovga tikilib, qat’iy fikrini aytdi. (Sharof Rashidov)

¹⁴³ Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ. –Тошкент, 1974. – 68 б.

Siddiqjon, bir tomongan, O'rmonjonga qanday ro'para bo'lishini va gapni nimadan boshlashini bilmay, yuragi po'killab, ikkinchi tomongan, uning xush qabul qilishi umidi bilan entikib kutar edi. (Abdulla Qahhor)

Gunohi nima ekan, bechora qiz qafasdan qutulmoqchi bo'libdi, xolos?

Albatta, xolos, mayli, axir, koshki, balki tipidagi kirish so'zlearning gapda qo'llanishi intonatsion jihatdan farqlidir. Bu so'zlar kirish sifatida qo'llanib, gap boshida kelganda, ular alohida ohang va pauza bilan ajralib turadi; gap oxirida kelganda esa uning boshqa bo'laklardan ajralishi uncha sezilmaydi, ularni ajratuvchi pauza juda qisqa bo'ladi. Har ikki holatda ham ular vergul bilan ajratilib, gap boshida kirish so'zdan so'ng, gap oxirida esa kirish so'zdan oldin vergul qo'yiladi:

Boboxo 'ja domla bitta sonni yozish uchun doskaga bo'r surkab, qancha qimirlatar edi, axir. (Parda Tursun)

Axir, bir kishini sakkiz oy sarson qilib qo'yish birorta qonunchilik moddalarida yo'q-ku! (Gazetadan)

Ayrim hollarda, kirish so'zlar takror yoki ketma-ket qo'llanishi mumkin. Ular o'zaro hamda boshqa bo'laklardan vergul bilan ajraladi:

Albatta: albatta, boraman.

Xullas, shunday qilib, ularni poylab yurgan odam bor ekan. (Abdulla Qahhor)

Shunday qilib, shunga ko'ra, shu bilan birga, shuningdek kabi kirish so'zlarni boshqa bo'laklardan pauza orqali ajralishi og'zaki nutqda uncha sezilmasa ham, yozuvda vergul bilan ajratiladi. Ta'kidlash joizki, kirish so'zlar gapning boshida, o'rtasida va oxirida kelishi mumkin, jumladan, gap boshida kelganda kirish so'zlardan so'ng, gap o'rtasida kirish so'zlearning har ikki tomonidan, gap oxirida kirish so'zlardan oldin vergul qo'yiladi.

Ma'lumki, undov so'zlar ingliz va o'zbek tillarida vergul, tinish belgisi vositasida ajratiladi. Shuningdek, ingliz tilida undov so'zlar leksema, ibora yoki

taqlid so‘zlar orqali ifodalanib, his-hayajon, hayratlanish, baxtiyorlik, g‘azabni anglatadi¹⁴⁴. Masalan:

“Ooh, that’s a beautiful dress.”

“Brr, it’s freezing in here!”

“Oh my God, where did you get all this money?”

“Wow, what a great achievement!”

“Oh, Doreen didn’t know anything about it”

“Ah, that’s the way to make the money”.

O‘zbek tilida ham undov so‘zlar, og‘zaki nutqda keng qo‘llangani singari, yozma nutqda ham ko‘p ishlatalib, yozma matnda vergul bilan ajratilgan holda ifodalanadi. Yozma matnda qo‘llangan undov so‘zlar gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi. Ingliz tilidagi kabi o‘zbek tilida ham undov so‘zlar gapga emotsional bo‘yoq beradi. Undov so‘zlar stilistik maqsadga ko‘ra gapning turli o‘rinlarida qo‘llaniladi. Biroq ular gap jarayoniga muvofiq turlichayma’no kasb etishi va gapda o‘z ma’nosini o‘zgartirgan holda qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Masalan:

E, yaqinda rais eshikdan kirsa, qorni derazadan chiqadigan bo‘ladi.(Abdulla Qahhor)

Baribir kechikdik, eh! (Yashin)

Ta’kidlash joizki, undalmalar undov so‘zlar bilan yonma-yon kelganda, ayniqsa, undalmadan oldin undov so‘zlar ifodalanganda, vergul bilan ajratib ko‘rsatiladi¹⁴⁵. Quyidagi gaplar orqali fikrimizga oydinlik kiritishimiz mumkin:

E Elmurod, sen dunyoga kelib nimalar ko‘rding? (Parda Tursun)

Oh, bu ishni sudgacha yetkazmang! (Artur Konan Doyl)

Ey Tinch Don, ey qadrdon otaxon!

Nega buncha loyqalanib oqasan! (Mixail Sholoxov)

¹⁴⁴ Сиукаева А.Т. Семантические основы пунктуации в английском языке на материале драматургических произведений): Автoref. дисс. ... канд. филол. наук. М., 2000. – 18 с

¹⁴⁵ Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.К., Абузалова М.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Фан ва технология, 2009. – Б.41

Yana shuni inobatga olish kerakki, *qani*, *xo'sh*, *kim*, *nima* leksemalari gap boshida kelib, modal ma'noni ifodalasa, ulardan so'ng vergul qo'llaniladi:

- *Qani, mister bahslashuvchi, – dedi savdogar.* (*Artur Konan Doyl*)
- *Xo'sh, nazarimda, bizga Brikston-roudga borishga to'g'ri kelmaydiganga o'xshayapti, – shivirladi Xolms.* – *Qani, borib ko'raylikchi, bu nusxa bizga asqotib qolmasmikan.* (*Artur Konan Doyl*)
- *Nima, bo'lmasa o'zimning uyimga devordan oshib tushaymi? – debdi o'g'ri.*
- *Xo'sh, bularning hammasi haqida nima deb o'ylaysiz, Uotson? – so'radi Sherlok Xolms, yumshoq o'rindiqqa o'zini tashlar ekan.* (*Artur Konan Doyl*)
- *Grigoriy. Xo'sh, hozircha tirik ekansan, bo'yningni qora sirtmoqdan chiqarib qo'y.* (“*Romeo va Julietta*”)

Ma'lumki, har ikkala tilda ham murojaat otlari gap boshida, o'rtasida yoki oxirida kelib ular vergul bilan ajratiladi. Masalan:

“James, I need you to help me with the dishes.”

“Can I have some money, Mom?”

“This, class, is the video I was telling you about.”

“Sorry, Tom, I didn't see you there.”

“You in the back, do you have a question?”

Arthur, have you thought what you are saying?

And run in to see me, my lad, when you have time any evening.

O'zbek tilida murojaat otlarining qo'llanishiga e'tiborimizni qaratamiz:

- *Qiyin joyi ham mana shunda-da, do'stim.* (*Artur Konan Doyl*)
- *Siz, albatta, hazillashayotgandirsiz, Xolms.* (*Artur Konan Doyl*)
- *Yo'q, Uotson, ko'ryapsiz, lekin ko'rgan narsangizning ustiga fikr yuritishga erinayapsiz.* (*Artur Konan Doyl*)
- *Ser, siz menga keraksiz! – qaltiroq qo'llarini cho'zib qichqirdi u kishi.* (*Artur Konan Doyl*)

Ingliz va o'zbek tillarida vergulning qo'llanishidagi yana bir o'xhash jihatni shundaki, ajratilgan bo'laklar, jumladan, izohlovchi, to'ldiruvchi, aniqlovchilar

uning vositasida gapning boshqa bo‘laklaridan ajratib ko‘rsatiladi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida ingliz va o‘zbek badiiy asarlaridan olingan gaplarga murojaat etamiz:

“The woman down the street, whose children are the same age as ours, invited us over for dinner next week”.

“Samantha, whom I’ve asked to be my bridesmaid, is getting married next year”.

“The movie, which is my favorite comedy of all time, is on TV tomorrow night”.

“I’m going on a date with Paul, who went to high school with my brother”.

“The heir, Prince William, is adored by many.”

“The office, an old colonial building, badly needed repairs.”

“A true classic, this book inspired a generation of young readers.”

He, Martin Eden, was a better man than that fellow.

The old gentleman, her father, was always dabbing on speculation.

O‘zbek tilida esa ajratilgan aniqlovchi, izohlovchi, hol va to‘ldiruvchilar quyidagi tartibda ifodalanadi:

Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan, og‘il eshigi yonida turib, dag‘-dag‘ titraydi. (Abdulla Qahhor)

Bir mакtab bola, оltинчи sinf o‘quvchisi, bizning oldimizga keldi.(Abulla Qahhor)

Biz, bokschilar, xuddi Botirali kabi, kurashda jon fido qilishga tayyormiz.
(Hamid G‘ulom)

Qizlar, Xolnisodan tashqari, besh kishi edi. (Asqad Muxtor)

Shundayku-ya, u, qishloq mahallasining raisi bo‘lish bilan birga, mening xotinim. (Sharof Rashidov)

“Oqlon” shaharchasida, sobiq Ko‘kcha darvozasida, ular mashinadan tushishdi. (Oybek)

Shuningdek, vergulning har ikkala tildagi yana bir o‘xhashligi, muallif gapining ajratilishidir, masalan:

John said, “I’ll never live in this city again.”

Mary told him, “I want to have another baby,” which took him by surprise.

The other day, my daughter asked, “Mommy, why do I have to go to school, but you don’t?”

– *U millioner, – dedi mister Barnebi, – yangi olgan amlokin qaytadan qurish uchun ming-minglab pul sarflamoqchi. (Agata Kristi)*

– *Azizam, – dedi u, – darhaqiqat, bu g’oyatda go’zal manzara! (Agata Kristi)*

– *To ‘g’ri, u nimadandir qattiq hayajonlangandek bo’lib tuyildi, – dedi Linnet xayolga tolib. (Agata Kristi)*

– *Jonginam, – deb u astagina gapira boshladi, – g’ashingni keltirmaydimi bunaqa odamlar?*

Bog’langan qo’shma gap tarkibidagi gaplar o’zaro ingliz tilida “but” va “and”, o’zbek tilida esa *ammo, lekin, biroq* zidlov bog’lovchilari bilan bog’langanda, shu bog’lovchilardan oldin vergul qo’yiladi:

He had always been about to paint a masterpiece, but he had never begun it.

Not only hope, but confidence has been restored.

I dictated the letter, but she did not transcribe it correctly.

It was cold outside, and we decided to turn on the heater.

The boys wanted to stay up until midnight, but they grew tired and fell asleep

Va men chiroq yorig’ida qop-qora shiftning menga qarab sekin, silkinib, lekin shunday kuch bilan siljib kelayotganini ko’rdimki, biron daqiqada mendan bu yerda faqat parchalarim qolishi kerak edi, – buni mendan boshqa hech kim bunchalik tasavvur qila olmaydi.

Mana, tez orada davomli ta’tilga chiqamiz, lekin men yana ko’ngilli bo’lib qolmoqchiman (G’afur G’ulom)

Yoqangizni ushladingiz, ishonmayapsiz, sezib turibmiz. Ammo fikrimizni isbotlashga urinamiz.

Ha, juda bopladingiz. Ana shunday qiling. Ammo ehtiyyot bo’ling.
(“Mushtum”jurnali)

Ingliz va o‘zbek tillarida tasdiq-so‘roq gaplarda ham tasdiqllovchi qismi vergul bilan ajratiladi, masalan:

He is a student, isn’t he?

They have just arrived, haven’t they?

Siz ham biz bilan borasiz, shundaymi?

Ta’kidlash joizki, turli tizimli tillarda vergul ergash gapli qo‘shma gap tarkibida qo‘llanganda, ergash va bosh gaplar o‘zaro ergashtiruvchi bog‘lovchilar, ba’zan nisbiy so‘zlar va intonatsiya vositasida birikkan bo‘ladi¹⁴⁶, masalan:

Odam odamlikni egallay olgach,

Bir etak yulduzni to ‘kdi koinot. (G‘afur G‘ulom)

Otamiz, Boboqul Soliyev, hunarmand – degréz edi. Uni, oz-moz xat-savodi bo‘lgani uchun, mulla Bobo degréz deb ham atardilar. (M.Boboyev)

Hartugul, daftar yo‘qolib, biroz ko‘nglim tinchidi. (G‘ayratiy)

Turli tizimli tillar, jumladan, ingliz va o‘zbek tillarida vergulning ifodalanish o‘rinlari turlicha yoki qisman bir-biridan farq etish holatlari kuzatiladi:

1) Demak, ingliz tilida vergulning o‘ziga xos bo‘lgan jihatni shundaki, taqqoslash ma’nosini ifodalovchi so‘z va iboralarga urg‘u berish maqsadida qo‘llaniladi, masalan:

Children should be seen, not heard.

I asked you to file the contract, not to destroy it.

2) Shuningdek, uning o‘ziga xos jihatlari ro‘yxatini davom ettirgan holda, ta’kidlash kerakki, gapdagi ikkinchi darajali bo‘laklar, jumladan, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va shu kabilarni ikkinchi marta gapda takrorlamaslik uchun tushrib qoldirilgan holda vergul bilan belgilab ko‘rsatiladi. Masalan:

The ground was covered with flowers, yellow, violet, white. – Ushbu gapda gullar/flowers so‘zi yellow, violet, white leksemalari bilan takrorlab, ya’ni yellow flowers, violet flowers, white flowers tarzida ifodalanmaganligi bois, vergul qo‘llanilgan. Keyingi gaplar ham xuddi shu qoidaga muvofiq keladi:

¹⁴⁶ Атабоев А.Д. Ўзбек тилида боғловчиларнинг ўрганилиши ва ундаги муаммолар // Academic research in educational sciences. 2021. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-tilida-bo-lovchilarning-rganilishi-va-undag-i-muammolar>

There, between the elm trees, the moon shone.

I am fond of apples; he, of pears

3) Ingliz tilidagi vergulning qo'llanilishida o'zbek tiliga o'xshash bo'lmanan yana bir xususiyati infinitiv va gerundiyligi birikmalar gap boshida kelganda vergul bilan ajratiladi:

Seeing the address across the street, he wrote a note in his little book.

To be successful, you must read widely.

To stay in shape for competition, athletes must exercise every day.

Barking insistently, Smokey got us to throw his ball for him.

4) Shuningdek, vergul bilan ajratilgan kirish so'z yoki birikma gap oxiridan boshiga ko'chirilganligidan ham darak berishi mumkin bo'lib, o'zbek tilida bu kabi holat kuzatilmaydi. Quyida keltirilgan gaplarda buning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin:

In the light of day, everything looked different.

The wind blowing violently, the townspeople began to seek shelter.

Because Smokey kept barking insistently, we threw the ball for him.

5) Keyingi farqli jihatni, ot (so'z turkumi) haqida qo'shimcha ma'lumot kiritilganda vergul yordamida ajratib ko'rsatiladi, masalan:

Mount Everest, the world's highest mountain, was first climbed in 1953.

Jones, our office manager, is ill now.

6) Tushirib qoldirilganda ham tugal fikr mazmuniga ta'sir qilmaydigan gap bo'lagi vergul bilan ajratiladi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi gaplarni keltiramiz:

The Pennine Hills, which are very popular with hikers, are situated between Lancashire and Yorkshire.

My next-door neighbour, who works from home, is keeping an eye on the house while we are away.

7) Bosh gapni ajratib keluvchi ergashgan bo'lakning ishtiroki ta'minlanganda vergul ishlataladi:

The fire, although it had been burning for several days, was still blazing fiercely.

You should, indeed you must, report this matter to the police.

8) Murakkab gapda bosh gapdan oldin kelgan ergashgan bo'lak (adverbial subordinate clause) ajratilganda vergul qo'llaniladi, masalan, quyidagi gaplarda farqini kuzatishimiz mumkin:

Though they were very poor, they knew happiness. (comma).

They knew happiness though they were very poor. (no comma).

9) Bog'lovchi vositasida bog'langan gaplar o'rtasida kelgan modallik ma'nosini ifodalovchi so'z yoki iboralar bog'lovchidan keyin ifodalansa, uning oxiriga vergul qo'yiladi. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi misollarni keltirib o'tamiz:

"Our sales have improved over the year, but in my view, we still should remain cautious with our investments."

"Sarah has her mind set on moving to London, so try as you might, you're not going to get her to change her decision."

Agar aynan modallik ma'nosini ifodalovchi so'z yoki iboralarga urg'u berilsa, unda har ikkala tomonidan vergul bilan ajratiladi, masalan:

"The problem seems simple enough at first, but, as you will soon find out for yourselves, there are many complexities that we must consider."

"Our sales have improved over the year, but, in my view, we still should remain cautious with our investments."

"Sarah has her mind set on moving to London, so, try as you might, you're not going to get her to change her decision."

10) Shuni e'tiborga olish lozimki, agar gapdagi kesim modal yoki yordamchi fe'llar yoki bir nechta kesimdan iborat bo'lsa, vergul bilan ajratiladi. Quyidagi misolda buning yaqqol dalilini ko'rishimiz mumkin:

Tony must not, should not be ruined through her!

*Still his wife sighed, shook her head sorrowfully, and stitched on"*¹⁴⁷.

¹⁴⁷ Jack London. Martin Eden. [<http://www.gutenberg.org.ebooks>].

11) Ergash gapli qo'shma gaplarda mamlakat yoki shtatdagi ma'lum bir shahar manzili keltirilganda vergul qo'llaniladi:

"I used to live in Detroit, Michigan, but I moved to Albuquerque, New Mexico, last month."

"Paris, Texas, is nothing at all like Paris, France."

Ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek tillarida vergulning qo'llanishiga ko'ra ko'p jihat o'xhash bo'lib, gapda takrorlangan va sanash intonatsiyasi bilan aytilgan so'zlar orasiga vergul qo'yiladi. Masalan:

*"Dear, dear, that's bad!" said Holmes, shaking his head"*¹⁴⁸.

*"No, no, my dear Watson, not all – by no means all"*¹⁴⁹.

Hozir, hozir pishadi, dadasi. (S.Siyoyev)

Bas, bas! Yetar! (Uyg'un)

Hoy, hoy, otamiz, Toshni kesar boltamiz.

O'zbek tilida ham vergulning qo'llanish holatlarining ingliz tilidan farqli jihatlari mavjud bo'lib, ular:

1) *U, bu, shu, o'sha* olmoshlari bilan ifodalangan ta'kidlovchi egalardan so'ng tire ishlatiladi. Masalan:

Qozog'iston bu – oltin, kumush,

Bu, baxt bilan to'lib oqqan soy. (Hamid Olimjon)

Shuningdek, *u, bu, shu, o'sha* ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalangan egalar ham vergul bilan ajratiladi:

U, asrandi qiz bo'lib qoldi. (Hamid Olimjon)

Bunday egalar alohida ohang, ta'kid intonatsiyasi, qisqa pauza bilan aytilishiga ko'ra yuqoridagi olmoshlar bilan ifodalangan aniqlovchilardan farqlanadi va yozuvda vergul bilan ajratiladi. Masalan:

Bu, shaharga mehmon bo'lib keldi. (Bu – ega.)

Bu shaharga mehmon bo'lib keldi. (Bu – aniqlovchi)

¹⁴⁸ Arthur Conan Doyle. The Hound of the Baskervilles [<https://www.weblitera.com/>].

¹⁴⁹ Arthur Conan Doyle. Ko'rsatilgan manba

2) Inkor bog‘lovchisi orqali bog‘langan qo‘shma gaplar ham o‘zaro vergul vositasida ajraladi:

Na ko ‘cha bor, na mustahkam uy-joy, na dala shiyponi bor. (Oybek)

Ayrim hollarda vergulning qo‘llanishida xatolikka yo‘l qo‘yilganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, *-ki* ergashtiruvchi bog‘lovchisi bilan bog‘liq xatolikni “Farhod va Shirin” dostonidan olingan ergash gapli qo‘shma gap shaklidagi baytning berilishida ko‘rishimiz mumkin:

Bir-ikki yil inoyat aylasa shoh,

Ki xizmatdin o ‘zumni qilsam ogoh.

Ushbu matnning birinchi misrasi oxiriga vergul qo‘yilgan, keyingi gap esa *-ki* bog‘lovchisi bilan boshlanayotgandek tasavvur uyg‘otadi kishida. Aslida *-ki* birinchi satrdagi *aylasa* so‘ziga tegishli bo‘lib, qo‘shma gap “*Shoh bir-ikki yil (shunday) inoyat aylasaki, (men) o ‘zimni (uning) xizmatidan ogoh qilsam*” degan ma’noni anglatadi. Bu jumla Farhodning otasi xoqonga qarata aytib turgan so‘zidir. Matndagi *-ki* satr boshida kelgani bilan, uni alohida so‘z deya qaramaslik kerak: u inversiya holatiga ko‘ra shu yerda turibdi; u ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun vergul birinchi satrning oxiriga emas, *-ki* dan keyin qo‘yilishi kerak.

Ma’lumki, o‘zbek tilida yuklamalar, jumladan, *-u*, *-yu*, *-da* qo‘shimchalari bog‘langan qo‘shma gaplarni biriktirishga, ma’no o‘zgartirish va boshqa shu kabi holatlarda qo‘llanilib, vergul vositasida ajratib yoziladi. Vergul yuklamalardan so‘ng qo‘yiladi. Masalan:

Shu payt to ‘satdan ko ‘cha eshigi taraqlab ochildi-yu, Zunnunxo ‘ja halloslaganicha kirib keldi. (Abdulla Qahhor)

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillardan aniqlandiki, ingliz va o‘zbek tillarida vergulning qo‘llanish o‘rinlarida o‘xhash va o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari mavjud.

2.3.§. Ingliz va o‘zbek tillarida aralash holda qo‘llanuvchi tinish belgilari

Ingliz va o‘zbek tillarida aralash holda qo‘llanuvchi tinish belgilari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- 1) gap boshida va o‘rtasida qo‘llanuvchilar: tire;
- 2) gap oxirida va o‘rtasida qo‘llanuvchilar: ikki nuqta va nuqtali vergul;
- 3) gap boshida, o‘rtasida va oxirida qo‘llanuvchilar: qo‘shtirnoq, qavs va ko‘p nuqta.

Demak, har ikkala tilda ham ushbu tinish belgilari mavjud bo‘lib, ularning qo‘llanish o‘rinlarini ko‘rib chiqamiz. Tirening gapdagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) muallif gapi qo‘shtirnoq ichida kelgan hollardan tashqari doim tire bilan ajratiladi;
- b) bir so‘z turkumiga kiruvchi leksemalarni umumlashtiruvchi so‘z tire vositasida yoziladi; va shu kabi o‘rinlarda qo‘llaniladi.

Tirening vazifalari xususida J.D.Rouzning fikri quyidagicha: “Tirening asosiy vazifasi – gap tuzilishidagi ajratilishiga yoki takrorga, yo biror narsaga aniqlik kiritilishiga ishora qiladi”¹⁵⁰.

J.Nesfield bo‘lsa, “tirening asosiy vazifalari qatoriga – a) jumladagi ifodalangan fikrning keskin o‘zgarishini belgilash, aniqlik kiritish maqsadida ilova yoki qismni ajratish, personaj nutqidagi his-hayajonli gap yoki jumlalarni belgilashdan iborat. Bundan tashqari, umumlashtiruvchi so‘zdan oldin sanab o‘tilgandan keyin tire kelib, shu o‘rinda tire va vergul kombinatsiyasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir”¹⁵¹. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillari uchun umumiyl bo‘lgan tirening yana bir funksiyasi – gapda umumlashtiruvchi so‘z bilan sanab o‘tish, jumlaning bir xil qismlarini ajratish yoki ikkinchi darajali bo‘laklarni qoidaga nomuvofiq tarzda ajratishdir. Demak, yozuvda tire ajratilgan bo‘laklarni ajratish, chegaralash, ulardagи hissiy bo‘yoqni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun

¹⁵⁰ Биянова М.В. Пунктуационные системы: синхронный и диахронный аспекты: автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 2004. – С.17

¹⁵¹ Nesfield J.C. English Grammer Past and Present / J. C. Nesfield. – L., 1944. P.185

ishlatiladi. Tire bilan ajratilgan bo‘laklar sodda va kengaygan holatda, turli xil gap tarkibida bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, ingliz va o‘zbek tillarida uning ikki turi, jumladan, tire/dash (–) hamda chiziqcha/hyphen (–) mavjud bo‘lib, ingliz tilida chiziqcha/hyphen (–) tinish belgisi punktuatsiya bo‘limida o‘rganilsa, o‘zbek tilida esa orfografiyada o‘rganiladi¹⁵². Shu sababli, turli tizimli tillarda muqobil bo‘lgan tire/dash (–) ning qo‘llanishiga diqqatimizni qaratamiz. Ingliz tilidagi tirening eng e’tiborli tomoni shundaki, tire ***en dash*** (–) va ***em dash*** (–) dan iborat bo‘lib, ***en dash*** (–) o‘zbek tilidagi tire (–)ning muqobil varianti hisoblanib, ***em dash*** (—) esa tire (–) ***en dash*** (–)dan uzunroq shaklga ega hamda qo‘llanish qoidalari o‘ziga xosligi bilan farqlanadi.

Ma’lumki, ingliz va o‘zbek tillarida tirening qo‘llanishida o‘xshash va farqli bo‘lgan jihatlarni kuzatish mumkin. Uyushiq bo‘laklardan so‘ng kelgan umumlashtiruvchi so‘zlarni ajratish uchun tire ishlatiladi. Bunda tire umumlashtiruvchi so‘zdan oldin qo‘yilib, ajratish funksiyasini bajaradi. Masalan, ingliz tilida o‘zbek tili singari umumlashtiruvchi so‘zga urg‘u berish maqsadida qo‘llaniladi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi gaplarni keltirish mumkin: *Students were asked to bring their own supplies — paper pencils, and calculator (***em dash*** qo‘llanilgan).*

She glanced all-round the parlour, from the corner cupboard to the good fire in the grate. [...] This was the boy’s home, too – the roof, the cupboard, the stoked grate (J. Conrad).

The habits and migrations of the sand grouse, the folklore and customs of Tartars and Turkomans, the points of a Cossack pony – these were matters which evoked only a bored indifference in Vanessa (Saki).

“In my opinion, the perfect sandwich has only three things—ham, cheese, and mayonnaise.”

“There are several reasons to switch to online banking—faster access to your accounts, instant loan approvals, and a lower impact on the environment.”

¹⁵² Seely J. Oxford A – Z of Grammar & Punctuation. Oxford University Press, revised second edition, 2013.;

Kecha to ‘yga barcha qarindoshlar – xola, amma, tog‘a, amaki-yu jiyanlar kelishgani onamni ko‘nglini xushnud etdi.

Toshko ‘mir, oltin, kumush, neft – rang-barang koning sening (Uyg‘un)

– Yong‘oq, olcha, asal – hammasi tog‘dan keladi, uqdingmi? (Oybek)

Sariq, qizil, oq – xilma-xil gullar. (Oybek)

O‘zbek tilida ba’zi hollarda uyushiq bo‘laklar umumlashtiruvchi so‘zdan keyin kelib, ma’noni konkretlashtirish uchun ishlatiladi¹⁵³. Bunda ular ikki tomondan tire bilan chegaralanadi, masalan:

Soqov tabiatning askari –

Muz, bo‘ron, sovuq, qor, izg‘irin –

Yurish qildi Chelyuskin sari. (Uyg‘un)

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida makon, zamon va miqdor chegarasini bildiruvchi ikki yoki undan ortiq so‘zlar birikmasi orasiga tire qo‘llanilib, agar o‘zgarishini ko‘rsatish maqsadida kelsa, ingliz tilida tire oldidan va undan keyin joy qoldirilmaydi. Binobarin, o‘zbek tilida raqamlar keltirilganda chiziqcha bilan ifodalanib, probelsiz yoziladi. Garchi, o‘zbek tilida ayrim o‘rinlarda tiredan oldin va keyin joy tashlab yozilsa-da, ma’no va vazifasi bir xillikni kasb etadi. Masalan:

“Please refer to pages 83–88 for more information.”

“The clinic is open Monday–Friday.”

“We need you to submit your expense report for January–March.”

“The company had been a fixture in the community from 1998–2006.”

Biroq, ayrim ingliz tilidagi manbalarda joy qoldirilgan holda ham keltirilgan:
pages 10 – 23

100 – 300 participants

January – May 2009.

– *Uyga vazifa 67-70 betlardagi mashqlarni bajarib kelasizlar, – deb o‘qituvchi darsga yakun yasadi.*

– *Bakuga dushanba-chorshanba kunlari poyezd qatnovi yo‘lga qo‘yilgan.*

¹⁵³ Ашуррова Д., Убаева Ф., Болтабоева Х. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. – Тошкент: Ўзфанақаднашр, 1962. – Б.40

Alisher Navoiy 1441-1501-yillarda yashab ijod etgan.

Bu yo'llar, shu qadim yo'llar ustidan

Chin – Eron, Rus – Afg'on, Hind – Turkiston

Va jumla jahon... (G'afur G'ulom)

Binobarin, o'zbek tilida **-dan**, **-gacha** qo'shimchalari qo'llanilsa, tire ishlatilmaydi:

Alisher Navoiy 1441-yildan 1501-yilgacha yashab ijod etgan.

Agarda ingliz tilida o'zgarishni ko'rsatish maqsadida kelgan raqam, kunlar va vaqtini ifodalovchi leksemalar bir necha so'zdan tashkil topgan bo'lsa, tire birinchi ma'lumotning oxirgi va ikkinchisining birinchi so'zi oldidan ishlatiladi:

"I'll be in the office 8:00 AM–4:00 PM this Friday."

"The November 2010–February 2011 sales figures were a bit lower than we had hoped."

Ushbu ma'lumotlar ingliz tilida qisqartirilgan holda kelsa, nuqta va tire qo'llaniladi, masalan:

"Please be aware that we will be closed Thurs.–Mon."

"We'll be staying with my in-laws from Apr.–Aug. while our house is renovated."

Turli tizimli tillarning yana bir o'xshashligi shundaki, bog'liqlik va ziddiyatni ko'rsatishda tire keltiriladi:

"The president is trying to drum up support for the Mexico–U.S. trade deal".

"The Republican–Democrat divide on the issue has only widened in recent months".

"We will begin boarding the Denver–Chicago flight shortly".

"The England–Germany match will air at 5 PM, London time".

"Nasaf" – "Bruk Bet Termalika" (0:0)¹⁵⁴.

"Lokomotiv" – "Ufa" (1:1) o'yinidan FOTOGALEREA¹⁵⁵

¹⁵⁴ https://championat.asia/uz/news/nasaf-bruk-bet-termalika-00-fotogalereya?utm_source%5B0%5D=%27%22%28%29

¹⁵⁵ https://championat.asia/uz/news/lokomotiv-ufa-11-oynidan-fotogalereya?utm_source%5B0%5D=acu8600%EF%BC%9Cs1%EF%B9%A5s2%CA%BA%3%CA%BA%9uca8600%3Fsort%3Dfinished%3Fsort%3Dfinished

Toshkent – Dushanba poyezdi.

Ta’kidlash joizki, ingliz tilida mavjud qo’shma so‘zning bitta leksemasi o‘zgartirilganda tire bilan ifodalanadi, ya’ni:

“The New York State-led initiative is gaining traction across the country.”

“A multiple-award-winning novelist, Ms. Jones currently lives in Portland, Oregon.”

“My thesis focuses on post-Industrial Revolution economics.”

“Daniel is doing quite well for himself, despite having only a pre-high school education.”

Biroq o‘zbek tilida qo’shma so‘z yasalganda, tire o‘rniga chiziqcha ifodalanadi:

Tilka-pora, dur-gavhar, beta-nurlar, beta-terapiya, vektor-anali, non-nasiba¹⁵⁶

Ma’lumki, tire kutilmagan fikr burilishi yoki keskin o‘zgarishiga ishora qilib, harakatlar dinamikasiga aniqlik kiritgan holda uni paralel hodisadan ajratib turadi. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi misollarni keltirib o’tamiz:

I haven’t lost anyone, thank God – but, like everyone else, I’ve got a lot of friends at home who have (R.Kipling).

I can understand there must have been something odd about the man, or he wouldn’t have buried himself alive – nor been in such a hurry to bury himself dead. But what makes you think it was lunacy? '(G.K.Chesterton)

“She breathes and burns as if with a great fire. She speaks not; she hears not – and burns!” (J. Conrad)

The professor was unwilling to change the due date—even for a candy bar!

Ma’lumki, ingliz va o‘zbek tillarida tire ikkinchi darajali bo‘laklarni ajratishda ham kelib, ingliz tilidan farqli o‘laroq o‘zbek tilida ikki holatda qo’llanadi¹⁵⁷. Ajratilgan bo‘laklar faqat old tomondan tire bilan ajratilib, ushbu

¹⁵⁶ Маматов Н. Ўзбек тилидаги ҳозирги кўшма сўзлар лугати. –Т.: «Fan va texnologiya», 2019. –368 б.

¹⁵⁷ Напасова З. Матн компонентларининг мураккаб синтактик қурилмалар билан ифодаланиши //Scholar. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 124-127.

bo‘lakning boshlanish chegarasini ko‘rsatish uchun undan oldin yakka tire qo‘yiladi. Shuningdek, bunday ajratilgan bo‘laklar:

a) o‘zi bog‘langan, ma’nosini bo‘rttirayotgan bo‘lak bilan bir umumiyligining ko‘rsatkichiga ega bo‘ladi va shu mushtarak grammatik ko‘rsatkich orqali matndagi boshqa bo‘laklar bilan aloqaga kirishadi;

b) gap oxirida yoki misra oxirida qo‘llangan bo‘ladi. Masalan:

“The senator – a vocal critic of the president’s policies – said she is planning a motion to defeat his latest tax-reform bill.”

“Last night we watched Funny Girl – my favorite comedy of all time.”

Chol bobom o‘z o‘rtog‘i – uzun soqolli, yirik jussali, kar qulqoq mo‘ysafid bilan nimalar to‘g‘risidadir ezmalanib so‘zlashadi. (Oybek)

Tabiatning marjon tanli, gul sochli erka qizi – tong oqarib keladi. (Uyg‘un)

O‘rmonlarning xivich sochini yaproq – ro‘molchalar ko‘mgandir. (Uyg‘un)

She‘rga solib u bedorligin, So‘ngra tutar menga – ayolga. (E.Oxunova)

Ingliz tilidan farqli ravishda o‘zbek tilida ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar yakka tire bilan ajratilmaydi. Agar ajratilsa, u kesim vazifasida qo‘llangan bo‘ladi:

Dala – to‘la, dala – oppoq, oq (*Hamid Olimjon*)

Turli tizimli tillarda ajratilgan bo‘laklar qo‘sh (ikki) tire bilan ajratilib, bunda tirelar ajratilgan gap bo‘laklarining boshlanish va tugallanish nuqtasini chegaralab ko‘rsatadi. Ikki tomoniga tire qo‘yilgan ajratilgan bo‘laklar:

a) grammatik jihatdan mustaqil shakllangan;

b) tarkibiy jihatdan yoyiq bo‘lib, ularning o‘z ichida boshqa tinish belgilar (masalan, vergul) ishlatilgan bo‘ladi;

v) ohang jihatdan ikki tomondan pauza bilan boshqa gap bo‘laklaridan ayirib talaffuz qilinadi;

g) ularda ma’noni ta’kidlash, emotsiyonallik kuchlidir. Masalan:

The students-Jim, Marla, and Sara-were told they could leave.

“The woman down the street-whose children are the same age as ours – invited us over for dinner next week.”

“Samantha-whom I’ve asked to be my bridesmaid-is getting married next year.”

“Funny Girl-which is my favorite comedy of all time-is on TV tomorrow night.”

The man-the one with his hand in the air-looks desperate.

The student-the one dressed in black, sitting in the corner-let out a cry.

Tog‘alarim – Egamberdi va Rahimberdi – meni bir-bir quchoqlab, ishga beriladilar. (Oybek)

Charm kesib o‘tirgan bobom – yumaloq boshli, keng yuzli, toza, oq soqolli, to ‘la, sersavlat – bo ‘m-bo ‘m... aylanay shirin toydan, deydi. (Oybek)

Tutilib, shoshilib, hovliqib tillar Parashyutchi qizni – Bashorni – so ‘zlar. (Uyg‘un)

Tirening har ikkala tilda o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari shundan iborat:

1. Ingliz tilida biror gapdagi so‘z yoki uning qismlari noaniqlik sabab tushirib qoldirilsa, bir necha tire qo‘yiladi:

*“I was speaking with **B**—, and he told me that he would be visiting **C** — later this week.”*

*“Long ago, in the city of **P**—, a young man named Alexey made a most troubling discovery.”*

“With the page torn, all I could read was, ‘Please, find a fr —.’ Who knows what it’s supposed to mean.”

“My client, ——, has requested not to be referred to by name again during this inquest.”

2. Dialog jarayonida so‘zlovchining nutqi bo‘linganligini ko‘rsatish maqsadida tire qo‘llaniladi:

*Speaker A: “As I was saying, I think we **ne**—”*

Speaker B: “Sorry to interrupt again, sir, but I’m still not clear on your last point.”

*Speaker A: Gosh, this is boring. I hope something interesting happens soon so **I**—*

Speaker B: “Thompson! Stop daydreaming and pay attention!”

3. E’lonlarda, qarorlarda asosiy masalalarni ta’kidlash, belgilangan tadbir va vazifalarga diqqatni jalg qilish uchun tire ishlatiladi:

“Remember—keep your friends close, and your enemies even closer.”

O‘zbek tilida esa tire yozma matn oldidan (ta’kidlanishi lozim bo‘lgan har bir gap oldidan) qo‘yiladi:

- *Hozirgi chegaralarning daxlsizligi;*
- *Ichki ishlarga aralashmaslik;*
- *Tenglik.*

4. O‘zbek tilida son, olmosh, ot, harakat nomi (fe’l) bilan ifodalangan bosh kelishikda bo‘lgan ot kesimlarni egadan ajratish uchun tire ishlatiladi:

Donning bo ‘lig ‘i – omborning to ‘lig ‘i. (Maqol)

Birinchi kitob – she ’r muxlislari oldida shoirning “yuz ochari”.

Xat – oppoq qog ‘ozga bitilgan ko ‘ngil.

Xat – sevinch, muhabbat, hayot mujdasi.

Xat – oyna, unda aks etar diydor.

Xat – asl, sevishgan yurakning sasi. (Uyg ‘un)

5. Ammo har ikkala tilda ham ot kesim sifat, ravish, egalik olmoshi va tartib son bilan ifodalanganda ega va kesim orasida tire qo‘llanmaydi. Ba’zan ega, kesim va undalmalar ham tire bilan ajratiladi. Bunday ajratishning o‘ziga xosligi shundaki, undalmalar ta’kidlansa, kuchli emotsionallikka ega bo‘lsa, ulardan so‘ng tire ishlatiladi:

“I know that my friend Stephen—the poor dear!—has found living on his own very difficult.”

“Knowing how difficult it is to look after just one child, I’ll never grasp how my mother managed, considering how many children—nine in all—she raised more or less on her own.”

Tonglar, tonglar – sevaman sizni! (Hamid Olimjon)

Sening g ‘oyang – g ‘oyamizdir,

Sening so ‘zing – so ‘zimiz. (Uyg ‘un)

6. O‘zbek tilida keltirilgan dialoglardagi har bir shaxsning nutqini o‘zaro ajratish, farqlash, ularning boshlanish nuqtasini ko‘rsatish uchun tire qo‘llaniladi. Biroq inglez tilida ushbu hollarda tire tushirib qoldiriladi. Masalan:

“Never mind,” said he, chuckling to himself “The question now is about haemoglobin. No doubt you see the significance of this discovery of mine?”

“It is interesting, chemically, no doubt,” I answered, “but practically”¹⁵⁸

– Bo ‘lmaydimi Sobir, tez gapir!

– Opa, bo ‘lmas, jonim, gapim – bir!

– Yo meni de, yoki Omonni!

– Netay, tikdim yo ‘lida jonni! (*Hamid Olimjon*)

7. Faqat o‘zbek tiliga xos bo‘lgan tirening yana bir xususiyati, ko‘chirma nutqning o‘rtasida va oxirida kelgan muallif gapi uning vositasida ajratiladi:

*“Ha, topdim, u – tegirmon toshi!” – dedi. (*Latifalar*)*

*“Balli, rahmat, kampir! – deydi dadam qulluq qilib. – Yaxshi bilgich tabib ekan.” (*Oybek*)*

8. Tire inglez tili grammatikasiga nomuvofiq tarzda ikkinchi darajali bo‘laklarga urg‘u berib, ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladi:

For some reason the agency lady did not arrive, or, if she did, was interviewed by Miss Gillette, who, fulfilling the practice of the young queen bee, destroyed her rival – in the nicest possible sense (E.Wallace)

I came into her room half an hour before the bridal dinner, and found her lying on her bed as lovely as the June night in her flowered dress – and as drunk as a monkey (F.S.Fitzgerald)

9. Ingliz tilida ifodalangan qo‘srimcha ma’lumot gap oxirida bo‘lsa tire yordamida ajratiladi:

The returned mistress was point by point resuming knowledge and control of that complicated machine – her household (A.Bennett)

10. Shuningdek, inglez tilida ifodalangan sifatdosh ham agar gap oxirida kelsa, tire bilan ajratib ko‘rsatiladi:

¹⁵⁸ Arthur Conan Doyle. A Study in Scarlet [<https://www.weblitera.com>].

How hideous life is – revolting, simply revolting... (K. Mansfield)

Demak, yuqorida keltirilgan tahlillardan ko‘rinadiki, ingliz va o‘zbek tillarida tirening qo‘llanishida farqli jihatlari hamda o‘xhashliklari mavjud bo‘lib, har ikkala til punktuatsiya qoidalariga muvofiq va badiiy adabiyotda yozuvchining o‘ziga xos uslubini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Ingliz tilida darak gaplarni kuchli his-hayajonni ifodalash uchun undov gapga ham aylantirish yozuvchining maqsadiga bog‘liq bo‘lib, shuningdek, oxiriga nuqta qo‘yilgan buyruq gaplar o‘z leksik-grammatik va intonatsion belgilariga ega. Ingliz va o‘zbek tillarida gap oxirida keluvchi belgilarning o‘xhash jihatlari shundaki, 1) qisqartmalarining bir turi bo‘lmish akronim (acronyms)lardan tashqari ayrim qisqartmalar nomlarida, kishi ism-sharifi qisqartirilganda, yopiluvchi qavsdan oldin nuqta ifodalananadi. Ta’kidlash kerakki, ism-sharifning kasb yoki murojaatni ifodalovchi so‘zlar bilan qo‘llanishida ingliz tili variantlari orasida farqlar mavjud.

2. O‘zbek tilida tartibni bildiruvchi raqamlardan so‘ng, tartibni ko‘rsatuvchi raqamlar fasl (paragraf) belgisi (§) va qoida, modda, band kabi so‘zlar bilan birgalikda qo‘llansa, nuqta qo‘yiladi. Ingliz tilida ham nuqtaning qo‘llanishida o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu holat ko‘chirma gaplarda ko‘p uchratish mumkin.

3. Turli tizimli tillarda so‘roq belgisi tugal fikr hamda so‘roq ma’noni anglatgan, biror narsaga oydinlik kiritish maqsadida ifodalangan gap so‘ngida; ko‘chirma gapda so‘roq ma’no ifodalanganda; ayrim darak shaklda ifodalangan, biroq so‘roq ohangiga ega gaplarda so‘roq belgisi qo‘llanilib, o‘zbek tilida ingliz tilidan farqli o‘laroq *-mi* yuklamasi aniqliq kiritish maqsadida qo‘llangan gaplarga qo‘yiladi.

4. Gap oxirida qo‘llaniladigan keyingi belgi undov belgisi bo‘lib, kuchli his-hayajon va tuyg‘ularni ifodalagan gaplarda, kirish va taqlid so‘zlardan so‘ng, shuningdek, buyruq gaplar oxirida kelib, ketma-ket qo‘llanilgan undovlar gap

urg‘usini belgilashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida murojaatlardan keyin undov belgisi qo‘yiladi.

5. Gap tarkibida qo‘llanuvchi tinish belgilarining qo‘llanish o‘rinlarida ham o‘xhash va o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, uyushiq bo‘laklarni ajratishda, bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi gaplar bir paytda yoki ketma-ket bo‘lgan voqeа, hodisalarni bildirganda, kirish va undov so‘zlar va murojaat otlari gap boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelib ular o‘zaro vergul bilan ajratiladi. Biroq ingliz tilida sifatlar tartibi asosida shakllantirilgan sifat so‘z turkumiga oid leksemalar ketma-ketligi vergulsiz ifodalanadi.

III BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TINISH BELGILARINING PRAGMALINGVISTIK HAMDA TARJIMAGA XOS JIATLARI

3.1.§. Ingliz va o‘zbek tillari punktuatsion tamoyillarning pragmatik jihatlari

Tinish belgilarining qanday usul va tartibda qo‘llanishi punktuatsion tamoyillari asosida belgilanadi. Hozirgi ingliz va o‘zbek tillarida tinish belgilarining qo‘llanishi quyidagi tamoyillarga asoslanganligini ko‘ramiz:

1) *Mantiqiy-grammatik* tamoyil nutqning semantik-grammatik jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib, u:

- *nutq mazmuni*;
- *nutq tarkibi*;

– *nutq ohangini* o‘z ichiga oladi hamda shularga asoslanadi. Mantiqiy-grammatik tamoyilga tinish belgilarining asoslanish me’yorlari xususida amalga oshirilgan tahlillar II bobda keltirilgan bo‘lib, har bir nutqqa (gapga) xos shu uch jihat, ya’ni nutq mazmuni, tarkibi va ohangining dialektik birligini quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin:

The weight of his pack kept him bent, but he did not fall and he did not ease his pace. – Ushbu gap mazmun jihatdan murakkab harakatlarni ifodalab, ergashgan bo‘laklardan iborat. Ergashgan bo‘laklar *but*, *and* bog‘lovchilari orqali belgilangan bo‘lib, *but* inkor bog‘lovchisi ishtirok etgan gap bosh gapdan vergul bilan ajratilgan va *and* teng bog‘lovchisi tinish belgilari qoidalariga muvofiq belgi orqali ko‘rsatilmagan. Vergul bilan ajratilgan bosh gapdan so‘ng va *and* bog‘lovchisidan so‘ng pauza qo‘llaniladi.

Keyingi o‘zbek tilida keltirilgan gap tahliliga diqqatimizni qaratamiz:

Xo‘p, soat oltiga yetib boraman. (Abdulla Qahhor) Bu gapdagi mazmuniy tomon: xabar ma’nosini anglatish, voqeani ta’kidlash; tarkibiy tomon: sodda gap shaklida, besh so‘zdan iborat, tarkibida gap bo‘laklari bilan sintaktik jihatdan aloqaga kirishmaydigan, tasdiqni bildiruvchi so‘z (“xo‘p”) bor; ohang jihatdan: pasayuvchi intonatsiya – darak ohangi, nuqta intonatsiyasi bilan aytildi, “xo‘p”

so‘zi qisqa pauza bilan ajratib talaffuz etiladi. Bu gapdagi vergul va nuqta shu uch xususiyatga asoslangan holda ishlatilgandir.

Ayrim tadqiqotchilar xat boshidagi matnda qo‘llanilgan tinish belgilarinigina o‘rganishni maqsadga muvofiq deb, sanashgan.

Ta’kidlash joizki, tinish belgilari tizimi yozma nutqda grammatikaning ikkita sathi, jumladan, so‘zlar, iboralar, jumlalarning o‘zaro munosabatlarini tinish belgilari vositasida me’yorga soluvchi *leksik grammatica* hamda barcha punktuatsion belgilarni matnda qo‘llash qoidalari o‘z ichiga oluvchi *matn grammatisiga* asoslanadi. Vaholangki, tinish belgilari ko‘p o‘rinlarda turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi, masalan, ko‘p nuqta yordamida keyingi tafsilotlarni ko‘rsatish, qo‘sh tire vositasida qo‘sishimcha ma’lumotni keltirish yoki umumiylar xulosani qavs orqali matnda ifodalash muayyan qoidalarga bo‘ysunishni talab etadi. Quyidagi gapda tinish belgilarining ushbu holatda kelishi qoidaga zid bo‘lsa-da, yozuvchi anglatgan ma’noga muvofikdir:

She walked out – who could blame her – (it was during the chainsaw scene, as I recall) and went directly home.

– *Ikki qo‘lingni og‘zingga tiqma, Bekbo‘ta, hammasi birdek zarur emish-a.*
(Sharof Rashidov)

Matnda qo‘llanilgan tinish belgilarining vazifalari birlashgan holda ifodalansa, gap mazmunini anglashda muammolar tug‘iladi. Fikrimizga quyidagi misol dalil bo‘la oladi:

The press secretary gave them the rules: they were not allowed to speak to the committee directly; all other members were forbidden to discuss what the committee had decided¹⁵⁹.

Saida yana joyiga o‘tirdi. – Ahmoqlid... – dedi Zulfiqorov va boshini yana ham quyiroq soldi (Abdulla Qahhor)

Kodifikatsiyalangan punktuatsion belgilar vazifalaridan tashqari har bir yozuvchining o‘ziga xos tarzda asarlarida ifodalagan vazifalari ham mavjud bo‘lib, masalan, ingliz yozuvchisi Xeminguey ergashgan gap bo‘laklaridan deyarli

¹⁵⁹ <https://library.rosvuz.ru/files/library/book/0723e96d39a671b93bc06c2e50cba95d.pdf>

foydanmaslikka harakat etganligini quyidagi uning “In Our Time” (1925-y.) hikoyasidan keltirilgan matn vositada ko‘rishimiz mumkin:

We were in a garden in Mons. Young Buckley came in with his patrol from across the river. The first German I saw climbed up over the garden wall. We waited till he got one leg over and then potted him. He had so much equipment on and looked awfully surprised and fell down into the garden. Then three more came over further down the wall. We shot them. They all came just like that¹⁶⁰.

Xemingueyning o‘zgacha uslubini kuzatar ekan, Tomas Strichakz shunday deydi, “biz bayon etilgan voqeliklar yuzasidan shu qadar tez xulosa chiqaramizki, yo uning muallifi insonga xos bo‘lmagan tilni qo‘llagani yoki g‘ayriinsoniylikka qarshi qurol sifatida ishlatilganiga oydinlik kiritishni unutib qo‘yamiz”¹⁶¹. Yuqorida keltirilgan matn tahlilga tortilganda, aniqlandiki, har bir nuqtadan keyin oldingisiga mazmunan uyg‘unlashmagan yangi mazmunga ega gaplar tizilgan, masalan, “Yosh Bakli”dan keskin “Birinchi Nemis”ga yoki “Biz kutgandik” uzuquyuluq mazmundagi yangidan yangi gaplarga yakun yasalgan. Bu holat go‘yo boshqa har qanday tinish belgilarni istisno tariqasida qo‘llash maqsadida nuqtalarga ko‘proq diqqatni qaratish gaplar o‘rtasidagi ma’noning uzilishiga sabab bo‘lgan.

Biroq J.Nesfieldning fikriga ko‘ra, ingliz tilida tinish belgilari va pauzaning muvofiqligi ham hisobga olinadi¹⁶². M.Spenserning risolasiga asosan punktuatsion belgilardan foydalanishning ikki xil yo‘li mavjud bo‘lib, biri erkin, ikkinchisi esa muqimdir¹⁶³. Xeminguey ham aynan tinish belgilardan foydalanishning erkin usulini qo‘llagan.

2) *Stilistik tamoyil* – tinish belgilarining nutq shakllariga, adabiy til funksional stillariga bog‘liq holda ishlatilishidagi umumiy me’yor va qonuniyatlar shu tamoyil asosida belgilanadi. Agar fikr ifodalashning ikki xil stilistik ko‘rinishi hisoblanmish ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarda tinish belgilarining bir-biridan

¹⁶⁰ Hemingway, Ernest. In Our Time (1925). New York: Scribner’s, 1996.

¹⁶¹ Strychacz, Thomas. “In Our Time, Out of Season.” In The Cambridge Companion to Ernest Hemingway, edited by Scott Donaldson. New York: Cambridge University Press, 1996, 55–86.

¹⁶² Nesfield J.C. English Grammer Past and Present / J. C. Nesfield. –L., 2007. P.185

¹⁶³ Spencer M. A handbook of punctuation. – 2012 – Menasha, Wisconsin: George Banta Pub. Co.

tubdan farqli ishlatilishini ko‘z oldimizga keltirsak, stilistik prinsipning mohiyati yanada oydinlashadi. Stilik tamoyil keng ma’noda bo‘lib, tinish belgilarining ishlatilishidagi individual stilga – ayrim bir yozuvchining stiliga – xos tomonlarni ham o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda ingliz tilida murakkab va o‘ziga xos semiologik tizim, ya’ni punktuatsiya sistemasi vositasida amalga oshiriladigan nutqiy muloqotning qismlarga segmentatsiyalash masalasiga bag‘ishlanganligi alohida o‘rin tutadi.

Shuningdek, ingliz tilidagi tinish belgilari yozma matnning sintaktik jihatdan tuzilishini aks ettirishi yozuvchiga nutqning stilistik tomonini yoritib berishida imkon yaratadi.

Boshqacha aytganda, ingliz tilida punktuatsion belgilardan foydalanish sintaktik va semantik-stilik aspektlarning murakkab o‘zaro ta’siriga asoslanadi. Bunday hollarda yozuvchilarga tinish belgilari yordamida so‘zning qo‘sishimcha ekspressiv hissiy-bahosini ifodalash imkonini beradi. Asosan, ingliz tilidagi punktuatsion belgilari borasida prosodik nuqtayi nazardan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir tinish belgisi o‘ziga xos prosodik ifodaga ega. Masalan, tire maktubning kirish qismida, matnning xulosa qismida yoki ifodaning tugallanmaganligini hamda oxirgi ikkita so‘zning ta’kidlanganligini ko‘rsatish maqsadida qo‘llaniladi. Bu kabi tinish belgilarining prosodik xususiyatlarini davom ettirarkanmiz, nuqtali vergulning maktubda qo‘llanishi nomaga norasmiy yakun yasalganligini ko‘rsatib, og‘zaki nutqda ohang pasayib ikkita pauza orqali ifodalanadi. Nuqtali verguldan keyin kelgan birinchi urg‘u olgan bo‘g‘in hech qachon yuqori ohangda talaffuz qilinmasdan, o‘rtacha yoki past ohangda bo‘ladi. Bunday prosodik tahrirlash tinish belgisining semantik xususiyatini yaqqol namoyon etib, gapdag'i mustaqil bo‘laklarni ajratishga xizmat etadi.

Endi yozma nutqda qo‘llanib kelinayotgan, biroq matnlarda qanday vazifa bajarayotgani hozirgacha izohlanmagan bir qator shakllar haqida fikr yuritamiz. Mulohazalarimiz ularning punktuatsion belgilar ekanini matnlardagi bajargan vazifalari asosida isbotlashga qaratiladi. Biroq masalaning bu tomoniga o‘tishdan

oldin shunga bog‘liq ba’zi bir mulohazalarni bayon etish lozim bo‘ladi. U yoki bu xalqning yozuvi tarixi bilan shug‘ullangan tilshunoslarning fikricha, punktuatsion belgilarning vazifasi matnlarni ma’no va mazmunlari negizida qismlangan holda ko‘rsatishdan ham iborat bo‘lgan.

Ta’kidlash joizki, biz haligacha punktuatsion belgilarning stilistik-vazifaviy tabiatidan to‘liq boxabar emasmiz. Masalan, matnning kursivda ifodalanishi kabi ayrim jihatlar tinish belgilari qatoridan joy olmagan bo‘lsa ham, stilistik ma’no kasb etadi. Biroq so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kursiv (yotiqlar) belgisi mazmuni jihatdan semantik va prosodik-punktuatsion mohiyatga ega bo‘lganligi bois, to‘laqonli tinish belgilari qatoriga kiradi. Bundan tashqari, kursivning ingliz tilidagi matnlarda qo‘llanishi uning stilistik-vazifaviy jihatining mavjudligini belgilab beradi. Ilmiy matnlarda esa kursiv muhim ma’lumotlarni yetkazish maqsadida qo‘llaniladi. Ilmiy-filologik matnlar tahlilga tortilganda kursivning punktuatsion belgi sifatida quyidagi xususiyatlari aniqlandi:

- 1) *terminologik birliliklar;*
- 2) *tasviriy vositalar;*
- 3) *chet tiliga tegishli bo‘lgan leksemalar;*
- 4) *ilmiy, badiiy, adabiy, musiqiy va boshqa asarlar nomlari;*
- 5) *mantiqiy qarama-qarshilikni ifodalashga xizmat qiladigan leksik birliliklar;*
- 6) *boshqa millatlarning madaniyatini anglatuvchi birliliklar (ksenonimlar).*

Fikrimiz dalili sifatida quyidagi misollarni keltiramiz:

1. *This transmission of vibration from one body to another is known as resonance and the body to which the vibrations are transmitted is called a resonator¹⁶⁴.*
2. *Differences in pronunciation also allow us to distinguish longer forms such as grey tape from great ape; or my tight shoes from might I choose¹⁶⁵.*
3. *There is even a literary theory that a writer’s choice of words is limited by his context to one, le mot juste, or the exact word¹⁶⁶.*

¹⁶⁴ O’Connor J.D. Phonetics. Harmondsworth, Middlesex, England: Penguin Books Ltd, 2020. P.320

¹⁶⁵ O’Connor J.D.Ko‘rsatilgan asar. –P.15

4. *Had he lived he would himself have produced a new edition of Fowler's Modern English Usage* (1965)¹⁶⁷.

5. *However, ... it would be perfectly obvious that when you said **see** it was **you** saying it – it would have your individual voice quality – and when **I** said it it would have mine*¹⁶⁸.

Badiiy asarlarda kursivning qo'llanishidan maqsad – personaj nutqiga tavsif keltirish, shuningdek, ilmiy matnga xos bo'lgan barcha sanab o'tilgan vazifalar saqlangan holda ifodalanadi. Bu kabi kursivdan foydalanishning vazifaviy uslubi ekspressiv-hissiy baholovchi konnotatsiyalarning ifoda etilishi va estetik ta'sirni voqelantirishga yo'naltirilgan bo'lib, matn og'zaki ifodalanganda tembrli ohangda o'z aksini topadi.

Ushbu belgidan foydalanishdagi xilma-xillik yozuvchining uslubi va badiiy ma'noning ifodalanishiga bog'liq bo'lib, asar matnida kursiv bilan ajratilgan so'zlar, iboralar, ayrim hollarda, bo'g'inlar, gaplar, hattoki butun paragrafning belgilanganligini ham uchratishimiz mumkin.

Quyida keltirilgan gaplarda muallifning kursiv yordamida personaj nutqiga bo'yoq hamda urg'u berish maqsadida qo'llanganligini ko'rish mumkin:

1. *But, darling, you don't think he's my love, do you?*¹⁶⁹.

2. *I beg your pardon*¹⁷⁰.

3. `*Don't be natural*`, he told his company. `*The stage isn't the place for that. The stage is make – believe. But seem natural*`¹⁷¹.

4. “*He told him everything. Muriel. My word of honour. Dr. Sivetski said Seymour may completely lose contr –*”¹⁷².

5. “*Here comes a wave,*” Sybil said nervously¹⁷³.

¹⁶⁶ O'Connor J.D. Phonetics. Harmondsworth, Middlesex, England: Penguin Books Ltd, 2020. P.320

¹⁶⁷ Sir Ernest Cowers. The Complete Plain Words. London: Penguin Books, 2011. P.340

¹⁶⁸ O'Connor J.D. Ko'rsatilgan manba.

¹⁶⁹ Maugham W.S. Theatre. New York: Vintage, March 13, 2001. P.144

¹⁷⁰ Salinger J.D. Nine Stories. Franny and Zooey. Raise High the Roof Beam, Carpenters. M.: Progress Publishers, 2009. P.34

¹⁷¹ Maugham W.S. Ko'rsatilgan manba. –P. 24

¹⁷² Salinger J.D. Ko'rsatilgan manba. –P.29-30.

¹⁷³ Salinger J.D. Ko'rsatilgan manba. – P. 37.

Ta'kidlash joizki, matnda qo'llanilgan har bir tinish belgisi kodifikatsiyalangan me'yordan tashqari, matn mazmuniga ta'sir etuvchi, kerak bo'lsa uni tubdan o'zgartiruvchi jihatlariga ega bo'lib, yozuvchi ifodalagan matn mazmunini to'g'ri anglab, uni idrok etish faqat kitobxonning bilimi hamda dunyoqarashiga bog'liqdir.

3) *Differensiatsiya (farqlash)* tamoyili yozuvga xos vositalar, shakli bilan bevosita aloqadordir. Tinish belgilarining ilmiy asarlarda, ba'zi hujjatlarda (muktublar, e'lonlar, radio va televideniye dasturlari, kitob muqovalarida), havolalarda, manbalarda qo'llanishi ko'proq shu tamoyilga asoslanadi. Yozma nutqni soddalashtirish va qisqartirishda, tinish belgilarining qo'sha qo'llanishidagi tartib va tizimni belgilashda, yozma nutq qismlarining chegarasini aniqlashda – farqlashda – differensiatsiya tamoyilining o'rni beqiyosdir.

Binobarin, gapning sintaktik tuzilishi va ohangi mos kelmaganda, qoidaga muvofiq ohangga asoslangan holda tinish belgilari qo'yiladi. Masalan, ingliz tilida ayrim ergashgan gap turlarida sintaktik bo'linish ohang vositasida bo'lsa-da, bosh gap vergul bilan ajratilmaydi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi misolni keltiramiz:

I'm surprised that you haven't forgotten me.

Biroq shuni inobatga olish kerakki, tuzilishi bir xil bo'lgan gaplar ohangi va tinish belgilarining qo'llanishiga ko'ra turlichayi ifodalanishi mumkin. Masalan:

a. Tom Perry and I.

b. Tom, Perry and I.

c. The Monthly Review editor said the designer is a fool.

d. The Monthly Review editor, said the designer, is a fool.

Ushbu gaplarni tahlilga tortganda, aniqlandiki, (a) va (b) harflari bilan belgilangan gaplar ohangi va tinish belgilarining o'rni har xil, shuningdek, (c) va (d) dagi gaplar ham xuddi shunday bo'lib, ularning mazmuni ham mutlaqo birbiridan farq qiladi. Demak, punktuatsion belgilar gaplarda o'zaro ma'no farqlashga ham xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi matnda qo‘llanilgan bir xil tinish belgisi turli vazifalarni bajarishi ham mumkin. Biroq matnni anglashdagi noaniqlikni bartaraf etish maqsadida turli sintaktik birliklar tinish belgisi yordamida ajratib ko‘rsatiladi, masalan, quyida buyruq gapdan oldin kelgan bo‘lak murojaat ma’nosini kuchayritish uchun ajratib ko‘rsatilgan:

Those who can, contribute to the fund. (Qo‘lidan kelganlar, jamg‘armaga pul bering.) yoki vergulning o‘rni o‘zgartirilsa, boshqa ma’no ifodalaydi:

Those, who can contribute to the fund, should establish the account (Kimda kim jamg‘armaga ehson qilib o‘z hissasini qo‘shmoqchi bo‘lsa, hisob raqami ochishingiz kerak).

Ma’lumki, tinish belgilari semantikasi punktuatsiya tizimining asosiy omili hisoblanib, ularning qo‘llanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, tinish belgilarining ketma-ketlikda qo‘llanishining asosiy prinsiplari mavjud bo‘lib, ular semantik tarkibga muvofiq almashtirib qo‘llaniladi. Garchi, nuqta – fikrning tugal ma’nosini ifodalovchi belgi sifatida undov, so‘roq, ayrim qisqartmalar oxirida qo‘yilmasa-da, uning o‘rniga jumлага yakun yasovchi belgilar bilan bir vaqtida vergul ishlatiladi. Masalan:

It requires a sentence period; i.e., a full stop.

What we want to know is when?, but he has only told us why.

Shuningdek, tinish belgilarining yonma-yon yoki o‘zaro almashib kelishi muayyan belgidan foydalanishni belgilab beruvchi tamoyillarga amal qilish kerakligini taqozo etadi. Shu bilan birga, muallif tinish belgilaridan o‘ziga xos tarzda foydalanishning o‘zgaruvchanligini hisobga olishi kerak.

Ayrim badiiy adabiyotlarda muallif o‘z usuliga muvofiq tarzda tinish belgilaridan unumli foydalanadi. Garchi punktuatsiya belgilariga oid qoidalar barchaga tanish bo‘lsa-da, muallif tomonidan ifodalangan mazmunni idrok etishda biroz qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Negaki, tinish belgilarining qo‘llanilishi zarur bo‘lgan holatlar, jumladan, gap oxirida, yoki ishlatilishiga zarurat bo‘lmagan o‘rinlar mavjuddir. Ikkinchi holat kuzatilganda, ya’ni ishlatilishiga zarurat

bo‘lмаган о‘рнларда qо‘llanganda, kommunikativ vaziyatning o‘ziga xos xususiyatiga muvofiq ma’no va mazmunga aniqlik kiritiladi¹⁷⁴.

The biggest, tree in the forest is over here.

My mother is, going to kill me.

*I wrote, an essay yesterday*¹⁷⁵.

Tinish belgilarining bu kabi qonuniylashtirilmagan qо‘llanish holatlari ularning matnda ifodalangan turli ma’nolari va vazifalarini chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi. Masalan, quyidagi bir xil, biroq, tinish belgilarining o‘rni o‘zgartirilgan matnlarni tahlilga tortganda, ikki xil ma’no kasb etadi:

Demak Dear John,

I want a man who knows what love is all about. You are generous, kind, thoughtful. People who are not like you admit to being useless and inferior. You have ruined me for other men. I yearn for you. I have no feelings whatsoever when we’re apart. I can be forever happy—will you let me be yours?

Jane

Dear John,

I want a man who knows what love is. All about you are generous, kind, thoughtful people, who are not like you. Admit to being useless and inferior. You have ruined me. For other men, I yearn. For you, I have no feelings whatsoever. When we’re apart, I can be forever happy. Will you let me be?

Yours,

*Jane*¹⁷⁶

Birinchi xatda Jeyn Jonni sevishini ta’kidlasa, ikkinchi matnda esa o‘z holiga qo‘yishni so‘ragan. Faqatgina tinish belgilarining qо‘llanilgan o‘rniga qarab matn mazmuni ijobiydan salbiy ma’noga o‘zgarganligini aniqlash mumkin.

Ingliz tilidagi kabi o‘zbek tilida ham tinish belgilarining bиргаликда, ya’ni yonma-yon, ketma-ket, qo‘sш qо‘llanishi hodisasini uchratish mumkin. Tinish

¹⁷⁴ Jones B. What’s the Point? A (Computational) Theory of Punctuation. PhD thesis. University of Edinburgh, 1996. P. 9-10

¹⁷⁵ Jones B. Ko‘rsatilgan manba. –P. 10

¹⁷⁶<https://www.innocentenglish.com/learning-english-grammar-esl/dear-john-letter-importance-punctuation.html>

belgilarining qo'sh qo'llanishi yozma nutqning leksik-semantik, sintaktik-stilistik, tarkibiy va grammatik holatlari bilan chambarchars bog'liq bo'lib, o'z qo'llanish tizimi – qonuniyatiga egadir. Shuningdek, ularning qo'sh qo'llanishi turlicha maqsadga muvofiqlashgan bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra uch holatda uchratish mumkin:

1. Takroriy qo'sh qo'llanishda bir tinish belgisi takrorlanib keladi, masalan, so'roq belgisi ikkitagacha (??), undov belgisi uchtagacha (!!!) takror qo'llana oladi. Masalan:

Kimdir, uyingizga o't tushdi. – Nima??

Sen ham, odam bo'lib, kitob o'qisangchi?? (Oybek)

– Jallod!! – qo'rqqanidan baqirib yubordi shoh ("Latifalar")

Shohista. Tursunali!!

Tursunali. Bevafo!! (Uyg'un)

O'lim haq!!! (Hamid Olimjon)

Yuragimda yotar bir qayg'u,

G'azab bilan deyman: Yo'qol! Bas!! Yetar!!! (Uyg'un)

2. Oddiy qo'sh qo'llanishda har xil turdag'i ikki tinish belgi birgalikda ishlatiladi: ?!, ?.., !.. kabi.

3. Murakkab qo'sh qo'llanishida esa uch va undan ortiq har xil turdag'i tinish belgilar birgalikda ifodalanadi: *so'roq/ undov/ ko'pnuqta, so'roq +yopiluvchi qo'shtirnoq/tire* kabilardir. Ba'zan bir o'rinda ikki ochiluvchi yoki ikki yopiluvchi qo'shtirnoqlarning birgalikda (qo'sha) qo'llanishi lozim bo'ladi. Bunda ularning ikkalasi ham parallel ishlatilib, bittasi o'z shaklini o'zgartirmagan holda qo'yiladi. Buning qo'llanish sxemasi shunday:

"Sirdaryordan quyosh ko'tariladi, mamlakatga nur oqadi" deyishgan edi – dedi faxrlanib O'ktam. (Oybek.)

"Hali ham esimda dadam aytib bergen "Uch og'ayni botirlar,"" – deb maqtandi Salim.

Qo'sha qo'llangan qo'shtirnoqlardan biri "tashqi", ikkinchisi "ichki" qo'shtirnoq deb yuritiladi. "Tashqi" qo'shtirnoq har vaqt burchak shaklda (« »)

qo‘llanadi. Ba’zan bir o‘rinda ikki ochiluvchi yoki ikki yopiluvchi qavsning birga qo‘llanishi lozim bo‘ladi. Bunda har ikkisi bir vaqtda qo‘llanib, “tashqi” qavs o‘z shaklini o‘zgartirgan holda (“kvadrat qavs” shaklida) yoziladi. Bu holat matematik matnlarda ko‘proq uchraydi. Shuningdek, so‘roq va undov belgilari qo‘sha qo‘llanganda, avval so‘roq, so‘ng undov belgisi yoziladi. Masalan:

— *Ikkovimiz ham ishdan olinibmiz.*

— *A??!*

— *Ha!!*

Hosil ikki baravar ko ‘p-a! Hazilakammi?!

Shuningdek, o‘zbek tilida kvadrat qavs ham keng qo‘llanilib, asosan, lug‘atlarda uchratish mumkin, masalan:

Bastiliya j. Bastiliya [1. Parijdagi davlat turmasi; bu turma Fransiyadagi burjua revolyutsiyasining dastlabki kunlarida (1789-yil 14-iyulda) qo‘zg‘olon ko‘targan aholi tomonidan zabit etilib vayron qilingan;

Siyosiy turmalarga qo‘yilgai nom] (Ruscha-o‘zbekcha lug‘at, I tom, 1953, 78-bet).

Keltirilgan misollardagi kvadrat qavsning o‘rni va vazifasini ko‘zdan kechirsak, uning har ikki holatda ham o‘ziga xos xususiyati yaqqol seziladi: u oddiy qavs – () ning bilvosita ikki tomoniga yoki uning yopiluvchi qismi yopiluvchi qavsdan bevosita keyin qo‘yiladi. Demak, bu belgining asosan o‘ziga xos qo‘yilish o‘rni mavjud bo‘lib, ikkinchidan, vazifasi, asosan, qavs va uning ichi hamda tashqarisidagi yozuvlarni matnning boshqa qismlaridan ajratishdir. Bu kabi holatlar uning ham tinish belgilari sanog‘iga qo‘shish lozimligini ko‘rsatadi. Matnlar hajm va mazmuniga qarab, satr boshiga bo‘lingan qismlardan iborat bo‘ladi. Satrlarga ajratish esa biror mavzuni uning mazmuni asosida qismlarga bo‘lib, har bir qismni xat boshidan yozishdir. Satrlarga ajratish yo‘li bilan matnni qismlarga ajratish uning o‘qilishini osonlashtiradi.

Bitta so‘roq va ikkita undov belgisi qo‘sha qo‘llanilganda, tizimda “so‘roq+undov+undov” tarzida keladi, masalan:

— *Bo ‘lmasa, avval sizni o ‘ldirish kerak!*

– *Nima??! (“Latifalar”)*

Ayrim o‘rinlarda vergul va qavs qo‘sha qo‘llanganda, vergul yopiluvchi qavsdan so‘ng qo‘yiladi. Garchi, ochiluvchi qavsdan oldin ishlatilishi lozim bo‘lsa-da, vergul yopiluvchi qavsdan keyinga ko‘chiriladi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi gaplarni keltirib o‘tamiz: *Sultonali Mirzo xotinlar bilan so‘rashib* (*chunki O‘rdaga aloqalik xotinlarning hammasi unga tanishdir*), *Guljонни chetga chaqirdi.* (*Abdulla Qodiri*)

Qavs va nuqtaning qo‘sha qo‘llanishi quyidagi qonuniyatga asoslanadi (so‘roq, undov, ko‘pnuqta kabi tinish belgilarining qavs bilan qo‘sha qo‘llanish tizimi, tartibi ham shu qonuniyatga mos keladi):

1) agar nuqta qavs bilan chegaralangan matnning o‘ziga taalluqli bo‘lsa (unga bevosita aloqador bo‘lsa), yopiluvchi qavsdan oldin qo‘yiladi. Masalan:

Yo‘g‘-e, yo‘g‘-e. Ishongim kelmayapti. (Yana jadvalga qaraydi.) Rost, rost ekan. “Mashina!”

Hozir, hozir, Sarvixon. (Kichkina oynachaga qarab sochlarini tuzatadi). (*Uyg‘un*)

2) agar nuqta ham qavs bilan chegaralangan matnga, ham qavslari qism kiritilgan asosiy matnga, taalluqli bo‘lsa (ikkoviga bevosita aloqador bo‘lsa), yopiluvchi qavsdan so‘ng qo‘yiladi. Bunda qavs bilan chegaralangan qism sintaktik va semantik jihatdan asosiy gap bilan zich bog‘langan bo‘ladi. Bu holat dramatik va ilmiy asarlar uslubiga ko‘proq xos bo‘lib, boshqa nutq stillariga oid yozma matnlarda juda kam uchraydi. Misollar:

Dadavoy (Qodirga tushuntirib). Uchta qari ho‘kiz bor edi, sottirdim. (Oybek)

Xuddi o‘zbek tilidagi singari ingliz tilida ham tinish belgilari qo‘sha qo‘llanishi mumkin, ya’ni qo‘shtirnoq bilan nuqta yoki so‘roq belgisi yopiluvchi qo‘shtirnoqdan oldin qo‘llaniladi, masalan:

“*What did you say?*”

“*I said we could have everything.*”

“*We can have everything.*”

“*No, we can’t.*”

“We can have the whole world.”

“No, we can’t.”

“We can go everywhere.”

“No, we can’t. It isn’t ours any more.”

“It’s ours.”

“No, it isn’t. And once they take it away, you never get it back.”

“But they haven’t taken it away.”

“We’ll wait and see.” – o‘zbek tilidan farqli jihat shundaki, muallif gapi boshida tire qo‘llanilmasdan, qo‘shtirnoq ochilib, matn beriladi.

3.2.§. Ingliz va o‘zbek tillari punktuatsion belgilarining pragmatik xususiyatlari

Turli tizimli tillarda tinish belgilariga xos an'anaviy qonuniyati, asosan, yozuvchining matn yaratish jarayonida punktuatsion belgilardan foydalanish faoliyatini tizimli tartibga solish tamoyillarini ishlab chiqishda, avvalambor, belgilash me’yorini ilgari surish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, so‘zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ muloqoti jarayonida tinish belgilarining bajarayotgan vazifalarini inobatga olish kerak. Muloqot yoki mutolaa jarayonida yozuvchi va kitobxon tinish belgilarini qo‘llashda boshlang‘ich bilimlariga tayangan holda ifoda etishadi. Shu bilan birga, kodifikatsiyalangan tinish belgilaridan foydalanish me’yorlari matn ma’nosini to‘g‘ri idrok etishga yordam bersa, qoidalarga nomuvofiq holda qo‘llanganlari esa adekvat ma’noni anglashga xalaqit beradi. Biroq kitobxonning munosabatiga aniqlik kiritmasdan turib, yozma muloqot ishtirokchilarining o‘zaro bir-birini tushunishi, ayniqsa, punktuatsion belgilarning bu masalaga oydinlik kiritishga xizmat etuvchi vazifalari xususida so‘z yuritish mutlaqo noto‘g‘ridir.

Yana shuni aytish joizki, N.D.Golevning ta’kidlashicha, “tinish belgilarining matnni idrok etishdagi ta’siri nuqtayi nazaridan ushbu belgilarning kommunikativ ahamiyatini o‘rganish zarurati tadqiqotchini sintaktik noaniqlikka, xususan,

puntuatsion belgilarning omografizmiga olib keladi”¹⁷⁷. Modomiki shunday ekan, yozuvchi tomonidan matnda ifodalangan omonimik ma’nolarni tinish belgilari vositasida ajratilishiga aniqlik kiritish mumkin.

Ingliz tili puntuatsiyasining kommunikativ-vazifaviy masalalari ayrim tilshunoslar tadqiqotlarida o‘z asosini topgan.

Shuningdek, tinish belgilarining me’yor doirasida o‘rganilishi tilning ifodalinish masalasi bilan emas, balki nutq madaniyatini keng doirada tadqiq qilishni taqozo etadi.

Bir qancha chet el tilshunoslari nutqni yaratuvchi vositalarga aniqlik kiritish jarayonida nomukammal nutqqa murojaat qilish zarurligini ta’kidlashgan¹⁷⁸. Shu ma’noda, xorijiy psixolingvistikada nutqiy xatolarni¹⁷⁹, ya’ni ikkilanish ifodasi (hesitation)¹⁸⁰, nutqiy xatolarni to‘g‘irlashning o‘ziga xos usullarini¹⁸¹ o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi.

Ko‘plab tadqiqotlar og‘zaki nutqni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, uning yozuvda ifoda etilish masalasi e’tibordan chetda qolmoqda. Garchand nutq og‘zaki bo‘lsa-da, uning tahlilga tortilishi yozma matn orqali amalga oshiriladi.

Tinish belgilarining voqelangan yozma muloqot jarayonida qo‘llanish holatining tahlilida inson omili, ya’ni yozuvchi va kitobxon o‘rtasidagi kommunikativ o‘zaro ta’sirini hisobga olish tinish belgilarining ifodasini aniqlashga imkon yaratadi.

Tinish belgilarini o‘rganishda kommunikativ-pragmatik yondashuv uning vazifaviy tavsifining muhimligidan darak beradi. B.S.Shvarskop ta’kidlaganidek,

¹⁷⁷ Голев Н.Д. Исследование русской пунктуации в коммуникативном аспекте постановка проблемы и программа экспериментального исследования /Н.Д. Голев. // Языковая ситуация в России начала XXI века: Материалы международной научной конференции – Т.1. – Кемерово, 2002. – С. 146-160.

¹⁷⁸ Branigan, H. P., Pickering M. J., Tanaka M. Contributions of animacy to grammatical function assignment and word order production // Lingua, 118, 2, 2008.

¹⁷⁹ Dell, G. S., & Reich, P. A. (1981). Stages in sentence production: An analysis of speech error data. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior, 20, 611-629.; Fromkin V.A. (1971). The non-anomalous nature of anomalous utterances. Language, 47, 27-52.; Fromkin, V. A. (Ed.). (1973). Speech errors as linguistic evidence. The Hague: Mouton.; Garrett M.F. (2008). The analysis of sentence production. In G. H. Bower (Ed.), The psychology of learning and motivation (pp. 133-177). New York: Academic Press.

¹⁸⁰ Butterworth, B. (1980). Evidence from pauses in speech. In B. Butterworth (Ed.), Language production (Vol. 1, pp. 155-176). London: Academic Press.; Goldman-Eisler, F. (1968). Psycholinguistics: Experiments in Spontaneous Speech (London); Beattie, G. W., & Butterworth, B. L. (1979) Contextual probability and word frequency as determinants of pauses and errors in spontaneous speech. Language and Speech, 22, 201–211.

¹⁸¹ https://www.researchgate.net/publication/230876456_The_Preference_for_Self_Correction_in_the_Organization_of_Repair_in_Conversation.

“tinish belgilarining vazifaviy-tizimli tavsifi borasida ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan yondashuv mavjud:

1. Kommunikativ muloqotning asosiy vazifalaridan bo‘lmish, ma’lumotni yetkazish nuqtayi nazaridan e’tirof etilgan tinish belgilari;

2. Kitobxonning matndagi tinish belgilarini idrok etish nuqtayi nazari”¹⁸².

Ya’nikim yozuvchi ma’no ifodasi orqali matnni yetkazish, kitobxon bo‘lsa, tayyor matnda yashiringan ma’noni idrok etish.

Fikrni yozuvda bayon etish o’laroq, kommunikativ maqsadni ifodalash uchun tinish belgilarini me’yorga muvofiq qo’llash va boshqa tomondan, yozuvchi va kitobxонни bir xil tag ma’nadan foydalanishi yozilgan matn mazmunini adekvat anglashga yordam beradi. Yozma matn ifodasidagi umumiy vazifa va ma’noga ega belgilarga barqarorligi hamda me’yoriyligi jihatdan muvofiqlashgan tinish belgilarining ijtimoiy mohiyatini namoyon etadi.

Ba’zan “yozuvda me’yorning buzilishi, jumladan, punktuatsion xatolarning yuzaga kelishiga tinish belgilari tizimining ijtimoiy xususiyatlarining o‘ziga xos bo‘lgan jihatni semantik-stilistik vazifaning matnda ifodalanishi sabab bo‘ladi”¹⁸³. Hozirda tinish belgilarining noto‘g‘ri qo’llanishi yozma matnni idrok etish va tushunish jarayonlariga salbiy ta’sir ko’rsatishi e’tirof etiladi. Biroq N.D.Golevning fikriga ko‘ra, “bunday xulosaga kelish turli tizimli tillar doirasida tahlillarni amalga oshirgan holda isbot talab qiladi, chunki tinish belgilsiz ifodalangan yozma nutqning turli ko‘rinishlari kommunikativ muloqotdagi tushunmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘la olmaydi”¹⁸⁴.

Kommunikativ faoliyatning muvaffaqiyatli yakun topishida yozuvchining tinish belgilarini to‘g‘ri qo’llaganligi emas, balki ma’lum ma’noni ifodalashga yo‘naltirilgan maqsadga erisha olganligi muhim hisoblanadi. Yozuvchi va kitobxonning matnni o‘zaro bir xil tushunishdagi yakdilligi asosiy ahamiyat kasb

¹⁸² Шварцкопф Б.С. Современная русская пунктуация: система и ее функционирование. – М., 2002.–190 с.

¹⁸³ Тискова О.В. Экспериментальное изучение русской пунктуации в функциональном аспекте (на материале интерпретации читающим письменных текстов): дисс. ... канд. филол. наук. / О.В. Тискова. –Барнаул, 2004. – С. 72

¹⁸⁴ Голев Н.Д. Исследование русской пунктуации в коммуникативном аспекте постановка проблемы и программа экспериментального исследования /Н.Д. Голев. // Языковая ситуация в России начала XXI века: Материалы международной научной конференции – Т.1. – Кемерово, 2002. – С. 146-160

etadi. Yana shuni inobatga olish kerakki, vaziyatli muloqot nutqning maxsus ma'lumot mazmuni va ekspressivligini ta'minlaydi. Shuningdek, vaziyat me'yorlari matndagi ma'lumotlarning tabiatini bilan belgilanib, ular me'yorga muvofiq ifodalangan tinish belgilari mantiqiy-semantik, urg'u yordamida ajratib ko'rsatish, ekspressiv-hissiy va ishora berish vazifalarini bajaradi. Vaziyat me'yoriga bo'ysunadigan belgilarni muallif tomonidan yaratilgan deya tasniflash xato, chunki ular vazifaviy jihatdan turli matnlarning umumiyligi stilistik xususiyatlarini aks ettiradi. Bu kabi belgilar yaratilgan matn semantikasi va strukturasi bilangina tartibga solinib, kodifikatsiyalangan umumiyligi belgilar qatoriga kiradi.

Ma'lumki, jahon va ingliz tilshunoslari gapning to'rt turi, jumladan, tasdiq, so'roq, buyruq va undov turlari mavjudligini e'tirof etishgan. Grammatiklarning fikriga ko'ra, "undov gaplar biror-bir vaziyat yoki muloqotning ma'lum darajasini ifodalovchi baholash omili vazifasini bajaradi, xolos. Shu sababli, muallif tomonidan belgilangan ma'no faqat ohang vositasida aniqlanishi mumkin"¹⁸⁵. Quyidagi undov gap ijobiy va salbiy ma'no anglatadi:

"*What a book!*"

O'zbek tilida ham ingliz tilidagi kabi undov gaplarning ikki xil ma'no ifodalashini kuzatish mumkin, masalan:

"*Buncha aqllisan!*" – Ushbu gapda ijobiy ma'no hayratlanishni anglatsa, salbiy esa kinoyali ohangda ifodalanadi. Shuningdek, bu kabi gaplar emotsiyonallikni anglatib, kuchli ko'tariluvchan, to'lqinli ohang bilan aytildi:

– *Qurib qolibsiz, xuddi payraxa, limonday sarg'ayib ketibsiz!* (*Артур Конан Доїл.*)

– *Yolg'iz yashagandan ko'ra ikki kishi bo'lib yashash yaxshi-ku!* (*Артур Конан Доїл.*)

Tarkibi jihatdan undov gaplar "*what/nima*" (ot so'z birikmasi) yoki "*how/qanday*" bilan boshlanib, aynan boshlang'ich leksemalar gapdagi boshqa

¹⁸⁵ Беляева М.А. Грамматика английского языка. Учебное пособие для неязыковых вузов. – Москва, изд-во: Высшая школа, 1971. – С. 268–269

bo‘laklarni almashtirishi mumkin. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi gaplarni tahlilga tortsak:

- 1) To‘ldiruvchi – “*What a time we ‘ve had today!*”
 - “*Qanday bema ‘ni valdirash!*” (*Артур Конан Дойл.*)
- 2) Hol – “*What a long time it lasted!*” (*Quirk, Greenbaum 1976: 203*).
 - “*Xolms bilganlarini qancha hisoblama, ularning nimaga kerakligi, qaysi kasb talab qilishini anglay olmaysan! – dedim o ‘zimga.*” (*Артур Конан Дойл.*)
- 3) Aniqlovchi – “*Yolg‘iz odamning bepoyon London bag ‘rida tanishini uchratishi qanday quvonchli!*” (*Артур Конан Дойл.*)
 - “*What/nima*” olmoshi va “*how/qanday*” ravishi:
 - “*How clever he is!*”;
 - “*What fine weather it is!*”
 - jumlalardagi singari darak, so‘roq, buyruq va undov gap turlarida ham qo‘llanishiga zarurat tug‘iladiki, xuddi shu gaplar tasdiq yoki inkor ma’no ham ifodalaydi. Shuningdek, so‘zlovchi yoki personajning biror narsadan ta’sirlanganligi yoki hayajonlanganligini bir yoki bir necha so‘zdan iborat so‘z yoki ibora aks ettirishi mumkin, masalan:
 - “*Gosh!*”
 - “*Oh dear!*”
 - “*Of all the nerve!*”
 - “*Oh! a mystery is it?*” *I cried, rubbing my hands.* (*Артур Конан Дойл.*)

O‘zbek tilidagi matnlarda bir leksemadan iborat gaplar orqali personajning hissiy-emotsionalligini ko‘rsatish mumkin:

- *Ha-ha!* – *U yangi qo ‘g‘irchoq olgan yosh boladay quvonchdan yashnab chapak chaldi.* (*Артур Конан Дойл.*)
- *Ah, sho ‘rlik!* – *hamdardlik bildirdi u ahvolimni bilgach.* (*Артур Конан Дойл.*)
- *Jin ursin!* – *xitob qildim men.* (*Артур Конан Дойл.*)

Biroq undov gap tuzilishi ularni gaplar, savollar va undalmalar orasida ajratib turadigan to‘liq jumlada ham ifodalanadi. Bunday hollarda ular “*what/nima*” yoki

“*how/qanday*” leksemalari, so‘ng ega va kesim ketma-ketligida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda bir qismigina saqlab qolingan tugallanmagan gap ko‘rinishida ham keladi:

“*What a mess!*”

“*How nice!*”

“*What ineffable twaddle!*” *I cried, slapping the magazine down on the table; I never read such rubbish in my life.*”

Ingliz tilidan farqli ravishda o‘zbek tilida *qanday*, *nima* olmoshlaridan tashqari *nega*, *qayer* kabi olmoshlari ishtirokida ham undov gaplar yasaladi:

– *Qayerdan bilganingiz yolg‘iz Xudoga ayon bo‘lsa ham!*¹⁸⁶

– *Negadir juda ko‘p narsani bilarkansiz!*¹⁸⁷

– *Nima bo‘lsa bo‘lar-u faqat Skotlend-yarddagi “do‘stlar” hid olmasin!*¹⁸⁸

Shuningdek, o‘zbek tilida kuchaytirish ma’nosini ifodalovchi *shunday* leksemasi mavjud bo‘lgan gaplar ham undov ma’nosini ifodalaydi, masalan:

– *O‘ylab ko‘ring, shunday noyob omadni qo‘ldan chiqarishni!*¹⁸⁹

Yana shuni ta’kidlash joizki, kamdan kam hollarda undov gap tarkibining teskari tartibda kelishi kuzatiladi:

“*How often have I cursed that terrible day!*”¹⁹⁰.

Tilshunoslar nafaqat maxsus tartibga ega “*what*” yoki “*how*” leksemalari bilan boshlanadigan undov gaplarni tadqiq etishgan, balki ular oddiy buyruq gapga, shuningdek, ekspressiv fe’lsiz konstruksiyaga ham aylanishi mumkinligini ta’kidlashgan¹⁹¹, masalan:

“*Look at that!*”

“*Oh, that’s a shame!*”

“*Indeed!*” *I murmured*¹⁹².

“*To forget it!*”¹⁹³”

¹⁸⁶ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba. –Б.37

¹⁸⁷ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba. –Б.38

¹⁸⁸ Артур Конан Дойл. Окка қизил билан: қисса/А.К.Дойл; тарж. Ориф Фармон. – Т.: Davr Press, 2009. – Б.47

¹⁸⁹ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba. –Б.39

¹⁹⁰ David Crystal. English as a global language. Cambridge & New York: Cambridge University Press, 1997. P. 219

¹⁹¹ Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S. and Finegan, E. (1999) Longman Grammar of Spoken and Written English. London: Pearson Education. P. 219

¹⁹² Arthur Conan Doyle. A Study in Scarlet. <https://sherlock-holm.es/stories/pdf/a4/1-sided/stud.pdf>

¹⁹³ Arthur Conan Doyle. Ко‘rsatilgan manba

“But the Solar System!” I protested¹⁹⁴.

O‘zbek tilida ham ingliz tilidagi singari yuqoridagi holatlarni uchratish, shuningdek, kesimi **-moq, -sh(-ish)** affiksli harakat nomi infinitiv ifodalangan gaplar undov ohangi va emotSIONALLIKKA ega bo‘lib, bunday infinitiv gaplarning kesimi “harakat nomi – *kerak (lozim, darkor, zarur)*” ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin, masalan:

- *Bunga o ‘xhash hollarni zudlik bilan unutish zarur, do ‘stim, Uotson!*
- *Salom! – qutladi u va qo ‘limni shunday qattiq qisdiki, barmoqlarimdan nimanidir bilib olayotganiga sira shubham qolmadi*¹⁹⁵.
- *G‘aroyib! G‘aroyib!*¹⁹⁶
- *Juda qiziq! Bizni tanishtirganingiz uchun rahmat, bilasizmi, “insoniyatni tushunish uchun odamning ruhiyatini o‘rganish kerak.*¹⁹⁷
- *So ‘zsiz! – deb javob berdi ikkovi*¹⁹⁸.
- *Qad rostlang! – qat’iy baqirdi Xolms va oltita juldurvoqi safga tizilib, kichkina badbashara haykalchalarday qotdi*¹⁹⁹.

Bundan tashqari, shakli umumiy savollarga o‘xhash, yozuvda undov belgisi bilan yoziladigan va ohang tushishi bilan talaffuz qilinadigan undov savollarini ajratib ko‘rsatish mumkin va matn muallifi rozilik javobini eshitishni kutadi, masalan:

*“Hasn’t she grown! (She’s grown very very much!) ”*²⁰⁰;

Do you recognize that letter? (The addressee is aware of the letter) (Voynich);

Is this a dagger that I see before me? (Shakespeare);

- *Siz shunday voqeа to ‘g‘risida orzu qilgandingiz-ku, Xolms!*²⁰¹
- *U kelganda siz uxlagan bo ‘lgansiz-da?*²⁰²

¹⁹⁴ Arthur Conan Doyle. Ko‘rsatilgan manba

¹⁹⁵ Артур Конан Дойл. Оқка қизил билан: қисса/А.К.Дойл; тарж. Ориф Фармон. – Т.: Davr Press, 2009. – Б.8

¹⁹⁶ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba – Б.9

¹⁹⁷ Артур Конан Дойл. Оқка қизил билан: қисса/А.К.Дойл; тарж. Ориф Фармон. – Т.: Davr Press, 2009. – Б.11

¹⁹⁸ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba. – Б.28

¹⁹⁹ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba – Б.50

²⁰⁰ Geoffrey N. Leech, Geoffrey Leech, Jan Svartvik. A Communicative Grammar of English. Front Cover. Longman, 2002 – English language – Р. 119–120

²⁰¹ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba. – Б.24

— *Nahotki bu shunchaki tasodif! — xitob qildi u nihoyat va stuldan sapchib turib jahl bilan xonada yura boshladi*²⁰³.

Y.S.Petrovaning fikriga ko‘ra, “undov gaplar maxsus bo‘yoqni ifodalashi muhim emas, negaki, ular muhim ahamiyat kasb etmagan ma’lumotlarni ifodalaydi. Shuning uchun bunday gaplar alohida kommunikativ tur hisoblanishi kerak”²⁰⁴. Yana shuni inobatga olish zarurki, yozma nutqda tartibi jihatdan undov gap bo‘lsa-da, undov belgisi qo‘yilmagan holatlar ham kuzatilishi mumkin.

Shuningdek, aks sado undovi yoki so‘roq gaplar oldingi ifodalangan fikrning bir qismini undov ohangi yordamida takrorlab, ko‘p hollarda hayratlanish ma’nosini aks ettiradi. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi gaplarni keltiramiz:

“*A: I’m going to London for a holiday.*

B: To London! That’s not my idea of a rest.”²⁰⁵;

“*Oh! How I wish – But what is the use of WISHing? (Fowler);*

I KNOW YOU WILL LAUGH at me,’ he replied, ‘but I really can’t exhibit it. I have put too much of myself into it.’

Lord Henry stretched his long legs out on the divan and shook with laughter.

*‘Yes, I KNEW YOU WOULD LAUGH; but it is quite true, all the same.*²⁰⁶;

“*Never mind,*” said he, chuckling to himself “*The question now is about haemoglobin. NO DOUBT you see the significance of this discovery of mine?*”

“*It is interesting, chemically, NO DOUBT,*” I answered, “*but practically*²⁰⁷

“*Yes, but it may be pushed to excess. When it comes to BEATING THE SUBJECTS in the dissecting-rooms with a stick, it is certainly taking rather a bizarre shape.*”

“*BEATING THE SUBJECTS!*”

O‘zbek tilida ham leksema va jumlalarning takrorlanishida undov belgisini qo‘yish holati kuzatiladi:

²⁰² Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba. – Б.56

²⁰³ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba. – Б.63

²⁰⁴ Петрова Е.С. Сопоставительная типология английского и русского языков. Грамматика: учеб. пособие для студ. учреждений высш. проф. образования. – СПб., М.: Academia, Филологический ф-т СПбГУ, 2011. – С. 253-254

²⁰⁵ Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Grammar of Contemporary English. London – N. Y.: Longman, 1972. P. 356

²⁰⁶ Oscar Wilde. The Portrait of Dorian Gray. Lippincott's Monthly Magazine. 1890. P. 356

²⁰⁷ Arthur Conan Doyle. A Study in Scarlet. <https://sherlock-holm.es/stories/pdf/a4/1-sided/stud.pdf>

– Hayron bo ‘lyapsiz, shekilli, – dedi u jilmayib. – Aqlimni kiritganingiz uchun rahmat, amma endi uni tezroq UNUTISHga harakat qilaman.

– UNUTISH?!²⁰⁸”

Ta’kidlash joizki, V.V.Vinogradov darak gaplarni maqsadiga ko‘ra uchta katta guruhga ajratadi, ya’ni darak, so‘roq, undov gaplar. Shuni inobatga olish kerakki, ushbu uch guruhga tegishli bo‘lgan gaplar hissiy bo‘yoqdorlik bilan ifodalansa, ular oxiriga undov belgisi qo‘yiladi. Bu kabi gaplar turli emotsional ma’noga ega bo‘lib, ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. So‘zlovchining har qanday voqelik dalillariga hissiy va intellektual munosabatini ifodalovchi gaplar, jumladan, ishonch, noaniqlik, ajablanish, nafrat, shubha, ishonchsizlik;
2. So‘zlovchining o‘z hissiy kechinmalarini ifodalovchi jumlalar: noziklik, sevgi, qo‘rquv, dahshat, nafrat va boshqalar.

Undov gaplar alohida guruhga ajratilmaganligiga qaramasdan, ular maxsus belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Binobarin, ohang vositasida aks ettiriladigan his-hayajonli gaplardan tashqari, emotsionallikni ifodlashning yana bir usuli – bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralarni qo‘llashdir. Masalan:

“By Jove!” I cried; “if he really wants someone to share the rooms and the expense, I am the very man for him.

“Oh, I didn’t say there was anything against him.

“Poor devil!” he said, commiseratingly, after he had listened to my misfortunes.

O‘zbek tilidagi gaplarda ham kuzatiladi:

– *Surbet, ablah!*²⁰⁹

– *O’sha Milon deganlari bilan bajonidil abordaj usulida ham jang qilib, tanobini tortib qo‘ygan bo‘lardim, jin ursin!*²¹⁰

²⁰⁸ Артур Конан Дойл. Окка кизил билан: кисса/А.К.Дойл; тарж. Ориф Фармон. – Т.: Davr Press, 2009. – Б.14

²⁰⁹ Артур Конан Дойл. Шерлок Холмснинг сўнгги саргузаштлари: хикоялар / А. К. Дойл ; тарж. X. Муродов; мухаррир М. Омон. – Тошкент : Yurist-media markazi, 2017. – Б. 7

²¹⁰ Артур Конан Дойл. Ко‘rsatilgan manba– Б.7.

– *Yo tangrim, madad ber! – deya Tom Brodxeरst alamdan boshini qayerga urishini bilmay, dod solib yubordi*²¹¹.

Shuningdek, ma'noga hissiy bo'yoq berish maqsadida *qanday/how, shunday/such* olmoshlari qo'llaniladi. Bundan tashqari, bu kabi emotSIONallikni ifodalash usullari birlashishi ham mumkin. Yana shuni qo'shimcha qilish kerakki, undov gaplarning alohida turlari salomlashish, tilak bildirish, xayrlashish qismlaridan iborat bo'lsa-da, ovozni balandlatish orqali ifodalanadi.

Ma'lumki, undov belgisidan tashqari tire, ko'p nuqta va shu kabi tinish belgilarining badiiy asar personaji nutqining emotSIONal-ekspressivligini oshirish, kitobxonga o'zgacha ta'sir etish maqsadida qo'llanilganligini uchratish mumkin. Masalan, Artur Konan Doylning "Oqqa qizil bilan" qissasidan keltirilgan quyidagi parcha va uning o'zbek tilidagi tarjimasida aks ettirilgan ma'lumotlarga diqqatimizni qaratsak:

"*It is interesting, chemically, no doubt,*" I answered, "*but practically*"²¹²

O'zbek tilidagi tarjima matni

"– *Kimyoviy reaksiya sifatida, so'zsiz qiziq, – javob berdim men, – ammo amaliy tomondan...*"²¹³

Ingliz tilidagi matnda personaj nutqi "*but practically*" jumlalari bilan yakunlangan bo'lib, gap oxirida hech qanday tinish belgisi qo'llanilmagan. O'zbek tilidagi tarjima matnida esa "– *ammo amaliy tomondan...*" tire hamda gap so'ngida ko'p nuqtani ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz. Demak, ingliz tilidagi matnda gap tugallanmaganligi bois o'zbekcha tarjimasida ko'p nuqta ifodalangan bo'lib, personajning suhbatdoshining fikriga ishonchsizlik bildirayotganligidan, ya'ni ikkilanishidan darak beradi. Shuningdek, keyingi Jek Londonning "Martin Iden" asaridan keltirilgan matn va uning o'zbek tilidagi tarjimasida tinish belgilarining qo'llanilish o'rinalarini tahlilga tortamiz:

"*It was just an accident,*" he said, putting his hand to his cheek. "*One night, in a calm, with a heavy sea running, the main – boom-lift carried away, an' next the*

²¹¹ Артур Конан Дойл. Ко'rsatilgan manba. – Б.27

²¹² Arthur Conan Doyle. A Study in Scarlet. <https://sherlock-holm.es/stories/pdf/a4/1-sided/stud.pdf>

²¹³ Артур Конан Дойл. Окка кизил билан: кисса/А.К.Дойл; тарж. Ориф Фармон. – Т.: Davr Press, 2009. – Б.8.

tackle. The lift was wire, an' it was threshin' around like a snake. The whole watch was tryin' to grab it, an' I rushed in an' got swatted." (Martin Eden – Jack London)

"Oh," she said, this time with an accent of comprehension, though secretly his speech had been so much Greek to her and she was wondering what a lift was and what swatted meant" (Ruth – Jack London)²¹⁴.

O‘zbek tilidagi tarjimasi:

*“– Shunaqa bir voqea bo‘lgan edi, – dedi u qo‘li bilan yonog‘ini silarkan. – Bir kun kechasi kuchli to‘lqin paytida **grot** hamma **lash-lushlari** bilan dabdala bo‘lib ketdi. Tross simdan edi, u ilonday to‘lg‘anib duch kelganini qamchilay boshladi. Vaxtadagilarning hammasi uni ushslashga otildi. Men ham unga tashlanib, tutib bog‘ladim, o‘sanda yuzimga **sharaqlab kelib tekkan edi**” (Martin Iden – Jek London).*

*“– O‘! – dedi qiz yana, bu safar birmuncha hamdardlik bilan, lekin baribir u “**grot**”, “**tros**” so‘zlarining **ma’nosiga aslo tushunmas edi**” (Ruf – Jek London)²¹⁵. Ushbu matnda belgilangan so‘z va iboralar Martinning faqat o‘z doirasidagi kishilar bilangina muloqoti ko‘ngildagidek bo‘lishi mumkinligidan va uning nutqi kasbi tufayli cheklanib qolganligidan darak berib, ingliz tilidagi matnda lift was and what swatted meant tire qo‘llanganligi personaj nutqidagi pauzalarning o‘rnini ko‘rsatib, uning so‘zlovchi nutqiga nisbatan noaniqlikni his etganligini anglatadi. O‘zbek tilidagi tarjima matnida esa tarjimon shunchaki “**grot**”, “**tros**” so‘zlarining **ma’nosiga aslo tushunmas edi** – jumlalari bilan ifodalab, tire o‘rniga tushunarsiz bo‘lgan so‘zlarni qo‘shtirnoqqa olgan holda ularga urg‘u bergenligi bilan tarjimadagi qo‘llanilgan tinish belgilarining adekvatligiga erishgan.*

Yuqorida ta’kidlangan mulohazalarga aniqlik kiritish uchun “Martin Iden” asari, uning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalaridan keltirilgan parchalarga diqqatimizni qaratsak:

E’tiborimizni yana bir misolga qaratamiz:

²¹⁴ Jack London. Martin Eden. <https://standardebooks.org/ebooks/jack-london/martin-eden>

²¹⁵ Лондон, Ж. Мартин Иден: роман / Жек Лондон; тарж. К.Мирмуҳамедов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.13.

“Yes, thank you,” she said. “Swinburne fails, when all is said, because he is, well, in delicate. There are many of his poems that should never be read. Every line of the really great poets is filled with beautiful truth, and calls to all that is high and noble in the human. Not a line of the great poets can be spared without impoverishing the world by that much.”

“I thought it was great”, he said hesitatingly, “the little I read. I had no idea he was such a--a scoundrel. I guess that crops out in his other books”²¹⁶.

O‘zbek tilidagi tarjima:

“— Ha, ha... Minnatdorman sizdan, — deb javob berdi qiz. — Suinbern shuning uchun ham buyuk shoir bo‘la olmadiki, ochig‘i, u ba’zida xiyla qo‘pol yozadi. Uning o‘qishga arzimaydigan she’rlari ham bor. Chinakam shoirning har bir misrasi go‘zal haqiqat bilan boyitilgan bo‘ladi va insonni eng yuksak va oljanob tuyg‘ular sari chorlaydi. Buyuk shoirning asaridan bir misrasini ham olib tashlab bo‘lmaydi. Unday qilinsa, jahon ko‘p narsani yo‘qotgan bo‘lur edi”.

“— Mana bu yerda o‘qiganlarim, — taraddudlanib gapira boshladi yigit, — judayam yaxshi she’rga o‘xshadi... Mening xayolimgayam kelgani yo‘q edi uning bunaqa... bunaqa betayinligi. Ehtimol, uning boshqa kitoblari shunaqadir”²¹⁷.

Asliyatdagi such a--a noaniq artiklning va ular o‘rtasidagi defisning takrorlanishi asar qahramonining his-hayajonini ifodalash maqsadida qo‘llanilgan bo‘lib, uning o‘zbek tilidagi tarjima matnida esa bunaqa... bunaqa so‘zlarining takrorlanishi va ko‘p nuqta orqali ifodalangan. O‘zbek tilida ko‘p nuqta fikrning yakun topmaganligidan darak bersa, ingliz tilidagi matnda esa defis orqali pauzaga ishora etilgan. Demak, tarjimon adekvatlilikni ta’minlash maqsadida tiredan foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu bilan birga ingliz tilida noaniq artiklning so‘z birikmalari tarkibida takrorlanishi asar qahramonining hayajonlanayotganini ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Yuqorida keltirilgan gaplar tahlillaridan aniq bo‘ladiki, ingliz va o‘zbek tillarida tinish belgilarining grammatik vazifasidan tashqari pragmatik ma’noni

²¹⁶ Jack London. Martin Eden. <https://standardebooks.org/ebooks/jack-london/martin-eden>

²¹⁷ Лондон, Ж. Мартин Иден: роман / Жек Лондон; тарж. К. Мирмуҳамедов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – С.13.

ham ifodalashdan iborat bo‘lib, ular a) mantiqiy-ma’noviy b) hissiy-ajratuvchi v) ekspressiv-emotsional va g) ishoraviy xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi. Ta’kidlash joizki, ingliz va o‘zbek tillaridagi qo‘llanish o‘rnlari har xil bo‘lishiga qaramasdan, ma’no ifodalarining bir xillikni kasb etishi dalillandi.

3.3.§. Asliyat matnidagi tinish belgilarining tarjima matnlarida ifodalanishining pragmalingvistik tahlili

Ma’lumki, tarjima nazariyasida va amaliyotida leksik birliklar, iboralar, jumla va matnlarning mazmunini to‘g‘ri idrok etish va tarjima tilida muqobil namoyon etish asosiy maqsadlardan sanaladi. Biroq so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar matn mazmunini ifodalashda nafaqat leksemalarning stilistik bo‘yoqdotligi, balki mazmunga bevosita daxldor bo‘lgan tinish belgilarining o‘rni beqiyosligini ko‘rsatadi. Tarjima borasida gap borar ekan, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, matnda qo‘llanilgan har qanday so‘z va belgi tarjimon nazaridan chetda qolmasligi darkor. Shu o‘rinda tarjima borasida bildirilgan fikrlarni keltirib o‘tishni joiz topdik. V.A.Jukovskiy “nasr tarjimoni asliyat quli, she’riyat tarjimoni raqibidir,”²¹⁸ – deya izohlaydi va u nazmiy asarlar tarjimasiga nisbatan “matn xususida mustaqil foydalanadigan fikr-mulohazalar va vositalarga ega bo‘lganligi sababli, tarjimon uning yaratuvchisiga aylanadi,”²¹⁹ – degan fikrni ilgari suradi. M.N.Xolbekovning “tarjima yuksak san’at: tarjimon esa ijodkordir”²²⁰ va Sh.Z.Dolimovning “badiiy adabiyot tarjimoni aslida – mustaqil yozuvchidir”²²¹ degan fikrlari tarjimon o‘z mehnati bilan asliyat tilida yaratilgan asarning muallifiga aylanishidan darak beradi. G‘.Salomov ta’kidlaganidek, “...so‘z san’atining tur va xillari, uslub va usullari rang-barang bo‘lganidek, uning tarjimasida ham xilma-xil tadbirlar, yo‘llar, usul va uslublar mayjud”²²². Tarjima turlari, jumladan, “ijodiy tarjima, so‘zma-so‘z tarjima, erkin tarjima, moslama

²¹⁸ Жуковский В.А. Сочинения в стихах и прозе / Под ред. П.А.Ефремова.10-е изд. – М.: СПб., 1901. – С.833

²¹⁹ Жуковский В.А. Ко‘rsatilgan manba. – С.854

²²⁰ Холбеков М.Н. Таржимашунослик ва таржима танқиди. – Т.: Наврӯз, 2014. – Б.64

²²¹ Долимов Ш.З. Таржима санъати ва муаммолари. – Т.: 2009. – Б.13

²²² Саломов F. Таржима назарияси асослари. – Т.:Ўқитувчи, 1983. – Б.39

tarjima,”²²³ ham nasriy, ham nazmiy asarlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tarjimon o‘ziga va matnga mosini tanlab, undan foydalanadi. Ba’zan asliyat muallifi keltirgan lingvistik vositalarni tarjimon ona tilida topolmaydi va ularni o‘z tilida yaratishga majbur bo‘ladi. Nazmiy asar tarjimasida ham tarjimon asliyatdagi stilistik vositalarni saqlab qolishi kerak. Aks holda asliyat ruhiyatidan kitobxon bebahra qoladi. Gyote ta’kidlaganidek, “so‘z emas, balki fikr asarga jon baxsh etadi”²²⁴. Shunday ekan, tarjimon nasrda bo‘ladimi, nazmda bo‘ladimi o‘ziga maqbul bo‘lgan yo‘lni tanlab olishi kerak. Binobarin, tinish belgilarining qo‘llanilishi ohang, ma’no va grammatik qurilishga bog‘liq bo‘lib, gap mazmunini tubdan o‘zgartiradi. Gapda tinish belgilarining o‘rni o‘zgarsa, gapning mazmuni va sintaktik tuzilishi ham o‘zgaradi. Tinish belgilarining qo‘llanilishi har bir tilda, jumladan, ingliz va o‘zbek tillarida turlichadir. Bunga ishonch hosil qilish uchun ingliz badiiy matnlari va ularning o‘zbekcha tarjimalarida tinish belgilarining o‘ziga xos va o‘xhash bo‘lgan jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Ma’lumot tariqasida Jek Londonning “Martin Iden” asari va uning o‘zbek tilidagi tarjima matnlarida aks ettirilgan punktuatsion belgilari xizmat qilishi mumkin. Ular, jumladan, asar qahramonlaridan biri – Martin Iden va uning boshqa bir qahramon – Arturga yo‘llagan nutqida aniq qilib tasvirlangan:

- “*Hold on, Arthur, my boy*”, he said, attempting to mask his anxiety with facetious utterance. “*This is too much all at once for yours truly. Give me a chance to get my nerve. You know I didn’t want to come, an’ I guess your fam’ly ain’t hankerin’ to see me neither*”²²⁵.
- “*Artur, azizim, birpas sabr qilsangiz, – dedi u o‘zining xijolat bo‘lganini yashirish uchun hazilomuz ohangda. – Dabdurstdan bunchalik dabdaba men uchun judayam ortiqcha bo‘lib ketdi. Nafasimni rostlab olay. O‘zingiz bilardingiz,*

²²³ Aznaurova E.S., Abdurakhmanova Kh.I., and others. Translation theory and practice. – T.: Uqituvchi, 1989. – P.6; Zoya Proshina. Theory of Translation (English and Russian), 3rd Edition. – Vladivostok: Far Eastern University Press, 2008. – P.14-21

²²⁴ Goethe J.W. Sämtliche Werke, hrsg. von H. Kurz. Bibliogr. Institut. Leipzig und Wien, Bd. 12, S. 649-650.

²²⁵ Jack London. Martin Eden. <https://standardebooks.org/ebooks/jack-london/martin-eden>

bu yerga kelishni istamovdim, undan keyin, oila a'zolaringizniyam meni ko'rishga ko'zlar uchib turgan bo'lmasa kerak”²²⁶.

Asliyat va uning o'zbekcha tarjimalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz hamda o'zbek tillarida murojaat va kishi nomlari, ya'ni atoqli otlar vergul bilan ajratiladi. Artur Konan Doylning “Oqqa qizil bilan” qissasidan keltirilgan matnda ham murojaatning vergul bilan ifodalanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

“My dear fellow, what does it matter to me?

O'zbek tilidagi muqobilida ham murojaatdan so'ng vergul ishlatalgan:

“Azizim, menga nima foyda?”

Rus tilidan ingliz tiliga o'girilgan gapda ham tarjimon ingliz tili punktuatsion me'yoriga muvofiq tarzda murojaatdan so'ng vergul qo'llagan:

*“Dear Meter Inspector,” was composed on a pale blue field. “I'm at such-and such a place.”*²²⁷

“Martin Iden” asaridan keltirilgan keyingi matnlarda ham personajning hissiy-emotsionalligini ko'rsatuvchi undov belgisining tarjima matnida muqobili qo'llanganligi kuzatiladi:

“He staggered along like a drunken man, murmuring fervently aloud: (1) “By God! By God!”.

O'zbek tilidagi tarjima:

“U xuddi mast kishidek gandiraklab borar va eshitilar-eshitilmag'o ldirardi:

– Voy, jin urgur! Voy, jin urgur!

Ta'kidlash kerakki, tarjima matnida undov belgisi his-tuyg'uni ko'rsatish uchun qo'llangan bo'lib, D.E.Rozental bu tinish belgisining vazifasini shunday baholaydi: “Undov belgisi buyruq yoki buyruq maylida ifodalangan his-hayajonli so'roq gaplar oxirida qo'llanadi”²²⁸.

²²⁶ Лондон, Ж. Мартин Иден: роман / Жек Лондон; тарж. К. Мирмуҳамедов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 3.

²²⁷ Rubina Dina. “Here comes the Messiah!” / translated from Russian by Daniel M. Jaffe. – Brooklyn: Zephyr Press, 2000. – 368 р.

²²⁸ Розенталь Д.Э. Пунктуация и управление в русском языке. – М.: Книга, 1988. – С.11

Ko‘p ishlatiladigan yana bir tinish belgisi vergul bo‘lib, uning vazifasi jihatidan barcha tillarda o‘xhash. Masalan, vergulning ingliz, rus va o‘zbek tillarida uyushiq bo‘laklar hamda gaplarni ajratishda, ergashgan qo‘shma gaplarda, ajratilgan bo‘laklarda hamda takrorlangan so‘zlar orasida ishlatilishida bu o‘xhashlikni ko‘rish mumkin. Ingliz va o‘zbek tillarida murojaatlar vergul bilan ajratiladi. Qolaversa, vergul muallif gapini ko‘chirma gapdan ajratish uchun ham qo‘llanadi. Masalan:

“It was just an accident”, he said, putting his hand to his cheek.

– *Shunaqa bir voqea bo‘lgan edi, – dedi u qo‘li bilan yonog‘ini silarkan.*

Keltirilgan ikki tildagi gaplarda ko‘chirma gapdan so‘ng vergul qo‘yib muallif gapidan ajratilgan. Noo‘xhash jihat o‘zbek tilidagi tarjimasida ko‘chirma hamda muallif gapi o‘rtasida verguldan so‘ng tire qo‘llanilgan. Ingliz tilida shu holatda tire qo‘llanishi gapning tugallanmaganligini ko‘rsatadi. Shu sababli ingliz tilida vergul bilan kifoyalanilgan. Shuningdek, o‘zbek tilidagi tarjimada ko‘chirma gaplar har ikki tomonidan tire bilan ajratilgan. Ingliz tilidagi matnda esa ayni ko‘chirma gap ikki tomonidan qo‘shtirnoq bilan ajratilgan. Agar matndagi ko‘chirma gaplarning barchasi qo‘shtirnoq bilan ajratilaversa, matnning dizayni mutlaqo yaroqsiz holatga kelib qoladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xhashliklar shuki, undalma, murojaat vergul bilan ajratilib, ko‘chirma gap oxirida vergul, muallif gapi so‘ngida nuqta qo‘yilgan. Noo‘xhash jihatlari: ingliz tilidagi gap qo‘shtirnoqqa olingan, murojaat gap o‘rtasida kelgan va **he said**, dan keyin vergul ishlatilgan. Yana bir jihat ingliz tilida ko‘chirma gap va muallif gapi o‘rtasida tire qo‘llanilmagan. Keyingi misolda murojaat gap oxirida kelgan:

“Won’t you sit down, Mr. Eden?” the girl was saying.

– *O‘tiring, mister Iden, – dedi qiz.*

Ushbu gaplardagi o‘xhashliklar shuki, muallif gapidan keyin nuqta va murojaatdan oldin vergul qo‘yilgan. Ingliz tilidagi gap taklif ma’nosida kelganligi bois ko‘chirma gapga so‘roq belgisi qo‘llanilgan. O‘zbek tili tarjimasida gap

buyruq ohangiga ega bo‘lganligi sababli gap so‘ngida nuqta qo‘yilib, ko‘chirma va muallif gapi o‘rtasida tire kelgan.

Yuqorida keltirilgan tahlil shundan darak beradiki, adekvat tarjima matnini yaratishda nafaqat leksik birliklarning, balki tinish belgilarining o‘rni beqiyosdir. Ular matn mazmunini to‘g‘ri ifodalashda va tarjima mazmunining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida nuqtaning o‘xhashligi u darak gaplarning oxiri hamda ayrim qisqartmalarda qo‘ysa-da, sarlavhalar oxirida qo‘yilmaydi. Masalan,

“I appreciate their importance. Here is my monograph upon the tracing of footsteps, with some remarks upon the uses of plaster of Paris as a preserver of impresses”²²⁹.

“— Shunchaki ularning muhimligini tushunaman. Yoki oyoq izlari to‘g‘risidagi risolamni olaylik. Unda o‘scha izni saqlab qolish uchun gipsdan foydalanish to‘g‘risida gapiriladi”²³⁰.

Ingliz tilidagi matn va uning o‘zbekcha tarjimasida qo‘llangan nuqta fikrning tugallanganligini bildirib, ularni bir-biridan ajratishga ham xizmat qiladi. Keyingi asliyat matni va uning o‘zbekcha tarjimasida nuqtali vergulning qo‘llanilishiga e’tiborimizni qaratamiz:

“By Jove!” I cried; “if he really wants someone to share the rooms and the expense, I am the very man for him²³¹.

O‘zbek tilidagi tarjima matni

*— Jin ursin! — xitob qildim men. — Agar u rostdan ham kvartira va xarajatini baham ko‘rmoqchi bo‘lsa, xizmatiga tayyorman!*²³²

Demak, ingliz tilida nuqtali vergul ma’no jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan ikkita mustaqil gaplar (yoki bo‘laklar)ni bog‘lashga xizmat qilgan²³³. O‘zbek tilidagi gapning ma’no jihatdan yaqinligi saqlangan bo‘lishiga qaramasdan, tarjima

²²⁹ Arthur Conan Doyle. The Sign of Four <https://www.weblitera.com>.

²³⁰ Артур Конан Дойл. Шерлок Холмс ва доктор Уотсоннинг саргузаштлари: ҳикоялар ва қиссалар/ А.К.Дойл; тарж. Н.Хабибулаев. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б.129.

²³¹ <https://www.weblitera.com>

²³² Артур Конан Дойл. Окка кизил билан: қисса/А.К.Дойл; тарж. Ориф Фармон. – Т.: Davr Press, 2009. –Б.5.

²³³ Gordon I. Practical punctuation of the English language. – London.: Heinemann Educational Books, 2002. – P.72

matnida nuqtali vergul qo‘llanmagan bo‘lib, gap oxirida undov belgisi qo‘yilgan. Tarjimada mazmun va shakl uyg‘unlashmagan. Shuni qo‘sishimcha qilish kerakki, o‘zbek tilida qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-biridagi mazmunan uzoq bo‘lganda ular orasiga nuqtali vergul qo‘yiladi. Ko‘rinadiki, nuqtali vergul ishlatilishidagi shu jihat ingliz tilida nuqtali vergulning qo‘llanish holatiga ziddir.

Shuningdek, ingliz tilida nuqtali vergul murakkab gaplarni o‘z ichiga olgan qo‘shma gaplarning har ikkala qismi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lganda ishlatiladi²³⁴, masalan:

I believe he is well up in anatomy, and he is a first-class chemist; but, as far as I know, he has never taken out any systematic medical classes²³⁵.

O‘zbek tilidagi tarjimasi:

Menimcha, anatomiyani a’lo biladi, birinchi darajali ximik, lekin tibbiyotni muntazam o‘rganmagan²³⁶.

Asliyatdagi nuqtali vergul rus va o‘zbek tarjimalarida vergul bilan ifodalangan. Tarjimonlar gapning har ikkala qismi teng muhimlikka egaligini inobatga olishmagan.

Keyingi tinish belgi ikki nuqta bo‘lib, u bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganda ishlatiladi. Bunda bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanaladi. Ushbu til hodisalarini dalillash uchun ingliz badiiy asaridan olingan misolga va uning o‘zbekcha tarjimasiga murojaat qilamiz:

“He forgot where he was and Bernard Higginbotham’s existence, till that gentleman demanded:

“Seen a ghost? ”²³⁷

Asliyat matnining o‘zbekcha tarjimasi:

“U o‘zining qayerdaligini, Bernard Xigginbotamning shu yerda o‘tirganini ham unutib qo‘ydi, faqat nomi yuqorida zikr etilgan jentelmenning unga:

²³⁴ Gordon I. Ko‘rsatilgan manba – P.40.

²³⁵ <https://www.weblitera.com>

²³⁶ Артур Конан Дойл. Шерлок Холмс ва доктор Уотсоннинг саргузаштлари: Ҳикоялар ва қиссалар/ А.К.Дойл; тарж. Н.Ҳабибулаев. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – Б.6.

²³⁷ Jack London. Martin Eden. <https://standardebooks.org/ebooks/jack-london/martin-eden>.

– *Nima, ko'zingga arvoh ko'rindimi deyman? – deb bergen savolidan keyingina esini yig'ib oldi*”,²³⁸

Ta'kidlash joizki, matnda ikki nuqta murojaat ma'nosini anglatgan. O'zbek tilidagi tarjima matni bilvosita tarjima qilinganligi sababli rus tilidagi tarjimasidagi tinish belgilari qo'llangan.

Tarjima jarayonida ayrim tinish belgilarining vazifalari bir xil bo'lganligi sababli tarjima tilida saqlab qolinadi. Biroq o'sha tilda bir xil xususiyatga ega bo'lmasa, uning o'rnini bosuvchi boshqa belgi qo'llanadi. Buni quyida ingliz tilidan bilvosita tarjima qilingan asardan keltirilgan gaplar misolida ko'rishimiz mumkin:

“*Ruth, this is Mr. Eden.*”²³⁹

O'zbek tilidagi tarjima matni:

*Ruf! Bu, mister Iden bo'ladi*²⁴⁰.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi misolda murojaat, ya'ni undalma gap boshida kelib, vergul bilan ajratilgan. Gap oxirida nuqta qo'yilib, qo'shtirnoqqa olingan. *Mr.* so'zi qisqartma ot bo'lganligi bois nuqta bilan ajratilgan. Gap boshida tire qo'yilmagan. Asliyatdagi atoqli ot *Ruth* dat tilidan o'zlashganligi sababli tarjimaning transliteratsiya usuliga binoan *Rut*²⁴¹ shaklida berilishi kerak edi. O'zbek tilidagi tarjima bilvosita bo'lganligi sababli ayrim tinish belgilarining ishlatilishida o'xshashlik bor: murojaatdan so'ng undov belgisi qo'yilgan. O'zbek tilidagi tarjimada ingliz va rus tillaridan farqli o'laroq, “*Bu*,” ko'rsatish olmoshidan keyin vergul qo'yilgan.

Asliyatdagi keyingi gapda *murojaat-undalma* gap o'rtasida kelgan:

“*Hold on, Arthur, my boy,*” he said, attempting to mask his anxiety with facetious utterance²⁴².

O'zbek tilidagi tarjimasi:

²³⁸ Лондон, Ж. Мартин Иден: роман / Жек Лондон; тарж. Қ. Мирмуҳамедов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б.45.

²³⁹ Jack London. Martin Eden. <https://standardebooks.org/ebooks/jack-london/martin-eden>.

²⁴⁰ Жек Лондон. Мартин Иден. Таржимон: Қодир Мирмуҳамедов. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – Б.7

²⁴¹ Гиляревский Р.С., Старостин Б.А. Иностранные имена и названия в русском тексте. – М.: Высшая школа, 2002. – С.303

²⁴² Jack London. Martin Eden. <https://standardebooks.org/ebooks/jack-london/martin-eden>

– Artur, azizim, birpas sabr qilsangiz, – dedi u o‘zining xijolat bo‘lganini yashirish uchun hazilomuz ohangda²⁴³.

Undalma gap ichida kelganda subyektiv munosabatni ifodalashini nazarda tutib, o‘zbek tilidagi tarjimada ham gap ichida berilishi va ikki tomonidan vergul bilan ajratilishi lozim edi. Chunki o‘zbek tilida murojaat shakllari undalmalar gap boshida kelsa, faqat tinglovchining diqqatini qaratish-chaqirishni ifodalashi, gap ichida va oxirida kelganda subyektiv munosabatini (muhabbat yoki nafratni) bildirishiga xizmat qilishi adabiyotlarda aytilgan²⁴⁴.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshashliklar shuki, undalma, murojaat vergul bilan ajratilib, ko‘chirma gap oxirida vergul, muallif gapi so‘ngida nuqta qo‘yilgan. Noo‘xhash jihatlari: ingliz tilidagi gap qo‘shtirnoqqa olingan, murojaat gap o‘rtasida kelgan va *he said* dan keyin vergul ishlatalgan; ingliz tilida ko‘chirma gap va muallif gapi o‘rtasida tire qo‘llanmagan.

Quyida Jek Londonning “Martin Iden” asaridan keltirilgan misolda murojaat gap oxirida kelgan va o‘zbek tiliga shu tariqa tarjima qilingan:

- “Won’t you sit down, **Mr. Eden?**” the girl was saying²⁴⁵.
- *O‘tiring, mister Iden,* – dedi qiz²⁴⁶.

Ushbu gaplardagi o‘xshashliklar shuki, muallif gapidan keyin nuqta va murojaatdan oldin vergul qo‘yilgan. Ingliz tilidagi gap taklif ma’nosida kelganligi bois ko‘chirma gapda so‘roq belgisi qo‘yilgan. O‘zbek tilidagi tarjimalarda gap buyruq ohangida bo‘lganligi sababli nuqta qo‘yilib, ko‘chirma va muallif gaplar o‘rtasida tire qo‘yilgan.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Tinish belgilaringning qanday usul va tartibda qo‘llanishi punktuatsion tamoyillari asosida belgilanib, matn strukturasi mantiqan grammatik me’yorlarga muvofiq shakllantirilib, tinish belgilari tizimi yozma nutqda grammatikaning ikkita sathi, jumladan, so‘zlar, iboralar, jumlalarning o‘zaro munosabatlarini tinish

²⁴³ Жек Лондон. Мартин Иден. Таржимон: Қодир Мирмуҳамедов. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – Б.4

²⁴⁴ Махмудов Н., Мадвалиев А., Махкамов Н. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – 88 б

²⁴⁵ Jack London. Martin Eden. <https://standardebooks.org/ebooks/jack-london/martin-eden>

²⁴⁶ Жек Лондон. Мартин Иден. Таржимон: Қодир Мирмуҳамедов. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – Б.10.

belgilari vositasida me'yorga soluvchi leksik grammatika hamda barcha punktuatsion belgilarni matnda qo'llash qoidalarini o'z ichiga oluvchi matn grammatikasiga asoslanadi. Tinish belgilari ko'p o'rnlarda turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi, masalan, ko'p nuqta yordamida keyingi tafsilotlarni ko'rsatish, qo'sh tire vositasida qo'shimcha ma'lumotni keltirish yoki umumiyl xulosani qavs orqali matnda ifodalash muayyan qoidalarga bo'ysunishni taqozo etadi.

2. Matnda qo'llanilgan tinish belgilarining vazifalari birlashgan holda ifodalansa, gap mazmunini anglashda muammolarni keltirib chiqaradi. Tinish belgilarining nutq shakllariga, adabiy til funksional stillariga bog'liq holda ishlatilishidagi umumiyl me'yor va qonuniyatlar stilistik tamoyil assosida belgilanib, matnlarni ma'no va mazmunlari negizida qismlangan holda ko'rsatishdan iborat. Binobarin, matnda qo'llanilgan har bir tinish belgisi kodifikatsiyalangan me'yordan tashqari, matn mazmuniga ta'sir etuvchi, kerak bo'lsa uni tubdan o'zgartiruvchi jihatlariga ega bo'lib, yozuvchi ifodalagan matn mazmunini to'g'ri anglab, uni idrok etish faqat kitobxonning bilimi hamda dunyoqarashiga bog'liqdir.

